

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O'zbek adabiyoti kafedrası

Tohir Xo'jayev

O'zbek adabiyoti tarixi
(mumtoz adabiyot)

(pedagogika institutlari o'zbek tili va adabiyoti
fakul'tetlarining II kurs talabalari uchun ma'ruzalar matni)
II bo'lim

MUNDARIJA

Alisher Navoiy	5
Alisher Navoiyning hayoti va faoliyati	7
Navoiy lirikasi	11
«Xamsa»ning yaratilishi	21
Navoiyning liro-epik asarlari. «Xamsa»ning yaratilish jarayoni... ..	24
«Hayratul-abror»	27
«Farhod va Shirin»	31
«Layli va Majnun»	37
«Sab`ai sayyor»	41
«Saddi Iskandariy»	46
Lisonut-tayr	51
«Mahbub ul qulub»	54
Navoiy - adabiyotshunos	58
Zahiriddin Muhammad Bobur	62
Bobur she`riyati	65
«Boburnoma»	69
Muhammad Solih. «Shayboniynoma»	72
Xoja	76
Majlisiy. «Qissai Sayfulmuluk»	81

Tuzuvchi:	filologiya fanlari nomzodi, dotsent Tohir Xo`jayev
Mas`ul muharrir:	filologiya fanlari nomzodi O.Qayumov
Taqrizchilar:	dotsent M.Farmonova , dotsent A.Xolmurodov

Navoiy davlat pedagogika instituti o`zbek filologiyasi fakulteti kengashi (2005 yil 26 avgust 1-son majlisi) qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Darig'o, o'zimga o'zim qilibman,
Yurakimni o'zim kuchga tilibman.

Kishiga ishq agar hamroh bo'lsa
Gadodur ul agarchi shoh bo'lsa.

Dedi: qochqon bila qutilsa bo'lmas
Boqib turub xotindek o'lsa bo'lmas.

Umuman, bu asar faqat o'zbek xalqining emas, balki qator Sharq xalqlarining ham sevimli asaridir.

MAVZU: ALISHER NAVOIY

R E J A:

1. Kirish
 2. Navoiy haqida.
 3. Navoiy faoliyati va merosini o'rganish tarixi.
 4. Buning manbalari.
 5. O'tmishda Navoiyning o'rganilishi.
 6. Bugungi kunda Navoiy merosini o'rganish.
- Xulosa

A D A B I Y O T L A R:

1. N.Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob. T., 1963.
2. O'zbek adabiyoti. Darslik. 10-sinf. T., 1999 y.
3. Xondamir. Makorimul-axloq. T., 1967.
4. Zayniddin Vosifiy. Badoeul vaqoe`. T., 1979.
5. Navoiy zamondoshlari xotirasida. T., 1985
6. I.Sulton. Navoiyning qalb daftari. 4 tomlik. 3-tom. T., 1973.

Bugungi kunda hukumatimiz o'tmish merosimizga katta hurmat bilan munosabatda bo'lmoqda. Ko'plab san'atkorlarimiz xalqimizga qaytarilmoqda. Asarlari tadqiq etilmoqda. Bugungi kun nuqtai nazaridan o'rganilmoqda. Alisher Navoiy merosiga bo'lgan munosabat yana ham kuchaydi. Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 11 chaqiriq 1-sessiyasi 2-yig'ilishida Navoiyni yana ham kengroq o'rganishni, uning asarlarini xalqimizga sodda va tuShunarli tarzda etkazish zarurligini uqtirdilar. Haqiqatan ham, Navoiy shaxsiyati, asarlarining yoshlarimizni ma'naviy etuk, har jihatdan mukammal qilib tarbiyalashdagi o'rni benihoyadir.

Navoiyning buyukligi nimada? Nima uchun unga qayta-qayta murojaat etamiz? Uning ulug'ligi ko'p va xo'p yozganligidami? Tafakkurining kengligidami? YUksak amallarda ishlaganidami? Bu savollarning hammasi ham Navoiy buyukligining bir qirrasidir. 200000 misra yozgan, 100000 misra yod biladigan, rang-barang janr va mavzularda asar yoza olgan shaxs ilohiy nurga erishgani Shubhasiz.

Navoiy umrini xalq va yurtga bag'ishladi. U Shoir, adabiyotshunos, donishmand, tarixchi, tilshunos, o'zbek adabiy tiliga asos solgan, ilm-fan homiysi, donishmand-qisqasi ulkan san'atkor.

Navoiy ijodiga qiziqish, o'rganish o'z davridan boshlandi. Navoiy hayoti va ijodini o'rganishdagi birinchi manba uning o'z asarlaridir. Uning barcha asarlarida, ayniqsa «Munshaoot», «Vaqfiya», «Xamsat-ul-mutahayyirin», «Xutbai davovin», «Majolisun nafois», «Muhokamatul-lug'atayn» kabi asarlarida hayoti va faoliyatiga doir ko'p ma'lumotlar bor. Ularda Navoiyning shaxsiy hayoti, ijodiy faoliyati, ayrim asarlarining yozilish tarixi, obodonchilik borasidagi ishlari, do'stlari, dushmanlari bilan bo'lgan munosabatlari va boshqa masalalar bayon etilgan.

Navoiy faoliyati va merosini o'rganishda zamondoshlarining asarlari ham muhim o'rin tutadi. Xondamirning «Makorimul-axloq», «Habibus-siyar» /«Suyukli xislatlar»/, «Xulosatul-axbor» /«Voqealarning xulosasi»/, Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat-ush-Shuaro», Boburning «Boburnoma», Vosifiyning «Badoyiul-vaqoe» /«Go'zal voqealar»/ kitobi va boshqalar Shular jumlasidandir. Ayniqsa, Xondamir asarlarida ko'p ma'lumotlar keltirilgan. «Makorimul-axloq»da Navoiyning hayoti so'nggi kunlarigacha bo'lgan davri, ijodi, davlat va binokorlik faoliyati, tug'ilishi, bolaligi, Husayn Boyqaro saroyiga kelishi va boshqalar tasvirlanadi. Asarda Navoiy hayoti bilan bog'liq kichik mutoyibalar, latifalar, hikoyalar ham beriladi.

Vosifiy «Badoeul-vaqoe» asarida Navoiyning mijozi, nazokati, latofati, nafsoniy shahvatning cheklanganligi, Mavloni Binoiy bilan munosabatlari, Pahlavon Muhammad bilan yaqinligi va boshqalar haqida yozadi.

«Boburnoma»da esa Navoiy shaxsiy hayoti, asarlari bilan bog'liq anchagina ma'lumotlar keltiriladi.

Bulardan tashqari, Jomiyning «Yusuf va Zulayho», «Xiradnomai Iskandar», «Bahoriston» kabi asarlarida ham ma'lumotlar bor. Navoiy keyingi asrlarda yaratilgan ko'pgina tazkira va tarix kitoblari va memuarlardan ham o'rin olgan. Lutf Alibek Ozarning «O'tashkada», Som Mirzoning «Tuhfai Somiy», Faxriy Hiraviyning «Latofatnoma», Mirzo Haydar Dug'latning «Tarixi Rashidiy» asarlari Shular jumlasidandir.

Navoiy hayotini o'rganishda xalq og'zaki ijodining o'rni ham katta. Navoiy haqida o'zbek, tojik, turkman va boshqa xalqlar og'zaki ijodida ko'plab ertak, afsona, hikoyatlar yaratilgan. /Bu jihatdan M.Jo'raev tomonidan tuzilgan «El desa Navoiyni...» kitobini eslash kifoyadir./

Navoiyning asarlari turli davrlarda xattotlar tomonidan hurmat bilan ko'chirildi. XIX asrning 70-yillarida O'zbekistonda bosmaxona paydo bo'lgandan keyin Navoiyning «Xamsa», «Chor devon», «Vaqfiya» va boshqa asarlari bir necha marta nashr etildi.

Navoiy asarlariga nazira bitish, g'azallariga muxammas bog'lash an'anaga aylandi. Yozuvchi Umar Boqiy Navoiyning «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» dostonlarining qisqartirilgan nasriy variantini ishlab chiqdi. Navoiy asarlari bo'yicha lug'atlar tuziladi. Xorazmlik Muhammad Xoksoning o'zbek tilida yozilgan «Muntaxab-ul-lug'at» /«Tanlangan lug'atlar». 1798/ kitobi uchun Navoiy asarlari matniga keng o'rin berildi. Navoiy hayotining oxirida Yoki o'limidan bir oz keyin uning asarlari asosida «Badoyi-ul-lug'at», keyinroq esa «Lug'ati Navoiy» yaratildi.

Yevropaliklar XVI asrlardan boshlab Navoiy asarlari bilan tanisha boshlagan bo'lsada, Navoiy ijodini o'rganish asosan XIX asrda boshlandi. Fransuz Sharqshunosi Katmer 1841 yilda bosilgan majmuasiga Navoiyning «Muhokamatul-lug'atayn» va «Tarixi mulki Ajam»ni kiritdi. Rus olimi I. Berezin «Turk xrestomatiyasi» kitobida Navoiy asarlaridan bir necha parcha berdi. Navoiy faoliyatini o'rganish Nikitinskiyning «Amir Nizomiddin Alisher, uning davlat va adabiyot sohasidagi ahamiyati» nomli magistrlik dissertatsiyasi /1856/ bilan boshlandi. U Navoiyni tarjimon shoir deb baho berdi. 1861 yilda Istambuldagi «Osiyo» jurnalida Belinning Navoiy haqidagi maqolasi bosilib chiqdi. U Navoiyni tarjimon dedi.

ketib, 6 oy deganda bir jaziraga kelishadi. Shahzoda do'stlaridan ayrilib yolg'iz qoladi. Shahzoda sol yasab, daryoda suzadi. Sol buzilib, bir parcha taxtada jon saqlaydi. Osmondan bir qush kelib, uni olib uchadi. Tog'da ajdarhoni o'ldirib, qushning bolalarini asrab qoladi. Bir yil tog'da yashaydi. Sherni o'ldiradi. Bir chorbog'qa keladi. Devning bog'ida Malikani uchratadi. Bu qiz Bade'uljamol bilan emikdosh ekanligini aytadi. Devni Sulaymon uzugi Yordamida o'ldiradilar. Sarandebga yo'l olishadi. Shahzoda bilan Bade'uljamol uchrashadi. Shahzodani qulzum devlari zindonga tashlashadi. Shahbol devlarni yengadi. Bog'i eramda to'y bo'lib, Sayfulmulukka Bade'uljamol beriladi. Sayfulmuluk o'z yurtiga qaytadi.

Majlisiy bu dostonni yozishda forsiy tildagi nasriy Sayfulmuluk syujetidan, Shuningdek, «Gul va Navro'z» dostonini mezon qilib olgan.

Fors-tojik tilidagi 119 baytli qissa Majlisiyda 4164 misrani tashkil qiladi.

Majlisiy dostonida bir qator obrazlar mavjud Sayfulmuluk obrazi ancha puxta ishlangan.

Uning ruhiy holati Shunday chiziladi:

Mani Misr elida sulton yaratding,
Vale hardam yurakda qon yaratding.
Bori Shahzodaga rohat beribsan
Mani bechorag'a mehnat beribsan.
Agar yuz ming balo kelsa falakdin
Yuz o'gurman taqi ushbu tilakdin.

Sayfulmuluk obrazida Navoiyning Farhodi o'z ta'sirini o'tkazgan. Majlisiy Navoiydan ilhomlangan. Bu doston va obrazlarda o'xshash jihatlar anchagina. Xuddi Shuningdek «Gul va Navro'z»ga monand nuqtalar ham bor. Zangi protretini chizishda bu ko'zga tashlanadi.

Asardagi Soid obrazi ham e'tiborli. Sayfulmuluk bilan Soid do'stligiga asosiy e'tibor berilgan. Soid ko'p harakatlar qilib, Sayfulmulukka Bade'uljamolni olib berishga erishadi.

Asarda bir qator ayollar obrazi ham mavjud. Sarandib shohi Tojiulmulukning qizi Malika, Bade'uljamol, Sayfulmulukning onasi Jamila, Bade'uljamolning buvisi Shahribonu va boshqalar. Bade'uljamol go'zal, oqila qiz. Mana, uning tasviri:

Niholi sarvdek qaddi mavzun
Labi la'lu, tishi chun durri maknun
Ko'ziga boqsangiz - ko'zi suzular
Bo'yi nozik, magar beli uzulur.

Dostonda salbiy obrazlar portreti ham o'ziga xos. Zangi qiz, boshi it, badani odam bo'lgan Sagsaron hukmdorining qizi tasviri bu jihatdan xarakterli.

«Qissai Sayfulmuluk» xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot an'alarini o'zida mujassam etgan. Unda og'zaki ijodga xos qator xususiyatlar, yozma adabiyot ta'siri ko'zga ochiq tashlanadi.

Asarda ko'plab badiiy san'atlar qo'llanilgan. Xalqona so'z va iboralar, jonli so'zlaShuvga xos jumlar ko'zga tashlanadi:

taqaladi. Mazkur syujet «Qissai Sayfulmuluk» nomi bilan 1807, 1849, 1883 /prof. N.Mallayev ilk marta 1883 yilda nashr qilingan deydi/ yillarda qozonda, 1916 yil Toshkentda nashr etildi. 1911 yilda Majlisiyning ushbu asari haqida ilk marta Mahbubjamol Axchurina maqolasi eʼlon qilinadi.

Ushbu syujet «Ming bir kecha» folʼklor varianti orqali Markaziy Osiyo, Qozogʻiston, Sibir tatarlariga kirib borgan. Dastlab fors-tojik tilidagi nasriy varianti mavjud boʻlgan. Majlisiy fors-tojik tilidagi asardan ilhomlanib yozganligini qayd etadi. Demak, «Sayfulmuluk» qissasining oʻzbek adabiyotiga kirib kelishi Majlisiy nomi bilan bogʻliq. «Qissai Sayfulmuluk»ning OʻzFA Sharqshunos institutida uchta nusxasi bor. 1849, 1883, 1888 yilda koʻchirilgan.

Majlisiy XV asr oxirlari XVI asr boshlarida yashab oʻtgan. Hayoti va ijodiga doir maʼlumotlar oz. H.Nisoriyning «Muzakkiri ahhob» asarida ayrim maʼlumotlar koʻzga tashlanadi. U Majlisiyni suhbatga samimiy ulfat ekanligi, yaxshi sheʼrlari, nafis va goʻzal qasidalar borligini yozib, Bobur bilan kechgan voqeani aytib oʻtadi /80-bet/. Faqat taxallusigina maʼlum boʻlgan Majlisiyning kasbi, hayotidagi mavqei, hayot yoʻli, ijodiy faoliyati haqidagi maʼlumotlar oz. Taxminlarga koʻra, u asli xorazmlik boʻlib, XV asr 70-yillarida tugʻilgan. Oʻzbek va fors-tojik tilida ijod qilgan. Devoni yetib kelmagan. Majlisiy dostoni dastlab 1945 yilda O.SHarafiddinov tomonidan «Oʻzbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi»ga kiritilgan. Adabiyotshunoslar A.Ibrohimov, N.Mallayev tadqiqotlar yaratganlar. Dev qoʻliga asir tushgan qizni N.Mallayev Robialmulk deb, B.Mamedov esa qizning oti Malika deb ataydi. Robialmulk, ikkinchi nomi Tojiulmuluk Malikaning otasining ismi deydi.

Otam oti Rabumuluk bilgil
Erur taxt egasi shoh Sarandil.
Taqi bir ismi Tojiulmuluk ul
Qilur barcha yaxshi bila suluk ul.

Dostonning syujeti quyidagicha: Bir kuni Sulton Mahmud oʻzini noxush sezib ikki vazirini chaqirib biron qissa aytib berishini buyuradi. Misr elida Osim ibn Safvon degan shoh boʻlib, befarzand edi. Munajjimlar agar Yaman shohining qiziga uylansa farzandli boʻladi deb bashorat qiladilar. Osim Jamiladan oʻgʻil koʻradi. Ismini Sayfulmuluk qoʻyadilar. Munajjimlar uning uzoq umr koʻrishini, koʻp mashaqqat chekishini aytadilar. Osimning Hamid nomli vaziri bor edi. Uning oʻgʻlini Soid qoʻyadilar. 12 yoshida Sayfulmuluk toʻn va uzuk, Soidga ot hadya qiladi. Toʻndagi qiz Badeʼuljamol boʻlib Gulistoni eram yurtidagi Shohbol binni Shohruhning qizi ekan. 400 sayyoh qidirib ketadi. Bir yil oʻtib ular quruq qaytadilar. Sayfulmulukning oʻzi 400 kema 100 ming kishi bilan yoʻlga chiqadi. 5-6 oy yurib Xitoyga yetadilar. Chin fagʻfuriga 1 hafta mehmon boʻladilar. Fatina shahriga yoʻl oladilar. Dengiz toʻfonidan Sulaymon uzugi Yordamida omon qoladi. Doʻsti Soidni suv olib ketadi. 50-60 kishigina tirik qoladi. Kema yana girdobga tushadi. 3 oy Sayfulmuluk suzadi. 7 kishi omon qoladi. Zangilarga duch kelishadi. Zangi duxtar Shahzodagi oshiq boʻladi. Bir necha yil bu yerda yashaydilar. Soʻng qochadilar. Maymunlar shahriga kelishadi. Itbosh shohi kenja qizini Sayful mulukka beradi. Bu yerdan

Fransuz tarjimoni Bloshe Navoiy asari qimmatini pasaytirdi. Rus sharqshunosi Ilʼminskiy Navoiyning «Muhokamat ul-lugʻatayn» asarini kengroq oʻrganib, uni oʻzbek tili uchun kurashchi sifatida tasvirlaydi. Bartolʼd «Mir Alisher va siyosiy hayot» asarida «Navoiy taqlidchi shoir» degan fikrni takrorladi.

XX asrda Navoiyni oʻrganishga jiddiy kirishildi. oʻziga xos navoiyshunoslik yuzaga keldi. Oʻzbek navoiyshunoslari, boshqa xalqlar olimlari Navoiy asarlarini oʻrganish borasida ish olib bordilar. Professor Fitrat Navoiy asarlari, sheʼrlari, forsiy devon va gʻazallari haqida tadqiqot yaratdi. Navoiy tugʻilganining 500 yilligi munosabati bilan 1941 yilda bir qancha ishlar amalga oshirildi Navoiy asarlari, dostonlari, Ayniy tomonidan «Xamsa»ning qisqartirilgan varianti nashrga tayyorlandi. «Chor devon», «Muhokamat ul-lugʻatayn», «Mahbubul qulub» va boshqalar nashr etildi. Boshqa tillarga tarjima qilina boshlandi. 1939 yilda Olim Sharofiddinov «Alisher Navoiy» nomli ilmiy-ommabop asarini nashr ettiradi. 1940 yilda toʻplam nashr etildi. Shayxzoda «Genial Shoir» asarini nashr etdi. V.Abdullaev Navoiyning Samarqanddagi faoliyati haqida nomzodlik dissertasiyasi yozdi. Bertelʼs «Navoiy» monografiyasini yaratdi. Urush yillarida Oybek «Navoiy» romanini yozdi. Navoiy haqida doston, hikoya, dramalar yaratildi. O.Xoʻjayev sahnada, R.Hamroev ekranda Navoiy rolini ijro etdilar.

1957 yildan boshlab 9 fevral` Navoiy tugʻilgan kun sifatida oʻtkazib kelinmoqda.

Navoiy hayoti va ijodi, asarlari matnini oʻrganishda I.Sulton, sheʼriyatini oʻrganishda H.Sulaymon, Shayxzoda, tarjimai holini oʻrganishda A.Qayumov, Navoiy lirikasi, uslubi masalalari uning ijodi bilan bogʻliq turli masalalar, boʻyicha A.Hayitmetov, «Xamsa» boʻyicha T.Jalolov, S.Hasanov, M.Afzalov, S.Gʻaniyeva, Navoiyning sheʼriyati, tili boʻyicha A.Rustamov, Navoiyning poetikasi boʻyicha Yo.Ishoqov va boshqalarning tadqiqotlari yaratildi.

Oʻzbek navoiyshunoslari safida N.Mallayev, A.Abdugʻafurov, S.Erkinov, B.Valixoʻjayev, R.Vohidov, N.Komilov, I.Haqqulov, S.Olim, N.Jumaxoʻja kabi etuk olimlarimiz ham bor.

Bugungi kunda Navoiy merosining yangi qirralari, diniy-tasavvufiy mohiyatiga eʼtibor qaratilmoqda. Asarlarining toʻliq nashri tayyorlanib chop etilmoqda. 2001 yil Shoir tavalludining 560yilligi munosabati bilan ham koʻp ishlar amalga oshirildi.

M A V Z U: ALISHER NAVOIYNING HAYOTI VA FAOLIYATI.

R E J A:

Kirish.

1. Navoiy haqida.
 2. Navoiy voyaga etgan muhit.
 3. Bolalik yillari.
 4. Navoiy Samarqandda.
 5. Navoiyning siyosiy faoliyati.
 6. Madaniyat va obodonchilik sohasidagi xizmatlari.
- Xulosa.

1. I.A.Karimov. "Barkamol avlod orzusi". T. 1999.
2. I.A.Karimov. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda". T. 1999.
3. N.Mallayev. "O'zbek adabiyoti tarixi". 1-kitob. T. 1963
4. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 2-tom. T. 1978.
5. O'zbek adabiyoti. 4 tomlik. 2-tom. T. 1959.
6. O'zbek adabiyoti. Darslik. 10-sinf. T. 1999.
7. Xondamir. "Makorimul-axloq". T. 1967.
8. Zayniddin Vosifiy. Badoyul-vaqoe'. T. 1979.
9. V.Zohidov. Ulug' Shoir ijodining qalbi. T. 1970.
10. Oybek. "Navoiy". Roman. T. 1995.
11. A.Hayitmetov. "Temuriylar davri o'zbek adabiyoti". T. 1996.
12. Buyuk siymolar, allomalar. 2-kitob. T. 1996.
13. Davlatshoh Samarqandiy. "Shoirlar bo'stoni". T. 1981.

Alisher Navoiy elimizning faxri va iftixoridir. Uning merosi 500 yildan ortiq vaqt mobaynida ko'plab kishilarning ma'naviyati, dunyoqarashi shakllanishida, barkamol avlodni tarbiyalashda muhim manba sifatida xizmat qilib kelyapti. Ulug' shoirimizning, qolaversa o'tmishda o'tgan ko'plab buyuk zotlarimizning merosi bugungi kunda chuqur e'tibor bilan o'rganilayotgani ham bejiz emas. Prezidentimiz I.Karimov asarlari, nutq va suhbatlarida bobokalonlarimiz yaratgan merosning bugungi kundagi o'rni va ahamiyati qayta-qayta ta'kidlanmoqda. Yosh avlodni kamol toptirishda ularning o'rni aniq qayd etilmoqda. Bu jihatdan hazrat Navoiyning, u kishidan bizgacha etib kelgan ulkan adabiy yodgorliklarning ham salmog'i yuksakdir. Xalqimiz mustaqillikka erishgandan so'ng buyuk Shoirimizga yana ham bo'lakcha hurmat va ehtirom ko'rsatilmoqda. U kishi o'z davridayoq yuksak martabaga ko'tarilgan edilar. Zamondoshlari u kishining izzatini o'z o'rniga qo'ya bildi. Shoirlar, hukmdorlar, oddiy xalq Navoiy haqida ko'p va xo'p yozib qoldirganlar. Mirxond, Xondamir, Abdurazzoq Samarqandiy, Zayniddin Vosifiy, Jomiy, Husayn Boyqaro va boshqalarning fikrlari e'tiborlidir. Shoir va hukmdor Husayn Boyqaro «Risola»sida Shunday yozadi:

Erur so'z mulkining kishvaristoni,
Qayu kishvariston-xisrav nishoni.
Dema xisravnishonkim -qahramoni,
Erur gar chin desang sohibqironi.

XV asr jahon ma'naviyatining buyuk siymosi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy hijriy 844 yil ramazon oyining 17-kuni /1441 yil 9 fevral'da Hirotida tug'ilgan. Hirot shahri XV asr birinchi yarmida Amir Temur asos solgan ulug' saltanatning ikkinchi poytaxti, Temurning kenja o'g'li SHohruh Mirzoning qo'l ostidagi obod manzillaridan biri edi. Alisher tug'ilgan xonadon Temuriylar saroyiga azaldan yaqin va yurtda nufuz sohibi edi. Bo'lg'usi Shoirning otasi G'iyosiddin Muhammad o'g'lining tarbiyasiga jiddiy e'tibor beradi.

Professor N.Mallayevning ta'kidicha, Alisherni to'rt yoshida o'qishga beradilar. Uning Hirotidagi o'qishi ko'pga cho'zilmaydi. 1447 yil Shohruh vafotidan so'ng, toj - taxt

xalq boshiga solgan kulfatlari va podshohning o'z xatolarini tushunib yetishi tasvirlanadi. «No'shiravon va beva xotin» hikoyasida esa zolimlik, xalqqa zulm yetkazish, odillik haqida fikr yuritiladi. No'shiravon adolatli qilib tasvirlansa, Ozarbayjonlik hokim esa zolim, beva xotin esa jabrlangan kishi sifatida tasvirlanadi. Ozarbayjon xalqi No'shiravon tomonidan qo'yilgan beg'dan katta jabr ko'radi. Beva xotinning ham bog'i, yeri tortib olinadi. Beva xotin Madoying No'shiravon yoniga borib arz qiladi. No'shiravon tekshirtirib, zolimni o'ldirtiradi.

Xojaning ba'zi bir hikoyatlarida aldoqchi, poraxo'r, zolim qozilarni qoralash ko'zga tashlanadi. «Sulton Mahmud, tolibul ilm va qozi» nomli hikoyatda mana shu narsa tilga olinadi.

Ushbu hikoyatda qozining noinsofligi qoralansa, Sulton Mahmudning donoligi, tadbirkorligi, adolat peshaligi, tolibi ilmning esa aqliy donoligi bayon qilinadi. Ushbu hikoyatda, hikoya ichida hikoya tarzida tolibul ilm tomonidan «Laylak va ilon», «qozi va yer» haqidagi hikoyatlar keltiriladi. «Chumchuq» hikoyatida chumchuq donolik timsoli hisoblansa, «Sulaymon va obi hayot» hikoyatida Butimor dono, aqlli, donishmand sifatida gavdalanadi.

U Sulaymonga hayot, yaqinlari, qavm-qarindoshlari, tanishlari bilan mazmunli, go'zal ekanligini aytib, obi hayotini ichishiga e'tiroz bildiradi.

Umuman olganda, Xojaning ushbu hikoyatlarida Sharqda keng yoyilgan hikoyatchilik an'analari, ko'pgina Sharq mutafakkirlari asarlari, xalq og'zaki ijodi o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xojaning asarlari XVI asr o'zbek nasrining eng yaxshi namunalari bo'lishi bilan bizga, keyingi asrlardagi hikoyachilik rivojlanishiga ham ijobiy ta'sirini ko'rsatdi.

MAVZU: MAJLISIIY. «QISSAI SAYFULMULUK».

R E J A:

Kirish.

1. «Sayfulmuluk» variantlari haqida.
2. Majlisiyning hayoti va ijodi.
3. «Qissai Sayfulmuluk» haqida.
4. Dostonning syujeti.
5. Asardagi obrazlar va ularning talqini.
6. Dostonning badiiy xususiyatlari.

A D A B I Y O T L A R:

1. Darsliklar.
2. H.Nisoriy. "Muzakkiri ahbob". T., 1993.
3. H.Rasulev. "O'zbek epik she'riyatida xalqchilik". T., 1973.
4. B.Mamedov. "Muhabbat va sadoqat dostoni". T., 1989.

Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan syujetlardan biri «Sayfulmuluk» mavzuidir. Bu syujetning fol'klor va yozma variantlari keng tarqalgan. O'rta Osiyo - qozoq, turkman, tojik, Sibir tatarlari orasida mashhur. Qissaning genezisi arab ertaklari «Ming bir kecha»ga borib

liston», Jomiy, Nizomiy, Navoiy asarlarining ta'siri seziladi. Bu asarlarni yozishda Xoja ko'proq xalq og'zaki ijodidan va Nizomiydan ilhomlangan. «Miftohul adl» (Odillik kaliti)da shohlar, vazirlar, turli amaldorlar, ruhoniylar, olimlar, talabalar, hunarmandlar, o'g'rilar, bezorilar va boshqa kishilarning obrazlarini uchratamiz. Hikoyalarda Nuh payg'ambar, Daqqi YUnus, Sulaymon payg'ambar bilan bog'liq diniy hikoyatlar ko'zga tashlanadi. Iskandar, No'shiravon, Sulton Mahmud, Sulton Malikshoh kabi tarixiy obrazlar ham uchraydiki, Xoja hikoyatlarida bu obrazlar tarixiy shaxslardan ko'ra ko'proq badiiy to'qima obrazlarga o'xshaydi.

Hikoyatlarda odob-axloq, yaxshilik, to'g'rilik va egrilik, donishmandlik va zukkolik, tadbirkorlik, halollik, ahillik, johillik, ochko'zlik kabi masalalar xususida fikr yuritadi. Hikoyatlarning ko'pchiligi xalq og'zaki ijodida bo'lganidek, «ayturlarkim» so'zi bilan boshlanib, ko'pincha qissadan-hissa chiqaradi.

Qissadan-hissalar g'azal, qit'a, masnaviy, ruboiy, bayt shaklidagi she'rlar tarzida beriladi.

Professor N.M.Mallayev hikoyatlarni shartli nomlash asosida o'rganishni tavsiya etadi. «Ajoyib viloyat» deb nomlangan bir hikoyatda Iskandarning bir viloyatga borishi, u yerdagi kishilarning hammasi boy ekanligi, bozorlar, do'konlar ochiqligi, o'g'rilar yo'qligi haqida gapiriladi. Iskandar buning sababini so'raganda, bu yerda hamma bir-biriga Yordamlashishi, kim kambag'al bo'lsa, unga ko'maklashib, badavlat kishilar qatorida kiritilishi aytiladi.

Bu hikoyat syujeti Nizomiyning «Iskandarnoma»sida ham uchraydi. Xoja o'z hikoyatlarida adolatni, insofni, xalqqa yaxshilik qilishni yuksak deb baholaydi. «Bir soatlik adolatning bahosi» degan hikoyatida ana Shu tomon qalamga olinadi. Hikoyatda keltirilishicha, bir yurtning podshosi hajga borishni orzu qiladi. Vazirlar mamlakat ishi o'zgaga qolishi sababli ruxsat berishmaydi. Hajga borgan kishining hajini sotib olmoqchi bo'ladilar. O'n ming qizil tangaga ko'p marta hajga borgan bir hojining hajini sotishni so'raydilar. Hoji esa xalqqa qilingan bir soatlik adolat 20 marta hajga borgandan ustunligini aytadi. Gap bu yerda hajni qoralash yoki kamsitish emas, balki, podshoh adolati har narsadan ustun ekanligini qayd etishdir.

«No'shiravon va hakim» nomli hikoyatda ham xalq tomonida bo'lish, unga ozor bermaslik, umuman yaxshilik va adolatning muhimligi qayd etiladi. Hikoyatda qayd etilishicha, No'shiravon mamlakat xazinasini, lashkarini baquvvat qilish uchun nima qilish kerakligi xususida maslahat soladi. Ko'pchilik vazirlar xalqqa solinadigan soliq yig'imlarini ko'paytirish yoki birdaniga olishni tavsiya etadilar. Abuzarjumbur esa bu noto'g'ri ekanligini aytadi. Abuzarjumbur buni misol bilan ko'rsatib beradi. Hikoyat oxirida qissadan-hissa tarzida masnaviy keltiradi.

Eshik yopma mazlumning yuziga,
Ko'zing och, quloq sol aning so'ziga.

«Sulton Mahmud, vazir va ikki boyqush» haqidagi hikoyat syujeti hammamizga yaxshi ma'lum. Bu yozma adabiyotda ham, xalq og'zaki ijodida ham keng ishlangan. Bu hikoyatda ikki boyqushning suhbatlari asosida Sulton Mahmudning va uning amaldorlarining

uchun kurash keskinlashadi. Shu sabab Navoiylar oilasi Xurosondan Iroqqa ko'chib, Taft shahrida yashay boshlaydilar. Ali YAzdiy suhbatiga erishadi. Alisher zukko edi. Akademik V.Zohidovning yozishicha, «Alisher 3-5 yoshlarida fors adabiyoti klassiklarining ba'zi she'rlarini yaxshi yodlab, hamisha aytib yuradi. Navoiy o'zining «Majolisun-nafois» asarida yoshligini, bolaligini eslab o'sha vaqtlarda yodlab olgan bir fors baytini /mashhur shoir Qosim Anvariyning/ yodga olib aytadiki, «hali 3 yosh bilan 4 yoshni orasida erdim, azizlar o'qimoq taklif qilib o'qiganimdan keyin hayrat izhor qilurlar erdi».

1452 yilda Alisher oilasi Hirotda qaytib keladi. G'iyosiddin Muhammad Abulqosim Bobur saroyida xizmat qila boshlaydi. Ko'p o'tmay Abulqosim Bobur uni Sabzavorga hokim qilib tayinlaydi. Navoiy Hirotda qoladi. Sa'diy, Fariddin Attor asarlarini qayta-qayta o'qiydi. «Mantiqut-tayr»ni boshdan oyoq yod oladi. Navoiy yoshlik vaqtidan boshlab saroyda, davlat arboblari, olimlar, shoirlar orasida yashaydi. O'n besh yoshlarida Abulqosim Bobur saroyiga ishga kirib, hukumat yumushini bajara boshlaydi. Adabiyot bilan shug'ullanadi. Fors, arab tillarini o'zlashtirib oladi. Ikki tilda she'r yozib, «zullisonayn» nomini oladi. Prof. M. Imomnazarovning qayd etishicha, «Alisherning she'riyatdagi ilk ustozlari tog'asi Mir Sayyid Qobuliy va Muhammad Ali G'aribiylardir». Navoiyning qaysi yoshdan she'r yoza boshlagani bahsli. Ammo 10-12 yoshlarida o'z she'rlari bilan peshqadam shoirlar e'tiborini qozongan edi. 12 yoshida keksa Mirshohiy bilan xat yozishgani buning dalili. Yoki Lutfiy bilan bo'lgan suhbat. 17-18 yoshlarida Kamol Turbatiy bilan tanishishi.

1456 yilda Abulqosim Bobur Husayn Boyqaro bilan Navoiyni Mashhadga olib ketadi, o'qishni davom ettiradi. 1457 yil Bobur vafot etadi. Husayn Marvga ketadi. Mashhadga qolgan Navoiy mantiq, falsafa, riyoziyot va boshqa fanlar bilan shug'ullanadi. «Navoiy» va «Foni» taxalluslari bilan ijod qiladi. Sayid Hasan Ardasher bilan tanishadi. (1455-56) 18-19 yoshlarida Jomiy bilan tanishadi. Jomiy Navoiyni ham shogird, ham farzand deb biladi.

Pahlavon Muhammad (She'r voqeasi, Navoiy o'rniga Nasimiy deb o'qish), to'rtinchi do'sti Lutfiy.

Akademik V.Zohidov qaydicha, Navoiy 1464 yilda Hirotda qaytadi.

«O'zbek adabiyoti» kitobining 2-tomida esa 1466 yil deb ko'rsatiladi. 1459 yilda Xuroson taxtini Abusaid egallaydi. 1466 yilda Abusaid Alisherni Bobur so'zi bilan aytganda «ixroj»-surgun qiladi. Navoiy o'sha davr odaticha Temuriylarni ochiq tanqid qilmaydi. O'z munosabatini oshkor bildirmaydi. Shu sabab Abu Sayid haqida (u 1451-1569 yilgacha Samarqand, Xurosonda hukmronlik qilgan) pardali qilib so'zlaydi. Salbiy munosabatini Shu bilan ko'rsatadiki, «MN»ga (VII majlisga) uni kiritmaydi. (I.Sulton fikrlari). 1466-1468 yillar orasida Navoiyning umri asosan Samarqandda kechadi. /Navoiyning Samarqanddagi hayoti haqida V.Abdullayevning «Alisher Navoiy Samarqandda» nomli tadqiqoti bilan tanishish mumkin/. Navoiy otasining merosidan mahrum qilinadi. Iqtisodiy qiyinchilikda yashaydi. Samarqand hukmdorlaridan Ahmad Hojibek va Mahmud Tarxon kabilar unga har jihatdan yordam beradilar. Navoiy qiyinchilikda yashasada, oliyhimmatligini unutmaydi. Xondamir «Makorimul-axloq» kitobida bu haqida bir hikoya keltiradi. /Gadoy, unga Navoiyning oxirgi

tangani berishi/. Olim Fazlulloh Abullays Navoiyga mudqarislik qiladi va uni o'ziga farzand deb hisoblaydi. Samarqandda bir qancha taniqli olimlar, san'atkorlar yig'ilgan edi. Mirzo Xoji Sug'diy, Sayid qutb Samarqandiy, Yusuf Safoiy, Shayxim Suhayliy kabi Shoirlar bor edi. Uloyi Shoshiydan dars oladi. Sakkokiy kabi Shoirlar merosi bilan tanishadi. Samarqanddagi madaniy hayot yuksalishiga hissa qo'shdi. Riyoziy, Yusuf Badiylarning ijodidagi kamchiliklarni ko'rsatib beradi.

1469 yilda Sulton Husayn iltimosiga ko'ra Alisher Navoiy Samarqanddan Hirotga qaytadi va ramazon hayiti munosabati bilan do'sti sharafiga bitilgan «Hiloliya» qasidasini unga taqdim etadi. Ikki kun o'tmayoq unga muhrdor lavozimini beradi. Ko'p o'tmay bu lavozimni do'sti Shoir Amir SHayxim Suhayliyga topshiradi. 1472 yilda vazir lavozimini egallaydi. «Amiri Kabir» unvonini beradi. Navoiy bu yerda yetuk ijodkorlarni to'playdi. Ularga homiylik qiladi. Jomiy, Said Hasan Ardasher, Mirxond, Xondamir, Behzod, Qulmuhammad, Amir Burhoniddin, Atoullloh Nishopuriy, Qozi IxtiYoriddin Hasan Turbatiy, Amir Jamoliddin, Asiliy, Abulvose' va boshqalar Shular jumlasidandir. Xondamir «Makorimul-axloq»da shunday yozadi: «Bu hashamat egasi Amir sayid, olim va fozillara haddan ortiq va haddan ziyoda go'zal bog'lar va shodlikni ortdiruvchi joylar in'om qilgandir va ko'p miqdor yaxshi ekinzor yerlar va dilkash suvlik joylarni oliy hazratlarga va mahdumzodalarga, ham poklik pardasi orqali bezalgan joyda o'tiruvchilarga tortiq qilgandir, ularni hisoblash va sanash uchun kishi o'zining ojizligini e'tirof etadilar». Navoiy yaxshi o'qigan talabalar uchun nafaqalar tayin etadi.

Talabalar uchun «Ixlosiya» madrasasi, darveshlar uchun «Xalosiya» xonaqohi, bemorlar uchun «SHifoia» shifoxonasi, masjidi Jome' yoniga qorixona qurildi. Ulug' amirning kutubxonasida 70 dan ortiq xattot va musavvirlar qo'lyozmalarni oqqa ko'chirish, ularni bezash bilan band edilar. Hirotida yana «Nizomiya», Marvda «Xusraviya» va boshqa binolar barpo etildi. Navoiy hayoti va faoliyati haqida ancha keng ma'lumotlar Xondamirning «Makorimul-axloq» asarida keltirilgan. Asarda Navoiyning tarjimai holi to'la berilmasada, Navoiy obrazi to'laroq chiqqan. Asarda Navoiy harakati, fe'l-atvori, dunyoqchashi, ruhiyati, odat va e'tiqodlariga oid juda ko'p ma'lumotlar mavjud. Asarda Navoiyning bino qurilishlariga bevosita ishtirok etishi, ustalar, mardikorlar bilan hazillari, Navoiydagi yumor, hozirjavoblik, o'tkir aql tasvirini ko'ramiz. Muallif Navoiy hayoti bilan bog'liq juda ko'p hikoyatlar keltiradiki, bular Shoir xarakteridagi ko'ngilchanglik, yumshoqlik, rahmdillikni ko'rsatadi. Masalan: Navoiyning chodiriga uya qurgan musicha, kiyimiga ilashgan chumoli haqidagi hikoyatlar.

Shuningdek, ushbu asarda Navoiy tomonidan bunyod etilgan binolar alohida sanab ko'rsatiladi. Madrasalar, xonaqohlar, rabotlar, hovuzlar, ko'priklar, hammomlar va boshqalar. Ba'zi manbalarda Navoiy tomonidan bunyod etilgan binolar soni 200 dan ortiq deb ko'rsatilsa, akademik V.Zohidov ularni 370 ga yaqin deb ko'rsatadi. Bulardan tashqari, Xondamirning ma'lumotiga ko'ra «Xalosiya» xonaqohi yonida musofir va qashshoq kishilarga ovqatlar va har yili 2000 ga yaqin po'stin, chakman, ko'yлак, kovush va boshqa kiyimlar ulashilar ekan.

Va bu turkiy g'azalini aytib, Bobur podshoh huzuriga yuborgan edilar. Podshohga maqbul bo'lib maqtangan edilar.

G'azal budur:

Kunduz avqotim sening hajringda nolon kechadur
Kecha ham zulfing kabi holim parishon kechadur,
Anbarin zulfing xiyolidin ko'zimga ey pari
Yilu oyu soatu kun bori yakson kechadur,
Ulki jondin kechadur shomi visolingni ko'rib,
Vah xush vaqtu, na xush soat na oson kechadur.
Ravshan o'lgay davlati vaslida hijron oqshomi,
Gar gunohimdan bilib, ul mohi tabon kechadur,
Xoja yang'lig' nola qil zulfi g'amidin kechalar,
Kim mahalli nolavu, faryodu afg'on kechadur.

Xoja o'z she'rlarida turli mavzularni yoritadi. Ishq-muhabbat mavzulari bilan birgalikda odob-axloq, ma'rifat, maqtanchoqlik va takkaburlikni qoralash, saxiylikni, qo'li ochiqlikni ulug'lash, umuman pand-nasihat ruhida misralarni yozadi. Shoir ta'kidicha «Sho'ra nihol gul bo'lmas», «Hargiz chaman ichra zog' bulbul bo'lmas». Yana bir o'rinda esa shoir xalqni mevali daraxtga, suv bersa meva berishiga, agar shohlar ularga zulm qilsa, mevasiz qolishini ta'kidlaydi.

Bir she'rida shunday yozadi:

Kimki saning aybing aytur sanga,
Shafqat ila lufu karam qil anga.
Do'sting uldur ani tahqiq bil
Har ne desa so'zini tasdiq qil..
Rost so'z gar tabinga kelsa yomon,
Dema yomon, kim erur ul no'shi jon.

Xojaning adabiy merosining asosiy qismini uning 1539-40 yillar orasida yozgan «Gulzor» nomli hikoyalar to'plami tashkil etadi. Bu asar adabiyotmizdagi odob-axloq ruhida yozilgan ko'pgina hikoyalar, ayniqsa, Sa'diyning «Bo'ston» va «Guliston», A.Jomiyning «Bahoriston» asarlariga o'xshab ketadi. Adabiyotshunoslikda «Miftohul adl» nomli yana bir hikoyatlardan iborat asar ustida anchagina bahslar bo'ldi. Keyingi ilmiy xulosalar bu asarni ham Xojaniki deyishga asos bo'ladi. V.Zohidovning kuzatishlaricha, «Gulzor» bilan «Miftohul adl»ni bir-biriga o'xshashligi kuzatiladi. Ayrim hikmatlar ikkalasida ham uchraydi.

«Miftohul adl» muqaddimasi bor, xotimasi yo'q. «Gulzor»da aksincha. Shuning uchun bo'lsa kerak bu ikki asarni V.Zohidov bir kitobning ikki qismi bo'lsa kerak degan fikrni bildiradi.

«Miftohul adl» va «Gulzor» kichik-kichik hikoyalar to'plamidan iborat. Olimlarning qayd etishicha, «Miftohul adl» 1508-10 yillarda Temur Sultonga bag'ishlab yozilgan. Xojaning «Miftohul adl» va «Gulzor» asarlarida Qur'oni Karimning, Sa'diyning «Gu-

79

Nisoriyning ta'kidlashicha, Xoja fors va turkiy tillarda devonlar tuzgan. Ammo ular hozirgacha bizga qadar yetib kelgani yo'q. H.Nisoriy o'z tazkirasida Xojaning forscha, turkiy tildagi g'azal, ruboiy, baytlaridan namunalar keltiradi.

H.Nisoriy Xojaning sadrlikdan shayxulislomlikka ko'tarilganidan so'ng yozgan ushbu matla'ini keltiradi:

Garchi avval sadr aylab bizni badnom etdilar
Lutf etib oxir Hiriya shayxul islom etdilar.
Shuningdek, Nisoriy Xojaning Odilshoh Sulton madhiga bitgan qasidasidan ham matla'ni keltiradi. Ushbu forscha g'azalni Xojaning muattar is taratuvchi so'zlaridan deb aytadi.

Xatti tu chun zulumoti labi tu obi hayot,
CHu Xizr yoftam obi hayot dar zulumot
Magu hadisi shakar dar barobari dahanash
Ki peshi on dahan az xijolat ob gashta nabot.
Ba domi zulfi tu o'ftod boz murg'i dilam,
Ajab ki boshad az in domgohi umid najot.
Savoli kushtani moro agar zi tu bikunand
Dar im g'amam ki che guyi chavob dar arosat.
Che hojat ast ba Xoja tavofi umravu haj
Ku kui tust uro hamchu Ka'bavi arafot.

Mazmuni:

Labing qora sabzasi xuddi zulumot va labing
tiriklik suvi

Xizrdek tiriklik suvin topdim shu zulumot aro,
Og'zi oldida shakar haqidagi gapni so'zlab o'tirma
Ki ul og'iz yonida uyatdin suvdek erimish navvot
Zulfing tuzog'iga tushdi yana dilim qushi,
Bu tuzoqdan najot umidi borligiga ishonib bo'lmas,
Bizni o'ldirmoq savolini sendan agar so'rab qolsalar,
Shu g'amdamanki arosatda ne deb berasan javobini
Xojaga ne darkor umravu haj tavofiga bormoq,
Ko'changdir uning uchun go'yo Ka'bayu arafot.

H.Nisoriy o'z asarida Xojaning yaxshigina ruboiylar yozganini ham ta'kidlaydi. U shunday yozadi: Va ularning bu ruboiysi g'oyatda mashhur bo'lib, ko'ngillardan joy olgandir.

RUBOIY:
Hargiz zi dimog'i banda bui tu naraft,
Va zi didai man xiyoli rui tu naraft,
Dar orzui rui tu budam hama umr,

Umram hama raftu orzui tu naraft.
MAZMUNI:
Dimog'imdan hiding ketmadi hecham,
Xayoling esa ketmadi ko'zim o'ngidan.
Bir umr orzuim seni ko'rish bo'ldi,
Umrin bari tugadiyu orzuing ketmadi hali ham.

78

Navoiy suvsiz yerlarga suv chiqarish ishiga katta ahamiyat beradi. Tus viloyatining Chashmai Gulist bulog'idan Mashhadga suv keltirish uchun 70 km yaqin masofada ariq qazdiradi.

Husayn Boyqaro saroyida har xil odamlar bor edi. Mansabparastlar, ochko'z, ig'vogar kishilar uchrar edi. Majdiddin, Nizomulmulk kabilar Navoiyga yaxshi munosabatda bo'lmaydilar. U haqda Husayn Boyqaroga noto'g'ri, bo'hton gaplar yetkazib, podshoh ko'nglida Navoiyga nisbatan shubha uyg'otishga harakat qiladilar. Navoiy bir necha marta vazirlikdan ozod etishni so'rab Husayn Boyqaroga murojaat qiladi. 1476 yilda Navoiy vazirlikdan ozod qilinadi. Podshoh Navoiyga hurmat bilan munosabatda bo'laveradi. U Navoiyning katta siyosiy arboblilik qobiliyatini ko'zda tutib, 1480 yilda mamlakat poytaxti Hirotning hokimi qilib tayin etadi. Navoiy vazirlikdan bo'shagandan to 1487 yilgan qadar Hirotga bo'ladi. Davlat ishlariga aralashib turadi. Asosan ilmiy va ijodiy ishlar bilan shug'ullanadi.

Navoiy xarakteri, fe'l-atvori, mamlakat va xalq ishlariga munosabati, dushmanlariga bo'lgan muomalasi va boshqalar Oybekning «Navoiy» romanida chuqur yoritib berilgan. Uni o'qib chiqish har birimizning burchimizdir.

Umuman, Navoiyning o'rni, mavqei hamma davrda ham yuksakligicha qolaveradi. Bobur yozadi: «Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytibturlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytikon emas... Ahli fazl va ahli hunarga Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lgay». Davlatshoh Samarqandiy esa, Navoiydek kishilarni insoniyat faqat bir necha yuz yilda bir marta ko'rishini gapiradi.

M A V Z U: NAVOIY LIRIKASI.

R E J A:

1. Navoiy- lirik Shoir.
 2. «Xazoyinul-maoniy», uning tuzilishi va tarkibi haqida.
 3. Navoiyning «Xazoyinul-maoniy»ga kirmay qolgan she'rlari.
 4. Navoiyning ilk devonlari.
 5. Navoiy lirikasining mavzulari.
 6. Shoir she'riyatidagi obrazlar.
 7. Navoiyning poetik mahorati.
- Xulosa

A D A B I Y O T L A R:

1. Darsliklar.
2. A.Navoiy. “Mukammal asarlar to'plami”. T.,1987-97 y.

3. M. Shayxzoda. Asarlar. 6-tomlik, 4-tom. T., 1972.
4. A.Navoiy. "Xazoyinul maoniy". T., 1960.
5. A.Navoiy. "Qaro ko'zim". T., 1988.
6. A.Navoiy. "Topmadim". T., 1988.
7. A.Hayitmetov. "Navoiy lirikasi". T., 1961.
8. A.Hayitmetov. "Navoiyxonlik suhbatlari". T., 1993.

11

9. A.Hayitmetov. "Temuriylar davri o'zbek adabiyoti". T., 1996.
10. A.Hayitmetov. "Adabiy merosimiz ufqlari". T., 1997.
11. N.Komilov. "Tasavvuf". 1-kitob. T., 1996.
12. A.Rustamov. "Navoiyning badiiy mahorati". T., 1997.
13. Yo.Is'hoqov. "Navoiyning ilk lirikasi". T., 1965.
14. Yo.Is'hoqov. "Navoiy poetikasi". T., 1980.
15. M.Hakimov. "Navoiy lirikasi va xalq og'zaki ijodi". T. 1979.
16. O.Nosirov. "O'zbek adabiyotida g'azal". T., 1972.
17. Navoiy va ijod saboqlari. T., 1981.
18. I.Haqqul. "Tasavvuf va she'riyat". T., 1991.
19. I.Haqqul. "Kamol et kasbkim". T., 1991.
20. I.Haqqul. "G'azal gulshani". T., 1991.
21. I.Haqqul. "Zanjirband sher qoshida". T., 1989.
22. I.Haqqul. "O'zbek adabiyotida ruboiy". T., 1981.
23. S.Olim. "Naqshband va Navoiy". T., 1996.
24. S.Olim. "Ishq, oshiq va ma'shuq". T., 1992.
25. N.Jumaxo'ja. "Asrlar silsilasidagi satrlar". T., 1996.

Alisher Navoiy serqirra ijodkor. Adabiyotimiz tarixida u ko'proq shoir sifatida mashhur. Navoiy juda erta yoshdan boshlab, to umrining oxirigacha she'riyat bilan oshno bo'ladi. She'r yodlash, she'r yozish hayoti mazmuniga aylandi. Navoiy Shoir sifatida Sharq adabiyotini mukammal bildi, o'rgandi. Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, A.Jomiy, Sa'diy, Lutfiy va boshqalarni o'ziga ustoz deb biladi. Professor A.Hayitmetov Navoiy she'riyati, uning ijodkor sifatida shakllanishini Shunday izohlaydi: «Navoiy lirikasi ungacha bu sohada fors-tojik va o'zbek tillarida she'r yozib katta muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritgan o'zbek, fors-tojik Shoirlarining ijodi zaminida vujudga keldi» (A.Hayitmetov. Navoiy lirikasi. T., 1961.22 bet.) Manbalarda qayd etilishicha u maktab yoshidan boshlab she'r yoza boshladi. 1465-66 yillar orasida kitobxonlar tomonidan she'rlari jamlanib devon tuzildi. 1465-1466 yillarda tuzilgan ilk «Devoni Navoiy» mashhur xattot Sulton Ali Mashhadiy tomonidan tayyorlangan. Unda 1466 yildan ilgari yozilgan she'rlari kiritilgan. Devonda 391 g'azal, 41 ruboiy va bir mustazod bor. Hayotiy ishqni kuylaydi. Diniy fikrlarni bildiradi. SHohlik va darveshlik haqida gapiradi. Davr muammolari haqida bahs yuritadi.

(I.Sulton. Navoiyning qalb daftari. 3 -tom. T., 1973. 177-185 -betlar). 1470-76 yillar o'zining ilk devoni «Badoeul-bidoya»ni tuzdi.

Dahr bog'ida bo'lib komim ravo,
Komronlar topti nazmimdin navo.

Shu bayt asosida «Navoiy» taxallusi «Baxtni kuylovchi» ma'nosida olgani aytiladi. (82-bet). Bu devondan Shoirning 842 ta she'rlari joy olgan. Ulardan 585 tasi g'azal, 3 ta tarjiband, 4 ta muxammas, 2 ta musaddas, 3 ta mustazod, 49 ta qit'a, 78 ta ruboiy, 10 ta chiston, 52 muammo, 10 ta tuyuq, 46 ta fard.

1476-84 yillar orasida 2-devoni «Navodirun-nihoya»ni (Behad nodirliklar) tuzdi. Prof. A.Abdug'afurov e'tiroficha, birinchi rasmiy devon 1478-79 yillarda tuzilgan.

12

5. A.Tohirjonov. "Xojaning yangi topilgan asari". «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali. 1975 yil. 3-son.
6. O'zbek adabiyoti. 5-sinf. Darslik. Majmua. 1993.
7. Asrlar nidosi. T. 1982.
8. A.Ibrohimov. XVI asr o'zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari. T., 1976.
9. H.Nisoriy. "Muzakkiri ahhob". T., 1993.

Ibodulla Said Poshshoxo'ja binni Abdulvahobxo'ja (Xoja) XVI asr o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biridir. Xoja haqidagi ma'lumotlar unchalik ko'p emas. Hasan Nisoriyning «Muzakkiri ahhob» tazkirasida Xoja, hayoti va ijodi, qarindoshlari va boshqalar haqida ma'lumotlar keltiladi. Ushbu kitobda qayd etilishicha Xoja 1480 yil Nisoda (boshqa bir manbalarda esa Balxda) tug'ilganligi qayd etiladi. U ruhoniylar shayx oilasida tavallud topgan. Ma'lumotlarga ko'ra, dastlab otasi qo'lida ta'lim oladi. Keyinchalik Niso, Marv madrasalarida tahsil oladi. Uning juda erta Shoir sifatida tanilganligi qayd etiladi. Ijtimoiy faoliyatini Kepakmirzo hukumatida 1496 yilda sadrlar lavozimi bilan boshlaydi. Xoja 1508 yillarga kelib Shoir sifatida taniladi. Adib sifatida asarlar yozadi. 1508 yillar boshlarida Niso va Obuvard shaharlari temuriylardan tortib olinadi. 1508 yil aprelida Shayboniynon Nisoda to'xtab, Xojani Durun viloyatiga hokim etib tayinlaydi. 1510 yildan so'ng M.Solihni Nisoga hokim etib tayinlaydi. 1510 yil kuzida Xoja va M.Solih bu yerlarni tark etib Marvga ketishadi. Dekabr oylarida Shayboniynon vafot etganidan so'ng, Xoja avval Samarqandga, bir oz keyin Buxoroda yashaydi. 1514 yilgacha Temur Sulton huzurida, ozgina fursat Ko'chkinchixon xizmatlarida bo'ladi. 1515-16 yillarda Karmana hokimi Jonibek Sulton hukumatida jumlatul mulk va sadrlar lavozimlarida ishlaydi. 1529 yil Buxoro hokimi Ubaydullaxon davrida shayxulislomlik vazifasida ham ishlaydi. 1534 yil Ubaydullaxon Nishopurga kelganda Kistan qaro Ubaydullaxon Xojani Balxga yuborishni so'raydi va shu yili Xoja Balxda sadri a'zam, bir oz vaqt o'tgach esa shayxulislom lavozimida ishlab mamlakatni adolat bilan boshqaradi. Xoja ancha vaqtgacha bu lavozimlarda faoliyat ko'rsatadi. 1543 yilda bu vazifalardan bo'shaydi va badiiy adabiyot bilan Shug'ullanadi. 1547 yilda Buxoroda vafot etadi. Manbalarga ko'ra Xoja Bahovuddin Naqshband maqbarasi yonida dafn qilingan.

Uning bizgacha 1508-10 yillarda yozilgan va Temur Sultonga bag'ishlangan «Miftohul adl» va 1538 yillarda yozilgan deb ta'kidlanayotgan Kistan qaroyi Odilga bag'ishlangan «Gulzor» asarlari, 1514-20 yillarda yozilgan va Jonibek Sultonga bag'ishlangan «Maqsadul atvor» dostoni hamda bir necha g'azallari yetib keldi. «Maxzanul-asror» nomli asar yozgani, biroq bizgacha yetib kelmagani aytilardi. «Asrlar nidosi» kitobida bu Nizomiy asari emas, Xoja asari ekanligi aytiladi. A.Tohirjonov Sankt-Peterburgdagi qo'lyozmalarini o'rganish asosida Shu fikr paydo bo'lgani aytiladi.

Xojaning adabiy merosi, hayoti va ijodini o'rganish bo'yicha bir muncha tadqiqotlar yuzaga keldi. M.Mirzaahmedovanning Xojaning hayoti va ijodiga bag'ishlangan nomzodlik dissertasiyasini, V.Zohidov, N.Mallayev, S.G'anievva va boshqa shular kabi olimlarning tadqiqotlarini ko'rsatish mumkin.

77

Dostonda urush oqibatlari, xalqning ayanchli ahvoli ishonarli va ta'sirli qilib tasvirlangan. Samarqand xalqining qamaldagi ahvoli:

Toshqori meva chu bisYor o'ldi,
Ichkori xalq dilafkor o'ldi.
Toshqori meva sarosar pishti,
Ichkori ochligidin el shishti
Chun g'alomus eli bebok o'ldi
Teva, otga tamanok o'ldi...(92-bet)

Shahar ichida qirilgan, o'lgan kishilar manzarasi ham ta'sirli tasvirlangan. Shoir tasviricha, dahshatlardan hatto ko'k ham yosh to'kadi:

Avvalo bir necha yog'di yomg'ur
Tomdi ko'kning yoshi mo'ldur-mo'ldur
Yog'di yomg'ur so'ngidin muncha qor
Kim, o'luklarga qilib mehr izhor.

Asarda Shayboniyxon qo'shinlarining talonchiligi ochiq tasvirlanadi. Xondamirning yozishicha, Shayboniy Buxoroni olgandan so'ng aholining butun mollarini talon qilishga buyruq beradi. Hisor aholisiga solgan jafolari dostonida mana bunday tasvirlanadi:

Qoysi qizini topa olmay, hayron,
Qoysi xotuni bila sargardon.
Qoysi inisidin ayrilg'on edi
Ohu faryodu fig'on qilg'on edi...
Qiz: «Ono» deb chekibon vovaylloh
Ono: «qiz» deb qilibon volayu oh...

«Shayboniynoma» voqealarni real tasvirlashi bilan xarakterli. Shoir badiiy tasvir usullaridan, tilda ham mahorat ko'rsatgan. Qarshilantirish, jonlantirish, mubolag'a, tarse, takror, o'xshatish, sifatlash kabi vositalardan keng foydalanilgan.

Doston ramali musaddasi mahbuni mahzuf /foilotun foilotun foilun/ bahrida yaratilgan.

O'zbek xalq dostonlari orasida «Shayboniyxon» nomli bir doston ham bor. Uni Hodi Zarif Po'ltan Shoirdan yozib olgan.

M A V Z U : X O J A .

R E J A .

1. Xoja haqida.

2. Xojaning hayoti va ijodi.
3. Xojaning adabiy merosi.
4. Xoja - hikoyanavis.

A D A B I Y O T L A R :

1. Darsliklar.
2. Poshshoxoja. «Miftohul-adl» va «Gulzor» T. 1962.
3. M.Mirzaahmedova. Xojaning «Maqsadul-atvor» dostoni «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali. 1980 yil, 5-son.
4. M.Mirzaahmedova. Xoja. Toshkent, 1975.

76

Ikkinchi rasmiy devon, «Navodir un-nihoya»sini esa «Xamsa»ni tugatishi hamonoq - 1485 yilda tartibga keltirgan. Unda 693 ta she'r o'rin olgan. Bular 628 ta g'azal, 3 ta mustazod, 3 ta tarjiband, 5 qit'a, 46 ta ruboiy, 1 ta lug'z, 6 ta muammo va 1 ta tuyuqdan iborat. Navoiyning bu devonlari keyinchalik «Xazoyinul maoniy» («Chor devon»)ni tuzishga sabab bo'ladi. Ushbu devonning umumiy hajmi 45 ming misraga yaqindir.

Prof: A.Abdug'afurovning «Xazoyin ul-maoniy» dan chetda qolgan g'azallar» maqolasida Shunday fikrlar mavjud:

H.Sulaymonov fikricha, «Xazoyinul-maoniy» 1498 yilda hozirgi tugal holiga kelgan. Prof. A.Abdug'afurov Shunday savol qo'yadi: qit'a, ruboiy va boshqa turlardagi asarlar qayerda?

- a) «X.M.» majmuasi tuzilishidan avval yozilgan va qandaydir sabab-mulohazalar bilan devonlarning birortasiga ham kirmay qolgan she'rlar mavjudligi va
- b) «X.M.» tuzish ishlariga so'nggi nuqta qo'yilganidan keyin ham lirik turlarda she'rlar bitilgani Shubhasiz ekanligi, bu yangi yozilganlarni esa devonlarga kiritish imkoni bo'lmaganligi tadqiqotchilarni izlashishga da'vat etishi kerak.(Navoiyning ijod olami.Maqolalar to'plami.T.,2001.107-bet.)Prof. F.Sulaymonova «Ayyomi visol o'ldi yana» (T., 1995) ismi ostida Navoiyning «X.M.»siga kirmay qolgan o'nlab g'azallarini alohida kitob shaklida e'lon qildi. Ishonch bilan aytish mumkinki, «X.M.»ga kirmay qolgan, majmua tuzilgandan keyin ham lirik turlarda ancha-muncha she'rlar yaratgan.

1. «Muhokamat ul-lug'atayn»da «hoy-hoy» iborasi haqida so'z ochib, dalil uchun o'z ijodiga murojaat qiladi:

Navoiy, ul gul uchun hoy-hoy yig'lama ko'p

Ki, «hay» deguncha ne gulbun, ne g'uncha, ne gul bor!

Bu g'azali noma'lum. Quyidagi uch matla' bilan boshlanuvchi g'azallarini biz «X.M.» tarkibidagi devonlarda topa olmadik:

1. Desam: «Orazu zulfung ul-o'tdur, tutundur-bu!»
Der: «Ondin-senga kuymak, bu birdin qaro qayg'u».
2. Chehradin burqa' ochib, o'tqa kuydurdung meni,
Chun kul o'ldi paykarim-ko'kka sovurdung meni.
3. Ishqing meni tunu kun majnun zor aylamish
Ko'nglumni zoru hazin jismim nizor aylamish.

- II. Ulug' Shoirning hali bizga noma'lum ancha-muncha g'azallari mavjudligini isbotlovchi yana bir misolni Hasan Nisoriyning «Muzakkiri ahhob» tazkirasida ham uchratamiz. Nisoriy bilan bo'lib o'tgan adabiy suhbatini xotirlab, faqir alarning bu muborak maqta'larini o'qidim:

«Ey Navoiy, sen kimu mehrobu masjid istamak? Qaydakim, xo'blar ayog'in qo'ysa-sen boshingni qo'y:

III.Bobur aruzga doir fikrlarini asoslash uchun Navoiydan misollar keltiradi. quyidagi bayt bilan boshlanuvchi g'azalni biz «X.M.» uchrata olmadik:

Kimniki, Yor aylading-bo'ldi giriftoring sening

Rashkdin, voh deya olmasman: «Xudo Yoring sening!»

Shoir merosining e'tiborli manbalaridan biri XV-XVIII asarlarda ulug' shoir asarlari uchun tuzilgan lug'atlardir.

13

XV asr o'rtalarida Toile` Imoniyning o'zbekcha-forsiy «Badoye` ul-lug'at» asari, XVI asrda yaratilgan va birinchi izohli so'zi bo'yicha «Abushqa» nomida atalgan lug'at hamda 1760 yilda olim Mirzo Muhammad Mahdixon qalamiga mansub «Sangloh» izohli lug'ati ahamiyatlidir. «Sangloh»da xuddi «Abushqa»da bo'lganidek Navoiyning 28 asaridan misollar jalb etilgan. Ba'zi misollar «X.M.» uchramaydi.

A.Navoiyning keyingi taxmislarini ham e'tiborga olish kerak. Xiromiy, Ogahiy, Bayoniylar muxammaslari, Uvaysiy taxmisleri ayrimlari «X.M.»da uchramaydigan g'azallarga bog'langan. Roqim devonida, Yusuf Saryomiy ham «X.M.»da uchramaydigan ikki g'azalni Navoiy asari sifatida taqdim etadi.

«Navoiy» taxallusli 20 ga yaqin ijodkor bo'lgan, ammo ularning birortasi ham «Amir Navoiy» bo'lmagan.

Prof. A.Hayitmetov «Rasmiy devonlarga kirmagan she'rlar» nomi ostida («Navoiy va ijod saboqlari». To'plam. T., 1981) ushbu fikrlarni bayon etadi:

1. Shoirning ilmiy-filologik, tarixiy va nasriy asarlari tarkibidagi she'rlari.
2. Shoirning boshqa mualliflar asarlarida eslatilgan va o'sha manbalar orqali bizga ma'lum bo'lgan she'rlari.

«Tarixi mulki ajam»da 50 dan ortiq masnaviy uslubida to'rtlik shaklida yoritilgan she'r bor. «Vaqfiya»da 6 masnaviydan tashqari 15 ruboiy bor. «Munshaot»da 56, «Mahbubul-qulub»da 10, «Majolisun nafois»da 16 ruboiysi bor. Shoirning nasriy va ilmiy-filologik asarlarida hammasi bo'lib faqat o'zbek tilida 100 dan ortiq ruboiysi bor. «Mahbubul-qulub»da ruboiydan tashqari II qit'a, 12 masnaviy, 68 mustaqil bayt, 4 nazm bor.

Navoiy 1491 yilda to'rt devonining birinchi, redaksiyasini uzil-kesil tuzib yakunlagan. 1495 yilga kelib, yangi yozilgan she'rlarini qo'shib, to'rt devonni to'ldirgan hamda uni «X.M.» nomida majmuaga birlashtirib, Husayn Boyqaroga va saroyga topshirgan. 1498 yilda H.Boyqaroga bag'ishlangan uchinchi redaksiyasi vujudga kelgan. Navoiy she'riyatining asosiy qismini g'azallar tashkil qiladi. Olimlarimizning qayd etishicha, «Xazoyinul maoniyya»ga kirgan she'rlarining asosini g'azallar tashkil qiladi. «G'azalchilikdagi bu davr o'zbek adabiyotining haqiqiy boshlang'ich davri, ko'tarilish davri edi». Navoiy g'azallarida Sharq adabiyoti an'alaridan ijodiy foydalanadi, o'zi ham g'azalchilikda yangicha o'zgarish kashf etadi. Navoiy lirikasi u yashab ijod etgan tarixiy davr va sharoit bilan chambarchas bog'liq.

Olimlarimizning ta'kidlashicha, o'zbek adabiyotida Rabg'uziy, Xorazmiy va boshqa yirik shaxslar g'azallarini Navoiy taraqqiy ettirdi. A.Hayitmetov ta'kidlashicha, Navoiy she'riyatining asosiy motivlarini ishq mavzusi va ishqning asosi bo'lgan hijron tashkil etadi. Bu narsa mumtoz adabiyotimizda an'anaviydir. CHunki qaysi bir Shoir asarlariga nazar solmaylik ,

unda insoniy, ilohiy ishq, majoziy va ishq ilohiy asosiy o'rin egallaganining shohidi bo'lamiz. Zukko shoir M.Shayxzoda ishq haqida quyidagi fikrlarni bildiradiki, bu fikrlar Navoiy kuylagan ishqqa ham xosdir: «Ishq olami ulug' bir olamdird. Bu murakkab bir tuyg'u, rango-rang bir gulistondir. Shuning uchun ham shoirning ichki kechinmalarini muhabbatning lug'at kitobi desa bo'ladi». Navoiy she'riyatidagi hayotiy voqealar, ulardan olingan taassurotlar, qahramonning lirik kechinmalari, his-tuyg'ulrini ifo da etadi. Navoiy yilning to'rt fasliga qiyos

14

Abdurahimga ataladi. Dostonning asosiy qismi XVII bobdan boshlanadi. Bu boblarda 1499-1500, 1505-1506 yillarda ro'y bergan voqealar izchil bayon etiladi. Dostonda Shayboniyxonning 1499-1500 yillarda Turkistondan Samarqandga qo'shin tortib kelishi, chekinishi, Buxoroni olishi, Qorako'l, Qarshi, G'uzor va boshqa joylardagi aholi qo'zg'olonlarini bostirishi, Samarqandni olti oy qamal qilishi, Boburning shaharni tashlab chiqishi, Shayboniyxonning Samarqandni, keyinchalik Andijon, Toshkent, Hisor, Badaxshon kabi joylarni birma-bir zabt etishi tasvirlanadi. Doston 1504-1506 yillarda Shayboniyxonning Xorazmga yurishi, uni egallab, Buxoroga qaytishi tasviri bilan yakunlanadi. «Shayboniynoma» o'zbek adabiyoti tarixida jangnomaning yangi turi, birinchi tarixiy dostonidir. Asardagi obrazlar tarixiy shaxslardir. Shayboniyxon va uning tarafdorlari Sulton Mahmud, Temur Sulton, Jonvafobiy bir tomon, Bobur, Husayn Boyqaro, Boqi Tarxon, Sulton Ali, Badiuzzamon kabi temuriylar ikkinchi tomon. Shoir doimiy tarzda obrazlarni tasvirlashda haqqoniylik yo'lidan bormaydi. Shayboniylarni ulug'laydi. Temuriylarni qoralaydi.

Dostondagi bosh obraz Shayboniydir. U /1451-1510/ Dashti qipchoqda ko'chmanchi o'zbeklarning yirik davlatini vujudga keltirgan Abulxayrxonning nabirasidir. Shayboniy /shoh Budog'ning o'g'li/ butun umrini janglar bilan o'tkazgan hukmdor. Ayni paytda lashkarboshi, Shoir, ilm ahli homiysi edi. M.Solih Shayboniyxonni maqtaydi:

Tengrining soyasi Shayboniyxon

Kim ani qo'ydi xalifa rahmon.

G'aybdan oti Muhammad bo'ldi,

Qobili davlati sarmad bo'ldi... (25-bet)

O'zga xonlar kibi majlis qurmas

Ayshu ishrat soridin dam urmas

Boda ichmoq sori bo'lmas moyil,

Bir zamon ishidin ermas g'ofil. (27-bet)

Shoir Shayboniyxonni «Jamshidi davron», «Sulaymoni zamon» deb ta'riflaydi. Iskandar, xalifa Haydar kabilarga tenglashtiriladi. Ilm-fanda esa Ibn Sino. Shoirligi esa bunday baholanadi:

She'rni xo'b tanir zavq bila

O'zi ham xo'b aytur shavq bila.

Turki ab'yoti erur sharbat nob,

Forsiy she'rlari ham serob. (29-bet)

Shoir temuriylarga yaxshi munosabatda bo'lmaydi. Boburni qoralaydi.

Chu Samarqandni oldi Bobur.

Xalq aro tafriqa soldi Bobur
Husn maydonig'a zolim kirdi
Zulm bozoriga ravnaq berdi... (73-bet)

M.Solih Boburga yordam bergan, shaharni qattiq himoya qilgan Samarqand xalqini ham qoralaydi:

Ushbu so'zlar bila ul nodon el,
Qaysi nodonki bo'lak hayvon el
Shartlar ayladilar mustahkam
Qildilar qal'alarini mahkam. (83-bet)

75

Chiqti Xorazm diyori qo'lidin,
Xivaku Kot hisori qo'lidin.
Tushti andin guzori Marv sori
Anda sovrildi evu eli bori.
Mani gardun sitami qildi yetim,
Ayladi kishvari g'am ichra muqim.
Xorliqlar bila o'stum bisyor,
Zorlig'lar bila ko'rdum ozor.
Har falokatki bo'lur dunyoda,
Hech qaysidin eman ozoda.
Gah Xuroson aro qildim manzil
Gah Samarqandga bo'ldum moyil...

(«Shayboniynoma». 32-33-betlar)

M.Solih Jomiydan tahsil oladi. Arab va fors-tojik tillarini o'rganadi. Tarix, adabiyot, husnixat bilan shug'ullanadi. U temuriylarga kek saqlaydi. 1499 yilda Mullo Abdurahim degan amaldorning maslahati bilan temuriylar saroyidan ketadi. Shayboniyxon tomoniga o'tadi. Shayboniyxon unga yaxshi munosabatda bo'ladi. «Amirul-umaro» /«amirlar amiri»/, «malik-ush-shuaro» /«Shoirilar boshlig'i»/ martabasini beradi. M.Solih Buxoroda, Chorjo'yda hokim vazifasida ishlaydi. 1505-1506 yilning boshida Niso /Ashxabod/ shahriga dorug'a bo'ladi. 1510-1511 yillargacha Nisoda yashagan, Shayboniy vafotidan so'ng Buxoroga qaytadi. «Otashkada»da yozilishicha, 1535 yilda Buxoroda vafot etgan.

M.Solih lirik va epik Shoir. Uning lirik she'rlar to'plami to'la holda yetib kelmagan. Yuqorida qayd etilgan manbalar orqali ba'zi she'riy parchalar yetib kelgan. «Shaboniynoma»da ham she'rlari bor. Uning merosi haqida olimlar o'rtasida turli fikrlar mavjud. Ayrim tadqiqotchilar M.Solih «Majnun va Laylo», «Noz va Niyoz» nomli asarlar yozganini qayd etadilar. /G.Vamberi «Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi» asarida «Layli va Majnun» ruhida masnaviy yozganini aytadi/. Ammo M.Solihning asosiy merosi «Shayboniynoma bo'lib qolmoqda

Shayboniyxon haqida Mullo Shodiy 76 bobdan iborat «Fathnomai xoniy» dostonini, Binoiy «Shayboniynoma» va «Futuhoti xoniy» /«Xonning g'alabalari»/, tarixchi Ro'zbexon «Mehmonnomai Buxoro» asarini yozgan. M.Solihning «Shayboniynoma» asari 1510-1511 yillarda Qosim degan kotib tomonidan ko'chirilgan. U Venada saqlanadi. 1885 yilda Vamberi nashr ettirgan. 1904 yilda rus turkShunosi Melioranskiy Peterburgda asl matnini nashr ettirdi. 1961 yilda O'zbekistonda to'la holda bosib chiqarildi.

«Shayboniynoma» Shayboniyxonga bag'ishlangan doston. Unda temuriylar bilan Shayboniylar o'rtasida kurash, jangu jadallar tasvirlangan. Prof. N.Mallayevning fikricha, doston 8902 misradan iborat bo'lib, 76 bobga bo'lingan. 16 bob muqaddima. Bu qismlarda an'anaviy tarzda hamd, munojot, na't, Shayboniyxon madhi, uning aqli, ilmi, qur'on o'qish mahorati, qilichi, kiyimlari, karami, hunarlari, kitobning yozilish sabablari kabilar haqida yoziladi. 1-3-boblar diniy xarakterda, IV bob so'z ta'rifi va Shayboniyxon madhi, V-XIV boblar Shayboniyxon ta'rif va tavsifi, XV bob «Kitob nazmining sababi» haqida, XVI bob Mullo

74

qilib umrini to'rt bosqichga: yoshlik, yigitlik, o'rta yoshlik va keksalikka bo'ladi. Hamda bu bosqichlarning chegarasini belgilaydi: tufuliyat (yoshlik) 7-8 yoshdan 20 yoshgacha, shabob (yigitlik) - 20 yoshdan 35 yoshgacha, kuhuliyat (o'rta yoshlik) - 35 yoshdan 45 yoshgacha va keksalik 45 yoshdan 60 yoshgacha.

Professor H.Sulaymonovning Navoiy lirikasi asosida olib borgan tekshirishlari «Xazoyinul-maoniy» devonlarida belgilangan yoshlar nisbiy ekanligi, Shoir hayotining turli davrlarida yaratgan she'rlarini devonlarga qat'iy bir xronologiya asosida emas, balki aralash holda taqsim qilinganini ko'rsatadi.

To'rttala devonning hajmi bir-biridan katta farq qilmaydi. Birinchi devonda - 840 she'r (11437 misra). Ikkinchi devonda - 769 she'r (10847 misra), 3-da 740 she'r (10840 misra), to'rtinchi devonda -793 she'r (11776 misra), Bularni professor A.Abdug'afurov shunday tahlil etadi.

«Xazoyin ul-maoniy» majmuasining bu birinchi devonini Navoiyning o'zi «Tufuliyat (yoshlik-A.A.) bahori g'unchasi», deb baholaydi. Yoshlik bosqichini esa shoir quyidagicha izohlaydi: «Tufuliyat ovonikim, yetti-sakkiz yoshdan yigirma yoshgacha chinasa bo'lgaykim, umr fusuli (fasllari-A.A.)ning navbahori va hayot gulshanining shukfa (chechak, g'uncha - A.A.) va gulzoridir».

Devonda Sharq she'riyatining sakkiz faol turida yaratilgan umumiy soni besh ming yetti yuz o'n sakkiz yarim baytdan iborat sakkiz yuz qirq she'r jamlangan. «Xazoyin ul-maoniy» majmuasining keyingi uch devonida bo'lganidek, «G'aroyib us-sig'ar»da ham olti yuz ellik g'azal tartib berilgan. Devon mashhur:

Ashraquat min aksi shams ul-ka'si anvar ul-xudo

«Yor aksin mayda ko'r!» deb jomdin chiqdi sado-bayti bilan ochiladi. Devondan o'rin olgan g'azallarning asosan ko'pchiligi insoniy sevgi-sadoqat, ishq - muhabbat mavzuida bo'lib, ularda vafodor oshiqning go'zal ma'Shuqa tomon talpinishi, hijron azoblaridan nola-fig'oni, visol yo'lida barcha to'siqlardan o'tishga tayyorligi badiiy etuk misralarda nihoyatda ta'sirchan va hayotiy ifodalanadi. Odamiylik, pokdomonlik, insonparvarlik, adolat va saxovat kabi yuksak insoniy fazilatlar, Navoiy butun ijodiy merosida bo'lgani kabi, «G'aroyib us sig'ar» devonini tashkil etuvchi she'rlarining yetakchi g'oyaviy mundarijasidir.

«Xazoyin ul-maoniy» majmuasining bu birinchi devonidan ulug' shoirning butun ijodiy faoliyati davomida ona tilida bitilgan 133 ruboiy ham o'rin olgan. Majmuaning keyingi uch devonida ruboiyda bitilgan namunalar yo'q. «G'aroyib us-sig'ar»da bulardan tashqari ellik qit'a, uch muxammas (ulardan biri Mavlono Lutfiy g'azaliga taxmis), shuningdek, she'riyatning mustazod, musaddas va tarjiband turlaridan namuna asarlar uchraydi.

Mazmuniga ko'ra, zamonasining buyuk fozillaridan, Navoiyga, uning o'z iborasi bilan aytganda, «ota o'rnida» yaqin bo'lgan Sayyid Hasan Ardasheriga yozilgan maktub - 148 baytdan iborat mashhur masnaviy ham shu yoshlik devoniga kiritilgan. «Xazoyin ul-maoniy»ning qolgan uch devonida umuman bu turda bitilgan boshqa asar yo'q.

15

«Xazoyin ul-maoniy» majmuasining ikkinchi devonini Alisher Navoiy «Navodir ush-shabob» - «Yigitlik nodirliklari», deb atagan. Inson umrining yigitlik davrini yilning yoz fasliga qiyoslangan shoir shunday yozadi: «Shabob (yigitlik-A.A.) zamonikim - yigirmidin o'ttuz beshgacha desa bo'lgaykim, ham bu fusul (fasllar)ning yozdirurkim, yigitlik chashmasori (buloqlari)ning hayotbaxshligining og'azidur». Devon an'anaga ko'ra, «Xazoyin ul-maoniy»ni tashkil etuvchi boshqa devonlardagi kabi Tangri taolo va Muhammad payg'ambar (s.a.v.) she'rlariga bitilgan hamdu sano va na't-munojot ruhidagi g'azallar turkumi bilan ochiladi.

Aytish lozimki, rasman 20 dan 35 yoshgacha bo'lgan davrni nazarda tutuvchi yigitlik yillari devoni deb atalgan bo'lsada, aslida unda, xuddi «Xazoyin ul-maoniy» majmuasining boshqa uch devonida bo'lganidek, ulug' shoir ijodiy faoliyatining boshqa bosqichlarida yaratilgan she'rlardan namunalar ham jamlangan. Masalan, professor H.Sulaymon aniqlaganidek, devondan o'rin olgan 650 g'azalning 300 ga yaqini Navoiyning o'rta yoshlik ijodiy faoliyati mahsulidir, ikki yuzdan ortig'i esa qarilik yillarida qog'oz sahifasiga tushirilgan. Shu munosabat bilan devondagi bir necha g'azallardan shoir yoshining ellikka yetganini yoki oshgani haqida so'z yuritganini, umrining o'tgani va qarilikka yuzlanganidan shikoyat misralari mavjudligini eslash o'rinni. Masalan, bir o'rinda:

Menki, ellik yil chekib g'am topmadim
xushvaqtlik,

Topqamenmu, umrning, emdiki o'tmish xushrog'i-
baytini bitsa, boshqa bir g'azalida ochiqdan-ochiq qarilikni tan oladi:
Ey Navoiy, huzn ila o'tkar qarilig' mehnatin,
CHun yigitlik bordi ayshu ishrat ayyomi bila.

«Navodir ush-shabob» devonidan she'riyatning mustazod va tarji'band turlaridan bittadan namuna va ellik qit'a o'rin olgan. Ulardan tashqari yigitlik devonidan Lutfiy g'azaliga bog'langan taxmis bor. Alisher Navoiy adabiyotimiz tarixida she'riyat muxlisari diliga va xalq hofizlari tiliga ko'chgan g'azallariga taxmis bog'lash yoki musammat shakliga keltirish an'anasini boshlab beradi.

Taxmislarning biri, aslida Navoiy ijodiy faoliyatining o'rta yoshlik bosqichida yaratilgan, ammo ana shu yigitlik yillari devoniga kiritilgan:

Ochmagay erding jamoling olam aro, koshti,
Solmagay erding bori olamga g'avg'o, koshti-
matlai bilan boshlanuvchi g'azaliga bog'langan. Navoiy «Xamsat ul-mutaxayyirin» asarida bu g'azali haqida: «El orasida shuhrat tutub erdi va podshoh hazratlarining suhbatlaridagi ko'p o'qilur erdi», deb yozadi.

Shu tariqa «Xazoyin ul-maoniy» majmuasining ikkinchi devoni «Navodir ush-shabob»da mumtoz she'riyatimizning sakkiz turida jami besh yarim mingga yaqin baytdan iborat yetti yuz ellik to'qqiz she'r joylashtirilgan. Bu asarlarda ulug' shoirning butun ijodiy merosi uchun xos bo'lgan chuqur xalqchilik, elu yurt manfaatlari, insof-diyonat, mehr-shafqat, odamiylik, do'stlik-totuvlik g'oyalari badiiy jihatdan barkamol misralarda tarannum etilgan.

16

Muhammad Solih XV asrning ikkinchi yarmi XVI asrning boshlarida yashab ijod etgan shoirdir. U xalq orasida ikki tilli shoir sifatida shuhrat topgan. M.Solihga Navoiy, Bobur kabi ulug' shaxslar yuqori baho berganlar. Shoirning o'zbek va fors, tojik tilidagi she'rlaridan ayrim parchalar va «Shayboniynoma» dostoni to'liq yetib kelgan.

M.Solih haqida Navoiy «Majolis un-nafois» asarida, Bobur «Boburnoma»sida, Xondamir «Habibus siyar», Mirzo Haydar «Tarixi Rashidiy», Lutf Alibek Ozar «Otashkada», Somiyning «Tuhfai Somiy», Nisoriy «Muzakkiri ahhob» asarlarida ayrim ma'lumotlar keltiradilar, ijodidan namunalar beradilar. «Radoyif ul-asqh'or», «Milliy tatabbular majmuasi», «Fathnomai xoniy»da ham ma'lumotlar uchraydi.

Navoiy Shunday yozadi: «Muhammad Solih - ismi bilan Solih taxallus qilur. Nur Saidbek o'g'li dururkim, ko'p vaqtlar CHahorjo'y navohisidin Adoq navohisiga degincha amorat qiladi va Sulton Abusaid mirzo eshigida, Ulug'bek va Jo'gi Mirzo eshigida sohib ixtiYor va jumlatul-mulk erdi... Tab'ida xeli diqqat va choshni bor. Xatka ham qobiliyati ko'pdur. Bu matla aningdurkim:

Nim oshifta gar pushid kokuli mohi tobonash,
Chi g'am az tiyragiyi shab, chun boshad subhi poyonash.

/Yarim parishon kokili Yorqin oy / yuzi /ni berkitgan ekan, tunning qorong'iligidan nima g'am bor, zero ki tunning oxiri tongga aylanadiku/. Bobur «Boburnoma» asarida Muhammad Solih haqida Shunday yozadi: «Yana Muhammad Solih edi, choshnilik g'azallari bor, agarchi hamvorligi choshnisicha yo'qtur, turkiy she'ri ham bor, yomon aytmaydur. So'ngra Shayboniyxon qoshiga kelib edi. Filjumla rioyat qilib edi. Shayboniyxonning otiga bir turkiy masnaviy bitubtur... Bir yaxshi bayti budur:

Bo'ldi Tanbalga vatan Farg'ona,
qildi Farg'onani tanbalxona.

Hasanxoja Nisoriyning XVI asrda /1566 yilda/ yozilgan va 288 shoir haqida ma'lumot beruvchi «Muzakkiri-ahbob» /Do'stlar yodnomasi/ tazkirasida ham Muhammad Solih haqida ma'lumot keltiriladi. Unda Bobur huzurida o'qilgan bir ruboiy, uning M.Solihniki ekanligi, Majlisiiy esa u yozgani haqida gap boradi. (Nisoriy. Muzakkiri- ahhob., 80-bet).

Amir M.Solih 1455 yilda Xorazmda tug'iladi. Ota avlodlari temuriylarga yaqin bo'lgan. Bobosi Amir Shohmalik Amir Temur va Mirzo Ulug'bek saroyida, otasi Nur Saidbek esa Mirzo Ulug'bek, Jo'gi Mirzo va Abu Said Mirzo saroyida xizmat qilgan. U Abu Saidning vasalli sifatida Xorazmni boshqarardi. Husayn Boyqaro hujum qilib Xorazmni egallaydi. Nur Said yaxshi mudofaa qilmaganlikda ayblanib, hibsga olinadi. Ixtiyoriddin qal'asiga qamaydilar. Jomiy tilagi bilan ozod etiladi. 1469 yilda Husayn Boyqaro Hirot taxtiga chiqadi. Abusaid

yaqinlari qatorida bo'lgan Nur Said ham qatl etiladi. Keyinchalik Muhammad Solih «Shayboniynoma»sida bu fojialarni, qiyinchilik ko'rganini yozadi. «Kitob nazmining sababi» qismida shunday misralar bor:

Laqabi Solihu o'zi tolih,
Nur Said o'g'li Muhammad Solih.
Munoq ayturki, xudodin taqdir,
Chun otam ishiga berdi tag'yir -

73

vaznida «Lisonut tayr» otliq. To'rt g'azaliyot devoni tartib qilubtur... yaxshi ruboiyoti ham bor... Ahli fazl va ahli hunarga Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lg'ay... O'g'ul va qiz va ahlu ayol yo'q, olamni tavre fard va jariyda o'tkardi. Avoyil muhrdor erdi, avosit bek bo'lib, necha mahal Astrabodda hukumat qildi, avoxir sipohilikni tark qildi. Mirzodin nima olmas, balki yilda Mirzoga kulliy mablag'lar peshkash qilur erdi...» /«Boburnoma». 153-154 betlar/.

Navoiydan boshqa Jomiy, Binoiy, Muammad Solih, Hiloliy, Sayfi Buxoriy, Mir Xusayn Muammoiy, Shayxim Suxayliy, Abdullo Marvari, Behzod, Xusayn Udiy kabi shoir va san'atkorlar haqida ham ma'lumotlar keltiriladi.

«Boburnoma»ning markaziy va asosiy obrazi Boburning o'zidir. Bobur asarining boshidan oxirigacha kitobxon nazarida turadi. U butun hayot yo'li, ish-amallari, kishilar va voqealarga munosabati, dunyoqarashi, shodligu qayg'usi, g'alaba va mag'lubiyati, saltanati va darbadarligi, g'azabi va marhamati, mardligi, jasurligi, qiyinchiliklarga chidami, otliq, yayov kezishi, kuzatuvchanligi va boshqa tomonlari bilan namoyon bo'ladi. Bobur mohir lashkarboshi, dovyurak bahodir edi. Ayni paytda Bobur ko'ngilchan, farzandlariga mehribon ota sifatida namoyon bo'ladi. Boburga ko'p kishilar yuqori baho berishgan.

«Boburnoma» - qomusiy asar. Unda ilmning turli sohalarida bo'yicha ma'lumotlar mavjud. She'riy parchalar, xalq maqollari asarini yanada o'qimishli qilgan. Asarda «Dushman ne demas, tushga ne kirmas», «Uzrash badtar az gunoh», «Marg bo Yoron surast», «Az injo ronda va azon jo monda» kabi maqollar qo'llanilgan.

«Boburnoma» ta'sirida «Humoyunnoma», «Shajarai turk», «Shajarai tarokima» kabi asarlar yaratildi.

MAV Z U: MUHAMMAD SOLIH. «SHAYBONIYNOMA»

R E J A:

Kirish.

1. Muhammad Solih haqida.
 2. Shoirning hayoti va ijodi.
 3. «Shayboniynoma» - tarixiy asar.
 4. Dostonning mavzu va obrazlari.
 5. Asarning badiiy xususiyatlari.
- Xulosa.

A D A B I Y O T L A R:

1. Darsliklar.
2. Muhammad Solih. Shayboniynoma. T. 1989.
3. Alisher Navoiy. «Majolis un-nafois».
4. Bobur. «Boburnoma». T. 1989. 163-bet.
5. Hasanxoja Nisoriy. «Muzakkiri- ahbob». T. 1993.
6. A.Akramov. Muhammad Solih. T. 1966.
7. E.Shodiyev. «Muammad Solihning tojikcha she'rlari». «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali. 1971. №1.
8. A.Ibrohimov. «XVI asr o'zbek adabiyotining asosiy xususiyatlari». T. 1976.

72

Navoiy dunyoqarashining bu etakchi fazilatini Yorqin ifodalovchi:

Yuz jaf o qilsa menga bir qatla faryod aylamon,
Elga qilsa bir jaf o yuz qatla faryod aylaram!-

kabi otashin misralar xuddi shu devon tarkibidagi g'azal jismida dunyo yuzini ko'rgan.

35-45 yoshgacha insonning o'rta yoshlik davrini Navoiy xazon ayyomi-kuzga qiyos etadi. Shu sababli 3- devonini «Badoye` ul -vasat» (O'rta yosh go'zalliklari) deb ataydi. Bu devon mundarijasi haqida Navoiy so'z ochib Shunday deydi:

«... Va uchinchi devonnikim, vasat ul hayot (hayotning o'rtasi) mayxonasida ishq ila shavq paymonasidin yuzlangan badii` (go'zal) nashotlar (shodliklar) kayfiyatini yozilib erdi».

«Badoyi ul-vasat»da ham shoir ijodining turli davrlariga oid g'azallar berilgan. Devonda son jihatidan g'azaldan keyingi o'rinni qit'a egallaydi. Bu devonda turli mavzularda yozilgan 60 qit'a o'rin olgan.

«Badoye` ul-vasat»da bir (1) mustazod ikki (2) muxammas hamda Lutfiy va H. Boyqaro-Husayniy g'azallari asosida yaratilgan ikki (2) musaddas, Shuningdek 7 bandning har birida

Yodingni qilay harifi majlis

Fikringni etay ko'ngulga munis

bayti takrorlanuvchi 7 bandli tarjiband ham o'rin olgan.

Navoiy 1469 yil H.Boyqaro taxtga chiqqani bilan muborakbod etib yozgan «Hiloliya» qasidasi ham shu devon tarkibiga kiritilgan.

Shu tariqa «Xazoyin ul-maoni»ning uchinchi devoni «Badoye` ul-vasat» 9 she'riy turda bitilgan va umumiy hajmi besh yarim (5,500) mingga yaqin baytdan iborat 740 she'rdan tashkil topgan.

Navoiyning «Xazoyin ul-maoni» tarkibiga kiruvchi «Favoyid ul-kibar» to'rtinchi devon bo'lib, u inson umrining qarilik bosqichida va uning qish fasliga qiyosan atalgandir.

Qarilik yillari davri tushunchasini shoir maxsus izohlab shunday deydi:

«... Va qirq beshdin oltin yashayachakim, ta'yin qilsa bo'lg'aykim-bu fusul (fasl) ning qishidurkim, kishining xam (egik) qad bilan adam (yo'qlik) yo'lga kirib, zamon ahli bila xayrbod qilishidir. Aning duosida «Favoyid ul-kibar» bila nihoyatga yetkurdim».

Devonda 9 janrda yozilgan 793 she'r kiritilgan. Boshqa devonlarda bo'lganidek yakunlovchi bu devonga ham 650 g'azal qat'iy tartib bilan berilgan.

«Favoyid ul-kibar»da boshqa devonda uchramaydigan janr - 458 baytli «Soqiynoma» va Sharq she`riyatining eng kichik janri sanalmish 86 fard berilgan.

«Favoyid ul-kibar»da boshqa devonlarda uchramaydigan yana bir janr-musamman bor.

«Xazoyin ul-maoniy bilan tanishar ekanmiz uning lirik qahramoni Navoiyning o`zidir. Bu lirik qahramon insonparvar, vatanga muhabbatli, xalqqa sadoqatli komil insondir. A.Hayitmetovning ta`kidicha, Navoiy g`azallarining asosiy lirik qahramoni ham sevikli emas, sevguchidir, ma`shuqa emas, oshiqdir. Navoiy she`riyatida Yor obrazining spesifik xususiyati va eng muhim tomoni uning go`zalligidir».

17

Shoir she`riyatidagi Yor obrazidan hayotni, uning falsafiy go`zalligini qidirsak, uning bevafoolidan zulm va nohaqlik izlaganini tushunsak xato qilmagan bo`lamiz. Navoiy lirik qahramoni bizning fikrimizcha 3 xususiyatga ega.

1 - navbatda otashin oshiq.

2 - navabatda sevgi azoblaridan haddan ortiq ezilgan.

3 - rind, mayxo`r. Shoir hayot va borliq haqida, ilm va san`at haqida o`ylovchi, bosh qotiruvchi, u haqda she`rlar yozuvchi kishidir. A.Navoiy she`riyati o`ziga xos obrazlar olami. Shoir g`azallari, ruboiy, qit`a, muxammas va boshqa janrdagi asarlarini o`qir ekanmiz rang-barang obrazlarga duch kelamiz. Uning she`riyatidagi bosh obraz shoirming o`zi. U donishmand, oshiq, faylasuf, orif odam. Shoir g`azallardagi tasvirlangan oshiq o`zining nihoyatda kamtarligi, ma`shuqasini nihoyatda sevishi, e`zozlashi, hijron azobu uqubatlariga chidamliligi, raqiblarga sovuq munosabatdaligi va boshqa tomonlari bilan namoyon bo`ladi.

Navoiy she`riyatida yor obrazi ham muhim o`rin tutadi. Shoir she`rlarida ma`Shuqa avvalo o`zining o`ta go`zalligi bilan namoyon bo`ladi. U zohiran juda chiroyli. Husnda bekamu-ko`st. Oshiqqa sitam etkazuvchi. Navoiy she`riyatida tasvirlangan Yor obrazining ilohiy mohiyati xususida ham adabiyotshunoslar mulohazalar yuritmoqdalar.

Professor N.Komilov ta`kidicha, ko`p shoirlarda, Navoiyda ham dunyoviylik bilan ilohiyot, ya`ni irfon qo`shilib zuhur etiladi. Ulardan sof diniy g`oyalarni yoxud sof dunyoviy g`oyalarni qidirish, asarlarini bir-biriga zid qo`yish noto`g`ri. Ularning asarlari ko`p ma`noli, har bir ifoda yetti qavat parda ichida yashiringan. Masalan, mahbub deganda xudoni, payg`ambarni, pirni va sevgan kishisini anglash, soqiy deganda ham ayni shu to`rt tushunchani e`tiborga olish, lab deganda pirning so`zini, ilohiy fayzni, qosh deganda ilohiy olam bilan moddiy olam chegasini, bel deganda komil inson xayolini, ingichka bel deganda komil inson xayolining nozikligini, ko`z deganda komil insonning o`zini nazarda tutish mavjud. (N.Komilov. Tasavvuf. 1-kitob. T., 1996. 163-bet)

Navoiy she`riyatida bir qator salbiy obrazlar mavjud. Raqib-muddaiy ana shundaylardan biri. Raqib kim? «Raqib oshiq - Navoiyning yorini tortib olib, u bilan aysh-ishrat qiluvchi, tashqi ko`rinishi sovuq, qiliqlari ham yoqimsiz, odamlarga yaxshilikni o`ylamovchi, o`z manfaati uchun har qanday pastkashlik va razillikka boruvchi, odam qiyofasidan chiqqan, ichi qora, pismiqli. U - murodga eta olmagan mazlum va bebaxt kishilar ustidan kuluvchi, zolim, sotqin, toshbag`ir».

Navoiy she`riyatining asosiy qismini g`azallardan tashqari, ruboiylar tashkil etadi.

Navoiy ruboiylarini mavzu jihatdan shartli ravishda 3 guruhga ajratish mumkin:

1. Falsafiy ruboiylar.
2. Ishqiy ruboiylar.
3. Ta`limiy-ahloqiy ruboiylar.

Navoiy ruboiylarining asosiy qismi «G`aroyib us-sig`ar» devonidan o`rin olgan. «Xazoyin ul-maoniy»ning debochasida 30 ta ruboiy mavjud. «Munshaot»da ham 60ga yaqin Shunday to`rtlik bor. «Mezonul - avzon» «Mahbulul qulub», «Majolisun - nafois» va boshqa

18

O`zbek adabiyotida P.Qodirov, B.Boyqobilov, X.Sultonovlar Boburga bag`ishlab roman, qissa va doston yaratdilar.

«Boburnoma» dastlab «Vaqoe`» /Voqealar/ deb atalgan. So`ngra «Voqeoti Boburiy», «Vaqoenoma», «Tuzuki Boburiy», «Boburiya» nomlarini olgan. «Boburnoma» sifatida shuhrat topdi. Bobur ushbu asarni 1525-1530 yillarda yaratgan deb taxmin qilinadi. Asar 1493-34 yillardan 1529-1530 yil voqealarini o`z ichiga oladi. «Boburnoma»da Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Eron xalqlarining XV asr oxiri XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini aks ettirgan. Asarda iqtisodiy, ijtimoiy masalalar, yuqorida qayd etilgan viloyatlarning o`zaro munosabatlari, jo`g`rofiy mavqei, iqlimi, o`simlik va hayvonot dunyosi, tog`lari, daryolari, xalqlari, qabila va elatlari, ularning yashash sharoitlari, urf-odatlar, inshootlari, to`y va dafn marosimlari va boshqalar haqida ma`lumot beruvchi qimmatli asardir.

«Boburnoma» avvalo tarixiy asardir. Unda ko`p joylar, shaxslar, hukmdoru shoirlar haqida ma`lumotlar keltirilgan. Asar materiallarning ko`pligi, boyligi, aniqligi va to`laligi, voqealarni rostgo`ylik va haqqoniy, sodda tasvirlash bilan e`tibordir. Shu jihati bilan ko`pgina tarixiy asarlardan ustun turadi.

«Boburnoma» o`zbek nasrining yaxshi namunasi hamdir. Bobur tarixiy voqealarni tasvirlar ekan, badiiy ifodalardan ham unumli foydalangan.

Muallif maroqli va jozibali badiiy uslub bilan turli xil sarguzashtlarni, rivoyat va latifalarni hikoya qiladi, xalq yumori, xalq maqollari va ta`birlari bilan bezaydi, she`riy parchalar keltiradi. Akademik V.Bartol`d «Boburnoma»ni «turkcha prozaning» eng yaxshi asarlaridan biri deb baholaydi.

«Boburnoma»da joy, manzaralar tasviri ham beriladi. Mavorounnahr, Xuroson, Afg`oniston, Hindiston o`lkalari, ulardagi shahar, qishloqlar manzarasi, ob-havosi, urf-odati va boshqalar tasviri beriladi. Bobur faqat shoirgina emas, olim, jo`g`rof, tabiatshunos, etnograf, tilshunos, san`atshunos sifatida gavdalanadi. Andijon, O`sh, Xo`jand, Qobul, G`azna, Hirot kabi shaharlar tasviri beriladi. «Farg`ona viloyati beshinchi iqlimdandir. Ma`muraning kanorasida voqe` bo`lubtur. Sharqi qoshg`ar, g`arbi Samarqand, janubi Badaxshonning sarhadi tog`lar, shimolida agarchi burun shaharlar bor ekanur...» /«Boburnoma». 5-bet/.

«Boburnoma»da voqealar xronologik tarzda bayon qilinadi. Asarda 1504-1505, 1509-1510, 1518-1519, 1520-1521, 1521-1522, 1523-1524, 1524-1525 yillarning voqealari berilmagan. Bu 15-16 yilning tushib qolganligi sababli haqida turli fikrlar mavjud.

«Boburnoma»da bir necha yuz tarixiy shaxslar, ularning faoliyati va sarguzashtlari tasvir etiladi.

Bular shahar va viloyat hokimlari, amir-amaldorlar, askarlar, ilm-fan, sanʼat va adabiyot vakillari, dehqonlar, qullar, hunarmandlar va boshqa toifa kishilaridir. Umarshayx Mirzo, Husayn Boyqaro, Sulton Ahmad Mirzo, Xisravshoh kabi hukmdorlar, Ahmad Hojibek, Darvesh Muhammad Tarxon, Ulugʻbek, Navoiy, Jomiy, Shayxim Suhayliy, Sulton Ali Mashhadiy, Behzod kabi tarixiy shaxslar obrazi uchraydi. Navoiy haqida: «Alisherbek naziri yoʻq kishi edi. Turkiy til bila to sheʼr aytibturlar, hech kim oncha koʻp va xoʻb aytqon emas, Olti masnaviy kitob nazm qilibtur, beshi «Xamsa» javobida, yana bir «Mantiqut - tayr»

A D A B I Y O T L A R:

1. Darsliklar.
2. Z.M.Bobur. “Boburnoma”. T. 1989.
3. “Buyuk siymolar, allomalar”. 2-kitob. T. 1996.
4. Oʻzbek adabiyoti. Darslik. 10-sinf. T. 1999.
5. I.Mirzayev. “Bobur maʼrifati”. T. 1996.
6. A.Abdugʻafurov. “Qalb qaʼridagi qadriyatlar”. T. 1998.
7. B.Mamedov. «Boburnoma» va xalq ogʻzaki ijodi. T. 1989.

Bobur koʻp qirrali ijodkor. Uning sarkardaligi, podshohligi, shoirligi har biri alohida ahamiyatga molik. U adabiyotimiz tarixida qanchalik shuhratga sazovor boʻlgan boʻlsa, «Boburnoma»sining oʻrni ham shu darajada yuksakdir. «Boburnoma» nafaqat oʻzbek adabiyotida, balki jahon adabiyotida ham memuar asar sifatida, tarixiy manba, adabiy asar, umuman, keng qamrovli yodgorlik sifatida mashhurdir.

Uzoq yillar davomida Gʻarb va Sharqning mashhur sharqshunos olimlari «Boburnoma»ni jahon ahliga yetkazish borasida katta faoliyat koʻrsatdilar. Gollandiyalik olim Vitsen, angliyalik olimlar J.Leyden, V.Erskin, A.Beverij, Albort, germaniyalik Yu.Klaynrat va A.Keyzer Kizer, fransiyalik Pave de Kurteyl, hindistonlik Mirzo Nasriddin Hydar Rizvi, turkiyalik R.Art va N.Bayur va bizning davrimizda fransiyalik olim Bakke Gromon, afgʻonistonlik olim Abulhay Xabibiy, pokistonlik olimlar Rashid Axtar, Nadvi va Shoh Olam Mavliyot shular jumlasidandir. Yaponiyalik olimlar ham bu borada katta ishlar olib bormoqdalar. Maʼlumki, Boburning tarixiy, ilmiy va adabiy merosini oʻrganish va ommalashtirishda Oʻzbekiston, Tojikiston, Rusiya olimlarining faoliyati ham diqqatga sazovordir. XIX-XX asrlar davomida Georg Ker, N.Ilminskiy, O.Senkovskiy, M.Salʼe, P.Shamsiyev, Sodir Mirzayev, V.Zohidov, Ya.Gʻulomov, R.Nabiyev, S.Azimjonova, A.Qayumov, N.Mallayev kabi olimlarning harakatlari bilan «Boburnoma» tadqiqiga eʼtiborni qaratdilar. /Buyuk siymolar, allomalar. 2-kitob. 115-bet/ «Boburnoma»ning toʻliq matni 1857 yilda turkolog Ilʼminskiy tomonidan qozonda nashr etildi. 1905 yilda ingliz Beverij xonim nashr ettirdi. Bulardan oldin 1586 yilda fors tiliga tarjima qilingan. 1705 yilda Vitsen golland tiliga tarjima qilib, Amsterdamda chop etdi. 1926 yilda Leyden va Erskin inglizcha tarjimasini, 1871 yilda Pave de Kurteyl fransuzcha tarjimasini bilan nashr ettirdi. XX asrda Rashit Raxmati Orat turkchaga, M.Salʼe ruschaga tarjima qildi. 1826-1985 yillar davomida «Boburnoma»

4 marta ingliz, 3 marta fransuz, 1 marta nemis tiliga oʻgirilib nashr etildi. Oʻzbekistonda dastlab prof. Fitrat 1928 yilda asardan parchalar eʼlon qildi. 1948-49 yillarda 2 jildda nashr etildi. 1960-1989 yillarda «Boburnoma»ning tuzatilgan nashri amalga oshirildi.

Ushbu asarga asoslanib Boburning hayoti va faoliyatini yorituvchi oʻnlab badiiy asarlar yaratildi. Bular orasida fransiyalik Flora Anna Stilning «Boburxon» /Parij, 1940/, Fernard Grenardning «Bobur» /Parij, 1930/, Aqshlik Xarold Lembning «Bobur-yoʻlbars» /Nʼyu-York, 1961/ romanlari, Vamber Gaskonining «Bobur va uning avlodlari yoki Buyuk Moʻgʻullar» /Nʼyu-York, 1980/ esse-romanlari bor. Hindistonlik Muni Laʼl Bobur va boburiylar haqida 6 ta roman yozgan.

asarlarda ham ruboiylar kiritilgan. Navoiy ruboiylari tadqiqi boʻyicha H.Zaripov, A.Hayitmetov, Yo.Isʼhoqov, N.Mallayev, R.Orzibekov, I.Haqqulovlar bir qator ishlarni amalga oshirganlar.

Ishq mavzusi Navoiy ruboiylarida ham falsafiy talqin etiladi. Mana bu ruboiyga eʼtibor beraylik:

Koʻnglimni gʻami dard ila qon ayladi ishq,
Koʻz yoʻlidin ul qonni ravon ayladi ishq.
Har qatrani bilmadim qayon ayladi ishq,
Bedil ekonim boʻyla ayon ayladi ishq.

Navoiy koʻpgina ruboiylari ishqiy kechinmalarining bevosita bayoni sifatida yuzaga kelgan. Ularda shoir oʻzining ichki holatlarini tabiatdagi biror bir narsa, predmet yoki insonga murojaat tarzida bayon qiladiki, bu mumtoz sheʼriyatda nido sanʼati ham deyiladi.

Ey jism, aning koʻyini paydo qilakoʻr,
Ey koʻngul, oʻshul koʻyni maʼvo qilakoʻr.
Ey koʻz, sen oning yuzin tamosho qilakoʻr,
Ey ashk, oning kuyi sori oqilakoʻr.

Navoiy ruboiylarida may haqida ham gapiradi. May mohiyati yuqorida ham zikr etildi. Shoir mayga hayotiy maʼno beradi. Uni insoniy fikr va tuygʻularga omuxta tarzda tarannum etadi:

Mugʻ dayri sori bukun tamanno qildim,
Ul mugʻbacha husnini tamosho qildim.
Din naqdin kufri birla savdo qildim,
Kim qildi bu ishkim men rasvo qildim. Navoiy ruboiylarida bir qator sheʼriy sanʼatlar qoʻllangan. Tarse, tardi aks kabi usullar shular jumlasidandir.

Koʻz bila qoshing yaxshi, qabogʻing yaxshi,
Yuz bila koʻzing yaxshi, dudogʻing yaxshi.
Iying birla menging yaxshi, saqogʻing yaxshi
Bir-bir ne deyin, boshdin-oyogʻing yaxshi.

Tardi aks:

Ham jismingga daʼf boʻlsa jonim sadqa,
Ham joningga jismi notavonim sadqa.
Sarvingga shikast oʻlsa ravonim sadqa,

Yo'q-yo'qki senga jonu jahonim sadqa.

Navoiy forsiy tilda ham ruboiylar yaratdi. Bunda u U.Hayyom, Hofiz Sheroziy, Jomiy an'analariga tayandi. Ayniqsa hayotdan ko'proq ta'sirlandi.

Soqiy, ba mani g'amzada pesh or qadah,
Harchand buvad buzurg' bardor qadah.
Gar z-on ki buvad sipehri davvor qadah,
Dar yak-du kashidan kunam nigunsor qadah

.T:

Soqiy, men g'amginga qadah keltir,
Qadah har qanday katta bo'lsa ham ko'tarib

(keltir)

19

Garchi u qadah aylanuvchi osmondan bo'lsa ham
Bir-ikki simirishda qadahni bo'shatib to'nkaraman.

Yana bir misol:

Za'famro on miyoni chun mu bois,
Qatlamro on turrai hindu bois.
Umramro on qomati dilju bois,
Jonamro on la'li suxangu bois.

T:

Zaifligimga qildek bel bois,
O'limimga u qora gajak bois.
Umrimga u maftun etuvchi qomat bois
Jonimga u so'zlovchi lab bois.

Navoiy she'riyatining katta bir qismini uning qit'alari tashkil etadi. Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy» devonida 210 ta qit'a mavjud. Ularning 200 ga yaqini ikki, uch va to'rt baytli. Navoiy qit'alarida tabiatdagi oddiy qurg'oqchilik hodisalaridan tortib, koinot sir-asrorlarigacha, chumolidan tortib, inson holati va qismatigacha barcha-barchasiga munosabat bildirilgan. (Bu haqda I.Haqqulning «Kamol et kasbkim». T, 1991 kitobiga qarang).

Navoiy bir qit'asida shunday yozadi:

Navoiy, tiling asragil zinhor,
Desangkim, yemay dahr ishidin fusus.
Nazar qilki, o'q og'zi tilsiz uchun,
Qilurlar tojvarlar bila daybus.
Necha tojvarlar kesarlar boshin,
Chu hangomsiz nag'ma tortar xurus.

Xalq og'zaki ijodi yozma adabiyotning shakllanishi, rivojlanishi va taraqqiy etishida muhim zamindir. Xalq og'zaki ijodi uzoq asarlarga borib taqaladi. Qaysi bir ijodkor ijodiga nazar solmaylik barchasida ushbu irod mavjud. Xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotning o'zaro ta'siri va aloqasi syujetda, janrlar taraqqiyoti va turli badiiy tasvir vositalarini qo'llashda, xalq urf-odatlarini va an'alarini singdirishda, she'riyatda xalq maqollari, iboralari, hikmatli so'zlarini qo'llashda va boshqalarda ko'rinadi. Ushbu jihatlarni Navoiy

lirikasi misolida ham ko'rish mumkin. Bu jihatdan «A.Navoiy lirikasi va xalq og'zaki ijodi» nomli kitobni ko'zdan kechirish muhimdir. Shoir o'z she'riyatini insonparvarlik g'oyalari bilan boyitishda, g'azal mulkining sultoni bo'lib qolishida, ruboiy, fard, muammo, chiston va boshqa janrlarda asarlar yaratishda, til, uslub, badiiy san'atlarni mahorat bilan qo'llash bobida xalq og'zaki ijodi muhim zamin vazifasini bajaradi.

Navoiy she'riyatida turkona hayot, turkona rasm- odatlar, turkona kuylar ulug'lanadi. Navoiy o'zbek urug'ini faxr bilan tilga oladi.

Navoiy she'riyatida hikmatli so'zlar, maqollar, matallar anchagina ko'zga tashlanadi. She'riyatda biror muhokama va mulohazani maqol, matal, hikmatli so'z keltirish bilan tasdiqlash she'riyatda **irsoli masal** deb yuritiladi.

20

Goh boshima toj, goh baloyi ta'na
Nelarki boshimg'a kelmadi davrondin.

Bobur ruboiylarida Vatan obrazi asosiy o'rinni egallaydi. Ilm haqida yozadi.

Bobur ko'pgina tuyuq va fardlar yozdi. Ularda ham yuqoridagi mavzularni qalamga oladi: Tuyuq:

Vasldin so'z derga yo'q, Yoro manga
Hajr aro rahm ayla, kel, Yoro manga
O'qung etti ko'p yamon Yoro manga
Marhami lutfung bila Yoro manga.

Bobur mahorati yuksak shoir. Uning she'rlarida tazod, laf va nashr, o'xshatish, iyhom, mubolag'a kabi badiiy vositalar ko'p uchraydi. Tazod:

O'ltirur garchi meni g'uftoring
Tirguzur ul labi shakarboring.

Kinoya: Tutdim sochini yuzin ko'ray deb
Tun uzunu men g'arib gumroh.

Maqol: Da'viyi ishq etib g'ayr Boburni ayb qilma
Kim men edim seningdek, sen bo'lgaysen
maningdek.

Omonim: To oq yuzung yiroq tushti
Ikki ko'zum ichra oq tushti.

Umuman, Bobur g'azallari bugunki kunda o'quvchilar tomonidan sevib o'qilmoqda. Hofizlar jo'shib kuylamoqda. Bobur kishilarni yaxshilik qilishga chaqiradi:

Bori elga yaxshilik qilg'ilki, mundin yaxshi yo'q
Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig'.

M A V Z U : «BOBURNOMA»

R E J A:

Kirish.

1. «Boburnoma» haqida.
 2. Asarning nusxalari va o'rganilishi.
 3. «Boburnoma» - tarixiy manba.
 4. «Boburnoma» nasriy asar sifatida.
 5. Asarda joylar va tabiat lavhalari.
 6. «Boburnoma»da tarixiy shaxslar haqida.
 7. Bobur - «Boburnoma»ning bosh qahramoni.
 8. Asarning tili va ahamiyati.
- Xulosa.

69

Forig' erdim, qanoatim bor edi,
Qone' erdim, farog'atim bor edi.
Go'shae ixtiyor qilg'on edim
G'aflat uyqusidan oyilg'on edim.

Ba`zan tarkidunyochilik ohanglari ham ko`rinadi;

Jahon eliyu jahon-barcha gar adam bo`lsa,
Adam yo`lini tutay zarra menda g'am bo`lsa

Bobur she`riyatining muhim qismini ruboiylari tashkil etadi. Ruboiy shoirning haqiqiy qalb tarjimoni, ruhiy oynasi. Boburga ruboiy yozish juda qulay, gashtli mashg'ulot bo'lgan. U badiha usulida ham ruboiylar yozavergan. Akademik Oybek Bobur ruboiylari haqida shunday yozgan edi: «Bobur ruboiylari uning poeziyasining cho'qqisidir. Umar Xayyomning ruboiylari kabi uning ruboiylari ham falsafiy fikrlarga boy, shaklan mukammal va islom dini nuqtai nazaridan mahdudligidan ancha ozoddir». «Albatta Navoiy Bobursiz Navoiy bo'lib qoldi, lekin Boburni Navoiysiz tasavvur qilish qiyin», - degan edi M.Shayxzoda. Bobur umr bo'yi Navoiydan ilhomlandi. Navoiydan badiiyat sirlarini, ma`noni ruboiyda yuksak mahorat bilan ifoda etishni o'rgandi. Navoiy g'ariblik haqida shunday yozgan:

Munglug' boshim ostidagi toshimnumu dey?
Tosh ustidagi g'arib boshimnimu dey?
Hasrat suyidin ko`zimda yoshimnimu dey?
O`lmokdin sa`broq maoshimnimu dey?

Bobur quyidagicha yozadi:

G'urbat tug'i yopqon ruhi zardimnimu dey?
Yo hajr chiqargan ohi sardimnimu dey?
Holing nedurur, bilurmisen dardimni,
Holing so`raymu, yo`qsa dardimnimu dey?

Navoiyning «Sadqa», «Yo`qturur» kabi ruboiylariga ham Bobur javob yozgan.

Bobur ruboiylari mavzu jihatdan rang-barang. Shoir unda hayot va inson qismatiga oid ko'p tomonlarni qamrab olgan. Ayni paytda shoir ruboiylari ko'proq hasbu hol tarzidadir. Boburning lirik qahramoni hayotsevar, oshiqlikni shohlikdan yuqori qo'yadi. Shoir sevgi tuyg'ularini harorat va samimiy tarzda bayon etadi:

Xush ulki ko`zum tushsa sening ko`zingga,
Bevosita holimni desam o`zungga.
Bermay so`zuma javob achchig'lanasen,
qilding meni muhtoj chuchuk so`zungga.

Shoir ruboiylarining katta bir qismini hijron mavzulari tashkil etadi:

Hajring g'amidin oqibat o'lg'um, qaro ko`z
Yuz g'ussau anduh ila bogum, qaro ko`z.
Vasling bila qilmading ilojin Bobur
Mushkulki firoqingda tirilgum, qaro ko`z.

Sertashvish, g'alvali hayot Bobur qismati edi:

Davron meni o'tkardi saru somondin
Ayirdi bir yo`la meni xonimondin

68

Navoiy asarlarida ushbu san`at bilan bog'liq ko'pgina baytlar mavjud. «Bu masaldurkim», «so`zki bor», «rost andoqkim», «chin emishkim», «der emish», «derlar», «ayturkim» kabi so`z va birikmalar orqali baytda kiritilgan maqol, hikmatli so`zlarga ishora qilinadi.

Labing ko`rgach, iligim tishlaram, har dam taxayurdin
Ajab holatki: bolni totmayin barmog' yalaydurman.

Yoki:

Asli masaldur bu so`zda bale,
It hurar, karvon o`tar, kechar masali.

A.Navoiy 2 tilda ijod qildi. Uning fors-tojik tilidagi she`rlari «Devoni Foni» nomi bilan mashhurdir. «Devoni Foni»ga kirgan she`rlarning hammasi Navoiyning o'ziniki ekanligi bahslidir. Olimlarimizning qayd etishicha, bu to'plamga Foni taxallusi bilan ijod etgan Muhammad Muhsin Foni, Kashmiriy, Xo`ja Ahmad Dehqon Sheroziylarning she`ri kirganligi ham ehtimoldan xoli emas. «Devoni Foni»ning mukammal nusxasi saqlanib qolmagan. Uning mukammal nusxasi Parij, Tehron, Istambulda.

Parij nusxasida 1131 she`r kiritilgan. Navoiyning ta`kidlashicha 6000 baytdan ko'proq. Olimlarimizning ta`kidlashicha 6197 baytni tashkil etadi.

«Devoni Foni»ning janrlari «Xazoyin ul-maoni»dagidek. Unga kirgan she`rlarning mavzulari ham «Xazoyin ul-maoni»da qayd etilgan mavzular bilan hamohangdir.

Olimlarimizning qayd etishicha, «Devoni Foni»dan joy olgan she`rlarning ko'pi Sa`diy Sheroziy, Xusrav Dehlaviy kabi Shoirlar she`rlariga tatabbu tarzida yozilgan. Navoiy forsiy she`riyatida ham o`zining yuksak mahoratini namoyon eta oladi.

Navoiy forsiy ruboiylarini yozishda ko'proq U.Xayyom, H.Sheroziy, Jomiylarning an`analariga tayangan.

M A V Z U: «XAMSA»NING YARATILISHI.

R E J A :

K i r i s h

1. Navoiyning o'zbek adabiy tili uchun kurashi.

2. «Xamsa»ning yaratilishi.
 3. Navoiy Astrobodda.
 4. Shoir hayotining so'nggi yillari.
- X u l o s a

A D A B I Y O T L A R:

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi. T. 1999.
2. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T. 1999.
3. N.Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. 1-kitob. T. 1963.
4. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 2-tom. T. 1978.
5. O'zbek adabiyoti. Darslik. 10-sinf. T. 1999.

21

6. E.E.Bertel's. Navoiy. M. 1948.
7. E.E. Bertel's. Jami-Navoi. M. 1948
8. I.Sulton. Navoiyning qalb daftari. T. 1969.
9. Xondamir. Makorim ul-axloq. T. 1967.
10. Zayniddin Vosifiy. Badoye`ul-vaqoe`. T. 1979.

Alisher Navoiy qanday ishda ishlamasin, badiiy ijodni birinchi o'ringa qo'yadi. O'qish o'rganish, tinimsiz ijod qilish Shoir hayotining mazmuni edi. Bu ijod keng qamrovligi, rang-barang jihatlarni qamrab olishi bilan ham e'tiborli. Navoiy davlat arbobi, shoir, adabiyotshunos, murabbiy, tilshunos, tarixchi va boshqa soha kishisi sifatida namoyon bo'lgan.

Navoiy o'zbek adabiy tilini rivojlantirish, bu tilda go'zal asarlar yaratish, o'zbek tilini yuqori mavqega ko'tarish, uni mamlakat va xalq manfaatlariga xizmat qildirishni orzu qiladi. U o'zbek tilini kamsitgan, bu tilda yaxshi asarlar yozish mumkin emas, turkiy tilga bee'tibor bo'lgan kishilarga munosib javob bera oldi. O'zbek adabiy tilini boyitdi, ravnaq toptirdi. Abdurahmon Jomiy Navoiyning bu xizmatini alohida ta'kidlagan edi.

Jomiyning ta'kidicha, taraqqiyotdan, e'tibordan chetda qolgan o'zbek tiliga Navoiy qaytadan jon beradi, uni yana keng yoyilishiga erishadi.

Navoiy ko'pchilik asarlarini o'zbek tilida yozadi. Uning keng imkoniyatlarini ko'rsatib beradi. O'zbek yozuvchilariga o'z ona tilida ijod etish vazifasini qo'yadi. Navoiy fors-tojik tiliga ham yaxshi munosabatda bo'ladi.

A.Navoiy «Xamsa» yozishga tayyorlanadi. Nizomiy, Dehlaviy va boshqa xamsanavis shoirlarning asarlari bilan tanishadi. Ularni chuqur o'rganib chiqadi. Xalq og'zaki ijodi, ko'pgina tarix kitoblarini o'qiydi. Jomiy bilan maslahatlashadi. Jomiy unga fотиha beradi. Navoiy Nizomiy va Dehlaviylardan ruhiy madad oladi. 1483 yilda «Xamsa» yozishga kirishadi. Ikki yildan sal ko'proq vaqt sarf qilib, asarni yozib tugatadi. 1482 yilda yozilgan «Vaqfiya» asarida qayd etilishicha, bu masalada Sulton Husayn Boyqaroga maxsus iltimos bilan murojaat qiladi. Prof. Abdurashid Abdug'afurovning kuzatishicha, Navoiy 80-yillar boshlarida «Xamsa»ni yozish taraddudida bo'lgan.

Oldingi darslarda aytganimizdek, xalq orasida Navoiyning obro'-e'tibori kundan-kunga oshib boradi. Uning obodonchilik, badiiy ijod, xalqparvarlik, yosh ijodkorlarga homiylik

qilish sohasidagi ishlari uning nufuzini oshiradi. Bu narsa Navoiyni xushlamaydigan dushmanlariga yoqmas edi. Navoiyga qarshi bo'htonlar osha boradi. Natijada 1487 yilda Husayn Boyqaro Navoiyni Astrobodga hokim qilib jo'natadi. Navoiy Astrobodga hokim qilib yuborilishini tor ma'noda tushunmaydi. U bu o'lkani obod etish va unda tinchlik o'rnatish uchun qo'lidan kelgancha chora ko'ra boshladi. Xondamirning aytishicha, Astrobod Navoiyning «g'ayrati va harakati barakatidan ma'mur va obod bo'lgan edi». Dushmanlar bu erda ham Navoiyga tinchlik bermaydilar. U bir necha marta podshohga xat yo'llab Hirotga qaytishni so'raydi. 1488 yilda o'zi Hirotga kelib, Astrobod hokimligidan ozod qilishni so'raydi. Husayn Boyqaro rozi bo'lmaydi. Haydar bilan bog'liq bir mish-mish sabab bir necha oy o'tganidan so'ng Navoiy Hirotida qoladi. Boshqa amalga o'tirmaslik haqida podshohdan va'da oladi.

22

G'urbat ichra, ey ko'ngul, eldin vafo istarni qo'y,
Chun vafosin ko'rmading hargiz diyoru yorning.

Bobur, ul gul javr etar, ag'yordin ne yaxshiliq,
Gulning ozori bu bo'lsa, vah ne bo'lgay xorning

Yoki:

Yor qadrin bilmadim to yordin ayrilmadim
Yor qadri muncha ham dushvor ekandur, bilmadim.

Ba'zi g'azallarda bevosita ma'shuqaning ko'rinishi, chiroyli surati chiziladi. Ma'shuqaning ko'pgina a'zolari turli narsalarga tashbehlanadi:

Tushing dur, labing marjon, xading gul, xating
rayhon

Yuzung hur, soching anbar, so'zung mul, menging
meynon.

Meynon menging, so'zung mul, anbar soching, yuzung
hur

Rayhon xating, xading gul, marjon labing, tishing
dur...

Bobur she'riyatining asosiy qahramoni shoirning o'zi. U oshiq, muhabbatni teran anglaydigan, o'zini ishq quli deb hisoblaydigan, hayotni chuqur kuzatadigan, davr qiyinchiliklaridan alam chekkan, hijrondan joni qiynoqda bo'lgan bir shaxs. Uning ko'ngil qo'ygan ma'shuqasi nihoyatda go'zal. Oshiq vafodor inson. U har qanday holatda ham ma'shuqasidan yuz o'girmaydi.

Keltursa yuz baloni o'shal bevafo manga
Kelsun, agar yuzumni evursam, balo manga.

Ba'zan lirik qahramon azoblardan qutulishga, o'zni shod tutishga harakat qiladi:

O'zni, ko'ngul, aysh ila tutmoq kerak
Bizni unutmakni unutmoq kerak...

Adabiyotshunos I.Haqqul Bobur she'riyatidagi tasavvufiy g'oyalar haqida ham mulohazalar yuritadi. «Boburnoma»dagi qator ma'lumotlar Boburning Shariat, Tariqat, Ma'rifat shartlarinigina emas, yaxlit holda, tasavvuf mohiyatini ham teran tushunganligiga to'la ishonch paydo qilishni yozadi. Shoirning she'riy maktubidagi mana bu misralarda ilohiy mohiyat yashiringanini ta'kidlaydi:

Aytgil ul husn xoniga
Demayn xon, balki jonlar joniga
Ko'rmayin yuzingni bemor o'lmisham
G'oyibona oshiqi zor bo'lmisham.

Mana bu misralar ham orifona ohanglar sifatida talqin etiladi:

Kunju uzlatga ru qilib erdim,
G'amu mehnatta xu qilib erdim
Ey xush ulkim, jamii hamdamdin
Dema hamdamki, jumla olamdin.

67

Shoir devoni asosan o'zbek tilidagi she'rlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga bir necha fors-tojik tilidagi she'rlar ham mavjud. Bu esa Boburning fors-tojik tilini mukammal bilishini ko'rsatadi.

Bobur murakkab bir davrda yashadi. Uning hayoti ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar, alam-iztiroblar bilan uzviy bog'liq bo'ladi. «Boburnoma»da tasvirlangan ko'pgina voqealar shundan dalolat beradi. Bobur ruhan qiynalganda ham, hayoti quvonchu shodliklar bilan to'lganda ham, qiynoqlar girdobiga tushganda ham, mag'lubiyat alaminin tortganda ham - hamma-hamma vaqt she'riyat bilan sirlashadi. O'z holatini, yurak nolalarini she'rga ko'chiradi. «Boburnoma»da qayd etilgan, yozilish tarixi ko'rsatilgan ba'zi g'azallar, ruboiylarga e'tibor bersak, bu narsa yana ham oydinlashadi. «Boburnoma»da shoir o'zi birinchi tugal g'azalini 18-19 yoshlarida, 1501-1502 yillarda yaratganini qayd etadi. Va matla'ni keltirgan:

Jonimdin o'zga yori vafodor topmadim...

Ammo Bobur 1500 yilda shoir sifatida tanilgan. Hozircha uning 120 g'azal, 210ga yaqin ruboiysi, 10dan ortiq tuyuq, qit'a, fard, 150 dan ortiq muammosi yetib kelgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, Bobur she'riyatining asosiy mavzusi ishq-muhabbatdir. Uning rangin kechinmalari, visol orzulari, hijron iztiroblari, yor go'zalliklari, oshiqning rang-barang holatlari bayon etiladi. Bobur yurt haqida, Vatan sog'inchi, yor va diyorni madh etish, odob-axloq, ma'rifatni kuylash, davr ozorlaridan shikoyat kabilar haqida ham yozadi. Bobur she'riyatida ishq-muhabbat, hayot zavq-shavqlari kuylangan g'azallar anchagina. «Yoz fasli...» deb boshlanuvchi g'azalida «yoz fasli», «boda kayfiyati», «ishq dardi», «do'stlar suhbat», «she'r bahsi» haqida gap boradi.

Shoir «Sochiniy savdosi...», «Sendek menga...», «Xazon yaprog'i yang'lig' gul yuzing hajrida sarg'ardim», «Ko'rmagay erdim jamolin...», «Jamoling vasfini...» deb boshlanuvchi g'azallarida ana shu ruh yetakchilik qiladi. Lirik qahramon yori visoliga orzumand. Uning yuzini ko'rish, so'zini eshitish niyatida. Bu istagi amalga oshmasa «Ayoq yetganча ketgay»;

Jamoling vasfini, ey oy, necha eldin
eshitgaymen
Ne kun bo'lg'ay visolinga meni dilxasta
etgaymen.
Tarahhum yuzidin yuzingni ko'rmakka
buyurgaysen
Xush ulkim, orazingni ko'rgaymen, so'zung
eshitgaymen...

Ko'pgina g'azallarida yordan shikoyat, hayotdan noliш, vafosizlikdan afsuslanish, odamlardagi yomonliklardan arz bayon qilinadi. «Topmadim», «Yaxshilig'», «Parishon ro'zg'orim bor», «Qoldimu?», «Jonima ag'yorning» kabi radifli g'azallarida ana shu mavzular qalamga olingan. Lirik qahramon mana bu misralarda ham dildoridan, ham ag'yorlardan noliydi:

Qaysi bir ozorin aytay jonima ag'yorning
Qaysi bir og'ritqanin ko'nglumni dey dildorning.

66

Shu bilan birga davlat ishlarida ham faol ishtirok etadi. Asosan badiiy ijod bilan shug'ullanadi. Ko'pgina asarlarini yozadi. Bu orada Navoiyning eng yaqin ustoz va yaqinlari hayotdan ko'z yumdilar. 1488 yili Sayid Hasan Ardasher, 1492 yili Abdurahmon Jomiy, 1493 yili Pahlavon Muhammad vafot etadi. Ularning xotirasiga «Holoti Sayid Hasan Ardasher», «Holoti Pahlavon Muhammad» /holot - holat, kayfiyat/, «Xamsat ul-mutahayirin» /«Besh hayrat»/ asarlarini shu yillar ichida yozib tugatadi.

1488-1500 yillar orasida Navoiy bir qancha badiiy va ilmiy asarlar yozdi. Hirotga kelgach, ko'p o'tmay «Tarixi mulki Ajam» /«Ajam shohlari tarixi»/ asarini yozdi. 1491 yil muammo janri haqida «Risolai muammo»ni yozdi. 1492 yildan keyin Husayn Boyqaro va boshqalarga yozgan maktublarini «Munshaot» nomi bilan kitob qildi. 1492 yili aruz ilmiga bag'ishlangan «Mezon ul-avzon» /«Vaznlar o'Ichovi»/, 1496 yili so'fiylar haqida «Nasoyim ul-muhabbat» /«Muhabbat shabadasi»/ni yaratdi. 1491-1498 yillar orasida avvalgi ikki she'rlar devoni va keyingi yozgan she'rlarini to'plab «Xazoyin ul-maoniy» /«Ma'nolar xazinasi»/ni tuzdi. «Bu to'rt jildda 16 janrga oid 3000 dan ortiq she'r bo'lib, ularda 2600 g'azal, 210 qit'a» 133 ruboiy, 86 fard, 52 muammo va boshqalar mavjud.

«Sittai zaruriya» /«Zaruriy olti tomon»/ - yuqori, quyi, o'ng, so'l, old, orqa/, «Fusuli arbaa», «Devoni Foni»ni yozdi.

1485 yilda diniy va axloqiy masalalarga doir «Nazm ul-javohir» - «Nazmlar gavhari», «Tarixi anbiyo va hukamo» /«Avliyolar va hakimlar tarixi»/, 1488 yil «Siroj ul-muslimin» - «Musulmonlik nuri», «Risolai tir andoxtan» - «O'q otish risolasi» va arab tili lug'ati «Sab'at-ul-abxur» /«Yettinchi dengiz»/ kabi asarlarini yaratdi. 1498 yilda «Lisonut tayr», 1499 yilda «Muhokamat ul-lug'atayn», 1500 yili «Mahbubul-qulub» asarini yozdi.

1498-1500 yillar Husayn Boyqaro bilan o'g'illari Badiuzzamon, Muhammad Husayn, Abul Muhsin orasida nizolar qizib ketdi. Navoiy u bilan birga bo'ladi. Husayn Boyqaro isyon ko'targan o'g'li Muhammad Husayn Mirzoga qarshi 1500 yilning yozida qo'shin tortgan edi. 28 dekabrda Husayn Boyqaro g'alaba qozonib, u bilan yarashgani va Hirotga qaytib kelayotgani haqida xabar keladi. Navoiy kasal bo'lishiga qaramay, podshoni kutib olishga chiqdi. Bu 31 dekabr edi. Navoiy podshoh bilan ko'rishadi. Hushidan ketadi. Xondamir uni shunday tasvirlaydi: Shu fursatda, Xudoning taqdiri bilan u zotning muborak boshi aylanib

qoldi. Oliyjanob Amir Xoja Shahobiddin Abdullohni oʻz yaqiniga chaqirib, «Meni saqlashdan gʻofil boʻlmang, ahvolim oʻzgarib qoldi», deydi. 1501 yil 3 yanvarda shoirimizning yuragi urishdan toʻxtaydi. Mamlakat 7 kun motam tutadi. Hirot iydohida janoza oʻqildi. Keyin oʻzining masjidida jome yonidagi ilgaridan shu hodisa uchun yasab qoʻyilgan gumbazga olib kelib dafn qildilar. «Sultoni Sohibqiron uchinchi kungacha ul ahli dillar boshligʻining uyida turdi. Xudoyi va xatm buyurdi». Xondamir motamni shunday tasvirlaydi:

Az mavti u nashast ba har xona motame,
V-az favti u bixest zi har goʻsha shevane,
Z-in saxmgin musibatu z-in saxmnok marg,
Otash fitod dar dili har sangu ohane.

23

Tarjimasi:

Oʻlimidan har bir uyga tushdi motam.
Mamlakatning har burchidan chiqdi figʻon.
Temir yurak, tosh yurakli kishilar ham,
Bu dahshatli musibatdan yutdilar qon.

Alisher Navoiy ijodini oʻrganish, uning ilmiy tahlili boʻyicha soʻnggi yillarda qator tadqiqotchilar ish olib bordilar. Hozirda maktablar, xiyobonlar, koʻchalar buyuk Shoirimiz nomi bilan yuritiladi. Uning nomida Oʻzbekiston Davlat mukofoti taʼsis etilgan.

**M A V Z U : NAVOIYNING LIRO-EPIK ASARLARI.
«XAMSA»NING YARATILISH JARAYONI.**

R E J A :

Kirish.

1. Navoiyning epik asarlari.
2. Oʻzbek adabiyotining rivojlanishida «Xamsa»ning oʻrni.
3. «Xamsa» chilik anʼanalariga doir.
4. Navoiy «Xamsa»sining yaratilishi.
5. «Xamsa»ning tuzilishi.
6. Navoiy «Xamsa»sining mavzulari va gʻoyalari.
7. «Xamsa»dagi obrazlar silsilasi.
8. Xulosa

A D A B I Y O T L A R:

1. Darsliklar.
2. A.Navoiy. Mukammal asarlar toʻplami. 20 tomlik. 7-11-tomlar. Toshkent, 1991-1993

3. A.Navoiy. Xamsa. Toshkent, 1986 y.
4. B.Valixoʻjayev. Oʻzbek epik poeziyasi tarixidan. Toshkent, 1974 yil.
5. T.Jalolov. Xamsa talqinlari. Toshkent, 1968 y.
6. N.Mallayev. Navoiy ijodining xalqchil negizi. Toshkent, 1980 y.
7. A.Hayitmetov. Navoiyning ijodiy metodi masalalari. Toshkent, 1963 y.
8. A.Hayitmetov. Temuriylar davri oʻzbek adabiyoti. Toshkent, 1996 y.
9. A.Hayitmetov. Navoiyxonlik suhbatlari. Toshkent, 1993
10. Abdurashid Abdugʻafurov. Buyuk beshlik saboqlari. Toshkent, 1995
11. A.Navoiy. «Xamsa»si. Toshkent, 1986
12. Navoiy va ijod saboqlari. Toshkent, 1981
13. I.Haqqulov. Zanjirband sher qoshida. Toshkent, 1989.
14. I.Haqqulov. Abadiyat farzandlari. Toshkent, 1990.

A.Navoiy lirik asarlar bilan birgalikda liro-epik janrda ham qalam tebratdi, oltita sheʼriy doston yozdi. Navoiyning «Xamsa»si shoir ijodining ham, qolaversa oʻzbek adabiyotining ham gultoj asarlaridan hisoblanadi. Navoiy oʻz «Xamsa»sini yetarlicha ijodiy tajribaga, bilimga,oʻtmish xamsanavislar anʼanalariga suyangan holda yaratdi.U oʻz «Xamsa»sini

24

Gulbadanbegim Humoyun kasal boʻlganda Bobur iztiroblarini ham taʼsirli yozadi: «Menki, Boburman, umri jonimni oʻgʻlim Humoyunga bagʻishlayman» deb aytgani, Shundan soʻng Bobur kasal boʻlib yotib qolgani, Humoyun oʻsha kuni oʻrnidan turganini aytadi.

Bugungi kunda Boburga ulugʻ ehtirom koʻrsatilmoqda. Bu mustaqilligimiz, hukumatimizning oʻtmish ajdodlarimiz merosiga boʻlgan buyuk eʼtibor bilan bogʻliq. Ayni kunda Andijonda muhtasham Bobur bogʻi hammani lol qoldirmoqda. Bobur nomidagi xalqaro jamgʻarma, xalqaro ekspedisiyalar mavjudligi, 1993 yilda Bobur merosi boʻyicha xalqaro anjuman /Samarqandda/ oʻtkazilishi va boshqalar ana shu eʼtibor natijasidir. Umuman, Bobur oʻz shaxsiyati, merosi bilan xalqimizga xizmat qilaveradi.

M A V Z U: BOBUR SHEʼRIYATI.

R E J A:

Kirish.

1. Bobur devoni haqida.
 2. Shoir sheʼriyati janrlari va mavzulari:
 - a) sevgi-muhabbat;
 - b) Vatan madhi;
 - v) odob - axloq;
 - g) tasavvufiy gʻoyalari;
 3. Boburning poetik mahorati.
- Xulosa.

A D A B I Y O T L A R :

1. Darsliklar.
2. Bobur. Asarlar. 3 jildlik. T., 1965.
3. Bobur. Tanlangan asarlar. T., 1976.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Mahrami asror topmadim”. T., 1993.
5. “Buyuk siymolar, allomalar”. 2-kitob. T., 1996.
6. A.Qayumov. “Bobur lirikasining asosiy xususiyatlari”.
7. I.Haqqulov. “O‘zbek adabiyotida ruboiy”. T., 1981.
8. I.Haqqul. “Tasavvuf va she‘riyat”. T., 1991.

Bobur ijodi ko‘p qirralidir. Ammo uning she‘riyat sohasidagi shuhrati yana ham yuksakroqdir. Boburning bizgacha rang-barang janrlardan iborat lirik devoni yetib kelgan. Bobur devonlarining qo‘lyozma nusxalari unchalik ko‘p emas. Devonlarining qo‘lyozma nusxalari Parijda, Hindistonda, Turkiyada, Eronda va boshqa joylarda saqlanadi. Bu devonlar bir necha marta nashr etilgan. 1910 yilda Hindistonda, 1915 yilda Istambulda, 1917 yilda Petrogradda nashr etilgan. Bobur devonlari ingliz, fransuz va boshqa tillarda ham tarjima qilingan. 1943-1957 yillar orasida rus tilida nashr etilgan. Bobur devonida g‘azallar, ruboiylar, tuyuqlar, fard, masnaviy kabi janrlar uchraydi. G‘azal, ruboiy, tuyuqlarning turli xillarini ko‘ramiz, Bobur she‘riyatining asosiy janrlari g‘azal, ruboiy va tuyuqdir.

65

Bobur 1530 yil 26 dekabrda dushanba kuni nahorda Agrada bandalikni bajo keltiradi. Uning jasadini Agra shahrida Jamna daryosi bo‘yidagi Bog‘i oromga dafn etadilar. Boburning qizi Gulbadanbegimning yozishicha, qabr oldida besh vaqt namoz o‘qib, marhumning ruhiga tilovat qilib turish uchun maxsus mutavali va 60 ta xushovoz qorilar tayinlangan. Boburning rafiqasi ikki yildan ortiq vaqt har kuni ikki mahal qo‘y va mollar so‘ydirib, tayinlangan qorilarga tilovat qildirib turgan. Oradan bir necha yil o‘tkach, Bobur vasiyatiga ko‘ra uning xotinlaridan biri, hazratning qabrini Qobulga ko‘chiradi.

O‘zbek adabiyotida o‘ziga xos boburshunoslik yuzaga keladi. Uning shaxsi va ijodi adabiyotshunos, tarixchi, tilshunos, jo‘g‘rofiya va boshqa soha kishilarining e‘tiborini tortib keldi. J.Neru Bobur haqida o‘zining «Hindistonning kashf etilishi» kitobida shunday yozadi: «Bobur dilbar shaxs, Uyg‘onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor odam bo‘lgan. U san‘atni, adabiyotni sevardi, hayotdan huzur qilishni yaxshi ko‘rardi».

Sho‘rolar davrida Bobur ijodiga bir yoqlama yondashildi. Uni qoralashga, faoliyatini o‘rganmaslikka harakat qilindi.

Boburning bizgacha yetib kelgan lirik she‘rlari 1917 yili Petrogradda sharqshunos olim A.Samoylovich tomonidan chop etiladi. Keyinroq ular 1931 yilda Istanbul shahrida «Milliy tatabu‘lar majmuasi»da ham nashr etiladi. 1940 yili Bobur hayoti va ijodi 9-sinfda o‘rganilishi Davlat dasturida belgilandi. «Adabiyot darsligi»da Navoiy, Turdi, Muqimiy qatori Bobur hayoti va ijodi ham kiritildi. 1947 yili dastur asosida VII sinflarda Bobur merosi o‘rganilishi qayd etildi. Bobur asarlari «Bolalar adabiyoti»ga kiritiladi. Uning asarlari lug‘ati tuzildi. Keyingi yillarda Boburning turli asarlari chop etildi. Boburshunos olimlar tomonidan ko‘plab tadqiqotlar yaratildi.

Boburning adabiy merosi ko‘p qirralidir. Uning she‘rlari, «Boburnoma»si alohida o‘rganiladi. Qisqacha boshqa asarlari haqida.

Boburning «Muxtasar» asari aruz nazariyasi haqida. U bu asarni yozishga kirishishdan oldin Navoiy, Rashiddin Vatvot, Nosir Tusiy, Ar Roziy va boshqalarning aruz haqidagi ishlarini o‘rganadi. U yozgan alifbo «Xatti Boburiy» nomi bilan mashhur.

Bobur 16-17 yoshlaridan badiiy ijodiyot bilan shug‘ullanadi. 1503-1504 yillarda «Xatti Boburiy», 1522 yilda «Mubayyin», 1528 yilda Xo‘ja Ubaydulla Ahrorning «Volidiya» risolasini fors-tojik tilidan o‘zbek tiliga tarjima qiladi. She‘riy yo‘l bilan. Bulardan tashqari musiqaga oid «Musiqiy ilmi», «Harb ishi» asarlarini yozganligi ham aytiladi.

Boburning dinga munosabati, oilaga, farzandlariga, odob-axloq, urf-odatlarga munosabati ham alohida o‘rganiladigan mavzu.

Bobur shaxsiyati bilan bog‘liq ba‘zi jihatlar Gulbadanbegimning «Humoyunnoma»sida keltiriladi. U shunday yozadi: «Firdavs makonning katta o‘g‘illari Humoyun podshoh... Qobul arkida /1508 yil 7 mart/ tug‘ildilar. O‘sha yili Firdavs makon amrlari va boshqalari: «Endi meni Bobur podshoh deb atanglar», deb buyurdilar. Humoyun podshoh tug‘ilmaslaridan burun Mirzo Bobur deb atash rasm edi. Chunki bugun podshohzodalarni Mirzo deb, o‘zlarini esa Humoyun podshoh tug‘ilgan yillaridan «Bobur podshoh», deb atashga buyurdilar.» /Gulbadanbegim. Humoyunnoma. 33-bet./

64

turkiy tilda yozdi. Chunki ungacha yaratilgan «Xamsa»lar fors-tojik tilida edi. Shoir turkiy tilda asar yaratib o‘z xalqini bahramand qilishni orzu qildi va ulug‘ niyatiga erishdi.

«Xamsa»chilik 300 yillik tarixga ega. «Xamsa» janr sifatida shakllanishiga qadar Rudakiyning «Kalila va Dimna», «Sindbondnoma», «Shohnoma», «Qutadg‘u bilig», «Vis va Romin» kabi asarlar yaratilgan edi.

«Xamsa» - baynalminal hodisa. U Ozarbayjonda yuzaga kelib, Hindiston, Xurosonda kamolga yetadi. Xamsachilikka Nizomiy asos soldi. Ammo u «Xamsa» deb nomlangan emas, balki «Panj ganj» deb nom qo‘ygan edi. Kotiblar, keyingi olimlar uni «Xamsa» deb atashgan. Akademik B.Valixojayev ta‘rificha bu hodisa XIII asr oxiri - XIV asr boshlarida yuz beradi. XIV asrda «Panj ganj» ham «Xamsa» ham deb yuritilgan. «Xamsa» yozishga ko‘pgina shoirlar harakat qilishdi. Mavlono Ashraf, Ali Ohiy, Orif Ardablibiy, Mavlono Kotibiy va boshqalar. Bular orasida ko‘proq shuhrat topgani Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy va Navoiy «Xamsa»lari bo‘ldi.

XIV asrdan boshlab «Xamsa» yozish an‘anasida 2 yo‘l vujudga keldi.

1 - yo‘l - Nizomiy «Xamsa»sining syujetini, mazmunini, badiiy jihatdan yaxlitligini, obrazlarini e‘tirof etish va uning an‘analarini saqlash.

2 - yo‘l - Nizomiy «Xamsa»si dostonlari o‘rniga yangi syujetlar kiritish, obrazlarini o‘zgartirish Yoki dostonlar sonini ko‘paytirish. Yana bir tomoni yangi qahramonlarga ega bo‘lgan masnaviylarni kiritish.

X.Dehlaviy, A.Navoiy kabi shoirlar 1-yo‘nalishga mansub.

2-yo‘nalishda irod qilgan XIV asr shoiri Xoji Kirmoniy «Humoy va Humoyun», «Gulu Navro‘z», «Ravzatul anvor», «Kamolnoma», «Gavharnoma» dostonlarini beshlik - «Xamsa» deb atadi.

Turk shoiri Hamidullo esa «Yusuf va Zulayho», «Layli va Majnun», «Tuhfatul ushshoq», «Mavlid», «Muhammadiya»dan iborat asar yaratdi. A.Navoiy «Xamsa» yozishga jiddiy tayyorlandi. U 1460 yillarga kelib «Xamsa» yozish qudratiga ega ekanligini ochiq qayd etadi. Jumladan, Said Hasan Ardasheriga yozgan maktubida «Xamsa»ni tez fursatda yoza olishi mumkinligini ta'kidlaydi.

Navoiyning «Xamsa»si tugallanishi munosabati bilan Husayn Boyqaro yozgan «Risola» orqali bizgacha etib kelgan ushbu misralar ham bu fikrni quvvatlaydi:

Ne «Shohnoma» kim, «Xamsa»ga ursam al,
Aning panjasi sori etkursam al,
Umidim bukim, aylabon fatxi bob,
Qo'lim bergay ul panjaga dog'i tob!
O'ttuz yilki oni Nizomiy demish -
Qoshimda erur ikki-uch yillik ish!

Navoiy talqinicha, Firdavsiy «Shohnoma» yozish uchun 30 yil, Nizomiy ham «Xamsa»ni 30 yil davomida yozgan bo'lsa, Navoiy 30 oyda bu ishning uddasidan chiqishini ta'kidlaydi. «Xamsa» yozishni «Qoshimda erur ikki, uch yillik ish» degan Navoiy hadeganda bu ishni amalga oshirilmadi. Go'yo nimadir xalaqit berganday tuyuladi. Lekin, Navoiy yangi bir «Xamsa» yozish va turkiy tilda yozish, uni o'z xalqiga tortiq etish orzusidan bir dam bo'lsin chekinmaydi.

25

Oradan ya'ni «Xamsa» yozish haqida so'z ochganidan 16 yil o'tgach, Navoiy 1483 yil «Xamsa» yozishga kirishadi. Ilmda «Xamsa» 1483-1485 yillar orasida yozilganligi qayd etiladi. Navoiyning o'zi qayd etishicha esa «Xamsa» yozishga ketgan vaqt «Yig'ishtirsa bo'lmas bori olti oy»

Ki, ahli muhosib shitob aylasa,
Deyilgan zamonin hisob aylasa.
Yig'ishtirsa bo'lmas bori olti oy,
Ki, bo'ldung bu ra'noga suratnamoy.

Navoiy «Xamsa»siga kirgan 5 dostonda juda keng masalalar qamrab olinadi.

Navoiy bir necha o'rinlarda «Xamsa» yozishdan maqsad an'anaviy afsona va rivoyatni bayon qilish emas, balki ular aytilajak xulosa, g'oyalarga faqat bir «libos» - vositadir deb ta'kidlaydi. Chindan ham Navoiy, Firdavsiy, Nizomiy, Xisrav Dehlaviylar tomonidan ishlangan Xusrav va Shirin, Layli va Majnun, shoh Bahrom va Iskandar mavzularini qalamga olar ekan, avvalo o'z zamonasi hodisalarini, o'ziga zamondosh shaxslar muammolarini va xarakterlarini, o'y - istak, intilishlarini, o'zi yashayotgan jamiyat jumboqlarini tasvirlaydi, o'z davri hayotini yoritadi.

Hotam Toyida mehnatsevarlik, Sher va Durrojida kishilardagi yomon xislatlarni ko'rsatadi v.x. Barkamol inson - Navoiy orzusi. Insonni, uning faoliyatini belgilovchi o'lchov esa-odamiylikdir.

«Xamsa»da avvalo etuk inson, komil kishi obrazi turadi. Unda inson sharafiga, g'ururi, erki, huquqi, insoniy fazilatlariga, ilm, adolat, yaxshilik, do'stlik, to'g'rilik, sevgi, vafo, go'zallik, odil shoh va hokazolar ulug'lanadi.

Zolim shohlar, yolg'onchilik, mayparastlik, xiyonat, johillik, xalqqa ozor yetkazish, ilmsizlik qoralanadi.

Navoiy «Xamsa»si masnaviy yo'lida yozilgan. Bu murakkab yo'l bo'lib, 50-60, hatto undan ko'p baytlarni bir qofiya tizimiga solishni taqazo etadi.

A.Navoiy «Xamsa»si o'ziga xos obrazlar dunyosidir. Unda go'zal, mard ayollar, etuk yigitlar obrazi, olimlar, donishmandlar, podshohlar va boshqa kishilar obrazlari ko'zga tashlanadi.

M.Shayxzoda «Genial Shoir» asarida Navoiy yaratgan ayollar obrazlarida quyidagi xislatlarni qayd etgan edi:

1. Milsiz husn va go'zallik (jismoniy tomon)
2. Chuqur aql, farosat (aqliy tomon)
3. Ilm, ma'rifat (madaniy tomon)
4. Davlat va madaniyat ishlarida faol qatnashuv (ijtimoiy tomon)
5. Jang va kurashda bahodirlik(jangovorlik tomoni)

Adabiyotshunos olimi Suyima G'aniyeva «Xamsa»dagi ayollar obrazini shunday tasniflaydi:

1. Markaziy qahramonlar. Bular dostonlardagi asosiy g'oyalarni ro'yobga chiqaruvchi bosh qahramon darajasidagi obrazlar: Shirin, Layli, Dilorom...
2. Ikkinchi darajali, lekin faol obrazlar: Mehinbonu, Mehr, Lu'batl Chin, Maluning qizi.
3. Doston voqealari rivojlanishida yoki tasvirdagina mavjud bo'lib ma'lum sabab, vosita bo'lib keluvchi ayol personajlar: Axiyning xotini, Shahrizabz shohining qizi, Ravshanak va boshqalar.
4. Salbiy personajlar: Zoli Makkora kabi.

26

da kechdi. Hayoti Afg'oniston, Hindiston kabi davlatlar bilan bog'liq bo'ldi. Bobur yirik madaniyat arbobi sifatida ma'lum. U yoshligidan ilm bilan shug'ullangani, fors, arab tillarini o'rganishi, adabiyot, tarix, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, musiqa va boshqa sohalar bilan shug'ullangani bois ham ma'rifatni angelaydigan, madaniyatli kishi bo'lib etishdi. U fanning turli sohalariga doir ko'plab asarlar yozdi. Boburning lirik devonlari, «Boburnoma», «Mufassal», «Xatti Boburiy», «Harb ishi», «Musiqiy ilmi» islom dini asoslarining bayoni bo'lgan «Mubayyin», «Volidiya» tarjimai va boshqa asarlari uning shuhratini yanada oshirdi.

Bobur keng dunyoqarashi, mukammal aql-zakovati, bilimi bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos soldi. Bu sulola Hindistonda 332 yil hukmdorlik qildi. Bobur avlodidan olti shaxs Bobur, Humoyun, Akbar, Jahongir, Shoh Jahon, Avrangzebilar bu yerda uzoq davr podshohlik qildilar.

Sharqning bu ulug' siymosi 1483 yil 14 fevralda Andijonda Amir Temurning o'g'li Mironshoh nabirasi Abusaid Mirzonning o'g'li Umarshayx oilasida tavallud topgan. Onasi Qutlug' Nigorxonim toshkentlik mug'ul xoni Yunusxonning qizi edi.

1494 yilda Umarshayx Mirzoga qarshi uning akasi Samarqand hokimi Sulton Ahmad Mirzo va Toshkent hokimi Mahmudxon qo'shin tortadi. Falokat ro'y berib, 1494 yil 7 iyunda Umarshayx vafot etadi. 11 yoshli /ba'zan 12 yosh ko'rsatiladi/ Bobur Farg'ona viloyatining hokimi bo'ladi. Goh g'alaba, goh mag'lubiyatga uchrab turgan Bobur Farg'ona va Samarqand mulkini qo'l ostiga birlashtirib tura olmadi. Katta kuchga ega bo'lgan Shayboniixon Saripul va Axsida Boburga zarba berib, u yerlarni ishg'ol qiladi. Bobur quvg'in va sargardon bo'lib, chet ellarda faoliyat ko'rsatadi. Shayboniixon tazyiqi ostida 1504 yili Bobur ozgina askar va

a'yonlari bilan Qobulga borib o'rnashadi. Bobur o'z yurtidan, toju taxtdan voz kechib ketolmaydi. Bir necha marta Samarqandni qayta yegallashga harakat qiladi. 1512 yilda shoh Ismoil Yordam olib, Samarqandga yurish qiladi. Samarqandni uchinchi marta egallab oladi. Ubaydulla Sulton va Muhammad Temur Sulton 1513 yilning boshlarida katta qo'shin bilan Boburga qarshi yurish boshlaydilar. Bobur engiladi. Ismoil madad uchun Najmi soniy boshliq qo'shin yuboradi. U ham yengiladi. Boburning o'z saltanatini egallash orzulari barbod bo'ladi. U Afg'onistonda o'z hokimiyatini mustahkamlab oladi. Bobur Hindistonga yurish rejalarini tuzadi. Birinchi navbatda Panjob viloyatini ishg'ol qilishni mo'ljallaydi. U Hindistonga yurish faoliyatini 1519 yildan amalga oshira boshlaydi, 1526 yilgacha besh marta harbiy yurish qiladi. 1526 yil noyabrdan harakati Sind, Panjob viloyatlari orqali Dehliga qaratilgan edi. 1526 yil aprelida Dehli sultoni Ibrohim Lo'di bilan jang qilib, uni yengadi. 27 aprelda Dehlida Bobur nomiga xutba o'qiladi. So'ng CHitora hokimi Rano Sango bilan jang bo'ladi. 1527 yil 16 martda Bobur g'alaba qozonadi. Bobur Hindistonda katta ishlarni amalga oshiradi. Uning avlodlari Bobur ishlarini davom ettiradilar.

Olimlarimizning qayd etishicha, Bobur 47 yil umr ko'rgan bo'lsa, shundan 36 yilini uch mamlkatda: Movarounnahrda, Afg'onistonda, Hindistonda podshoh bo'lib o'tkazdi. 20 yil umri Movarounnahrda, 22 yili Qobulda, 5 yili Hindistonda kechdi.

«Mezon ul-avzon» adabiyotshunoslikka doir qimmatli asardir. U she'r tuzilishi, o'zbek mumtoz she'riyatining asosiy vazni bo'lgan aruzga bag'ishlangan. Aruzga oid anchagina asarlar yaratilgan. Xalil ibn Ahmad birinchi asar yozdi. Aruz nazariyasini ishlab chiqdi. Shams qaysning «Al mu`jam», Rashidaddin Vatvotning «Hadoyiq us-sehr» /«Sehr bog'lari»/, Nasriddin Tusiyning «Me`Yor ul-ash`or» /«She`rlar me`Yori»/, Salmon Sovajiy, Darvesh Mansur, Jomiylar ham aruzga oid risolalar yozdilar.

«Mezon ul-avzon»ni Navoiy umrining oxirida yaratgan. I.Sultonov asarning nusxalarini chog'ishtirish asosida ilmiy-tanqidiy matnini ishlab chiqdi.

M A V Z U : ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR.

R E J A :

Kirish.

- 1. Bobur haqida.
 - 2. Boburning hayoti va ijodi.
 - 3. Bobur hayoti va faoliyatining o'rganilishi.
 - 4. Adabiy merosi.
 - 5. Bugungi kunda Boburga ko'rsatilayotgan ehtirom.
- Xulosa.

A D A B I Y O T L A R:

- 1. Darsliklar.
- 2. “O'zbek adabiyoti tarixi”. 5 tomlik. 3-tom. T., 1980.
- 3. Bobur. “Boburnoma”. T.,1989.
- 4. Gulbadanbegim. “Humoyunnoma”. 1998.
- 5. “Buyuk siymolar, allomalar”. 2-kitob. T., 1996.
- 6. I.Hoshimov. “Hindistonda boburiylar sulolasi saltanati”. T., 1996.
- 7. M.Nuritdinov. “Boburiylar sulolasi”. T., 1994.
- 8. I.Mirzayev. “Bobur ma`rifati”. T., 1996.
- 9. P.Qodirov. “Yulduzli tunlar”. T., 1990.
- 10. P.Qodirov. “Humoyun va Akbar”. T., 1994.
- 11. Boburning «maxfiy vasiyatnoma»si. O'zAS gazetasi. 1998 yil 27 noyabr`.

O'zbek xalqi o'tmishda o'tgan ko'plab buyuk daholari bilan haqli ravishda faxrlansa arziydi. Ularning ko'plari nafaqat, o'z diYorida, balki dunyoning ko'plab mamlakatlarida ma`lum va mashhurdirlar. Ana shunday mo`tabar zotlardan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir.

Bobur xalqimizga, butun dunyoda qo'rquv bilmas sarkarda, tadbirkor podshoh, mohir davlat arbobi, ayni paytda iste'dodli shoir, adib, donishmand, tarixchi, zukko olim va tarjimondir.

Bobur tarixda umri kurashlar, urushu g'alayonlar, notinchliklar bilan kechgan shaxs sifatida ham taniqli. U temuriylar saltanatini saqlab qolish uchun harakat qildi. Umri chet ellar

Asardagi Shirin, Farhod, Layli, Majnun, Iskandar va boshqalar hammasi o'ziga xos bir olam. Shopur, **Bahrom**, Navfal, Farrux, Axiylar va boshqalar obrazlaridagi deyarli hamma yaxshi fazilatlar Navoiyning xonishi, ijodiy fantaziyasi bilan yaratilgan.

Shopur birinchidan, samimiy, insoniy do'stlik masalasini, ikkinchidan, asar voqealarini bevosita rivojlantirishga yordam beradi. Shopur kamtarin, samimiy, mohir san'atkor-rassom, dunyo kezgan sayyoh.

Bahrom ham muhim obrazlardan. U haqiqat, adolat, bahodirlik timsoli. Bahrom ham ilmli, dono, kamtarin, obro'-e'tiborda Farhoddan kam emas. U vazirning o'g'li. Farhod bilan birga o'sgan, do'st. Alisher Navoiyning olijanob obrazlaridan biri Nafvaldir. Umuman, Navoiy «Xamsa»si dunyo adabiyotining ulkan yutug'i. Husayn Boyqaro ta'kidicha, Navoiy o'z «Xamsa»si bilan «Turk tilining o'lgan jasadiga Masih anfosi bila ruh kiyurdi».

M A V Z U: «HAYRATUL - ABROR»

R E J A:

- 1. «Hayratul abror» haqida.
- 2. «Hayratul abror»ning g'oyaviy mavzulari.
- 3. Dostonning janr xususiyatlari va tuzilishi.

4. Dostondagi falsafiy masalalar.
5. Dostondagi ijtimoiy masalalar.
6. Axloqiy - ta'limiy masalalar.
7. «Hayratul abror»dagi obrazlar.
8. Dostonning badiiy xususiyatlari.

A D A B I Y O T L A R:

1. Darsliklar.
2. A.Navoiy. Xamsa. Toshkent, 1986.
3. A.Navoiy. Asarlar. 20 jildlik. 7-11 jildlar. Toshkent 1987-92 y.
4. Aziz Qayumov. «Hayratul abror» talqini. T. 1977.
5. T.Jalolov. «Xamsa talqinlari». T. 1961.
6. «Navoiy va ijod saboqlari». T. 1981.
7. A.Abdug'afurov. «Buyuk beshlik saboqlari». T. 1995.

«Hayratul abror» Navoiy «Xamsa»sining 1-dostoni. Professor N.Mallayevning fikricha bu doston 7976 misradan iborat. Dostonning tuzilishi ham o'ziga xos. Dostonning asosini 64 bob tashkil etadi. Dostonning 21-bobi muqaddima, 20-bobi maqolalar, 20-bobi turli mazmundagi hikoyatlar, masallar, 3-bobi - xotimadan iborat.

«Hayratul abror», «Xamsa»dagi boshqa dostonlardan farqli tarzda asosan Navoiyning falsafiy-ta'limiy qarashlarini ifodalaydi. Doston masnaviy yo'lida yozilgan bo'lib, lirik ifoda bilan epik tasvir uyg'unlashib ketadi. Dostonning asosini 20 maqolat tashkil etadi. Asarning 3 kompozitsiya zanjiri mavjud.

27

1. Dostonning umumiy kompozitsiyasi.
2. Maqolalar kompozitsiyasi.
3. Hikoyat va masallar kompozitsiyasi.

Dostonda qo'yilgan masalalarni shartli ravishda 3 yo'nalishda o'rganish mumkin;

1. Falsafiy masalalar.
2. Ijtimoiy - siyosiy masalalar.
3. Axloqiy - ta'limiy masalalar.

Ayni paytda «Hayratul abror»dagi obrazlarni ham 3 ga ajratish mumkin:

1. Dostonning bosh qahramoni.
2. Maqolatlardagi tavsifiy obrazlar-portret va xarakterlar.
3. Hikoyat va masallardagi obrazlar.

Dostonning bosh qahramoni - A.Navoiy. Professor A.Hayitmetov «Hayratul abror»ni «Xamsa»ning program qismi deb ta'kidlaydi. «Hayratul abror»da A.Navoiy insonning xudo oldidagi, jamiyat oldidagi burchini, vazifalarini tushuntirishga harakat qiladi.

Navoiy dostonning dastlabki qismlarida falsafiy fikrlarini bayon etadi. Bunda Olloh haqida, ilohiyot haqida, dunyoning yaratilishi haqidagi fikrlarni bayon qiladi. Dostonning «Ul

xoliq hamdidakim» deb boshlangan bobi va undan keyin keladigan 4 ta munajat boblari shoirning falsafiy-axloqiy qarashlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Navoiy tasavvurida xudo-dunyoning yaratuvchisi. Har bir zarradan tortib quyoshgacha, har bir tirik jismdan tortib ruhgacha bo'lgan mavjudot holidan xabardor. Ularni tartibga soluvchi, bahosini berguvchi hamdir. Shoir talqinicha Olloh hamma narsaga qodir.

Dostonda Olloh madhidan so'ng Muhammad payg'ambarning maqtovi-na't keltiriladi. «Hayratul-abror»da bunday na'tlar 5 ta. Bu na'tlarda payg'ambarning hayoti, islom bilan bog'liq faoliyati va boshqalar yoritiladi.

«Hayratul-abror»da diniy-falsafiy qarashlardan so'ng, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy va ta'limiy masalalarni yoritishga kirishiladi. Dostonda «So'z», «Ko'ngul», «Ishq», haqida so'z boradi. Saxovat «Karam», «Qanoat», «Vafo», «Rostgo'ylik» va boshqalar hikoyatlar asosida talqin etiladi.

Dostonning har bir bobi ma'lum bir masalaga bag'ishlanadi. Masalan: 12-bobda Nizomiy va Dehlaviy, 13-bobda - A.Jomiy ta'rifi keltirilgan. Uchinchi maqolat «Salotin bobida» bo'lib, ilova tarzida shoh G'oziy hikoyati keltiladi. To'rtinchi maqolat «Xirqapo'shlar» haqida bo'lib, Abdulla Ansoriy haqidagi hikoyat, beshinchi maqolat «Karam vasfida» bo'lib Hotam Toyi hikoyati, oltinchi maqolat «Adab» haqida bo'lib, No'shiravon hayosi haqidagi, yettinchi maqolat «Qanoat» haqida bo'lib, ikki rafiq, sakkizinchi maqolat «Vafo» haqida bo'lib, ikki vafoli Yor, o'ninchi maqolat «Rostlik ta'rifida» bo'lib, Durrojning yolg'onchiligi haqidagi hikoyat keltiriladi va Navoiy Jomiyi ustoz sifatida, bir buyuk so'fiy sifatida hurmat qiladi. Uning ijodiga yuksak baho beradi.

Navoiy shunday yozadi:

Ko'ksi haqoyiq duri ganjinasi

Ko'ngli maoniy yuzi oinasi.

28

Navoiy o'z asarida XV asrdagi adabiy hayot manzarasini tasvirlaydi. Shu davrdagi barcha shoirlarni o'z tazkirasida aks ettirishga harakat qiladi. Endigina kirib kelayotgan shoirlarga ham e'tibor beradi. «Mavlono Sifotiy - emdi paydo bo'lg'onlardandir, faqir hanuz ko'rmaydurmen, ammo she'rin eshitibmen».

«Majolis un-nafois» XV asrda ko'plab kishilar she'riyat bilan shug'ullanganligini ko'rsatadi. Kosiblar, hunarmandlar, ustalar, naqqoshlar, sozandalar, hofizlar, olimlar, shohlar, turli amaldorlar ham she'riyat bilan shug'ullanganlar. Asardagi dehqonlar orasidan chiqqan shoirlar qayd etilmagan. Bediliy va Mehri Hirotiy kabi ayollar ijod qilgani haqidagi ma'lumotlar mavjud. Muhtoj /Muflisiy/, shohlar ta'qibiga uchragan /Shoh Badaxshon, o'g'li Shoir La'liy, Mavlono Husayn Xorazmiy, Mavlono Jannatiy kabilar/ Shoirlar haqida ham ma'lumot beriladi. Navoiy XV asrda xamsachilik an'alarini davom ettirgan Mavlono Ashraf, Ali Ohiy, Mavlono Kotibiy, Mavlono Faseh Rumiy, Xoja Hasan Xizrashoh, Xoja Imod kabilar haqida ham ma'lumot beradi. «Majolis un-nafois»da shoirlarning hayoti va ijodiga doir qimmatli ma'lumotlar ham berilgan. Muallif Qosim Anvor, Pahlavon Muhammad, Mavlono Kotibiy, Lutfiy, Atoyi, Husayn Xorazmiy kabilar haqida kengroq ma'lumotlar beradi. Mavlono Lutfiy haqida Shunday yozadi: «Mavlono Lutfiy - o'z zamonining malikul-kalomi erdi, forsi va

turkida naziri yo'q erdi, ammo turkida shuhrati ko'prak erdi va turkcha devoni mashhurdir va mutaazziruljavob matla'lari bor, ul jumladin biri budurkim:

Nozuklik ichra belicha yo'q tori gisuyi,
O'z haddini bilib, belidin o'tlurur quyi.

Yana biri budurkim:

Sayd etti dilbarim meni oshufta sochdin:
Soldi kamand bo'yinima ikki qulochdin.

Va Mavlononing «Zafarnoma» tarjimasida o'n ming baytdin ortiqroq masnaviysi bor, bayozga yozmagan uchun shuhrat tutmadi va lekin forsida qasidago'y ustodlardin ko'pining mushkul she'rlariga javob aytibdur va yaxshi aytibdur. To'qson to'qqiz yashadi. Mavlononing qabri shahr navohisida Dehi Kanordakim, o'z maskani erdi, andadur». «Majolis un-nafois»da Navoiyning o'z hayoti va faoliyati haqida ham qimmatli ma'lumotlar bor. U orqali biz Navoiyning 3-4 yoshlarida Qosim Anvorning she'rlarini yod olganini, 10-12 yoshlarida keksa shoir Mir Shohiy bilan xat yozishganini, Taftda Ali Yazdiy bilan uchrashgani, Darvesh Mansuridan aruz o'rgangani, Xoja Yusuf Burhondan musiqadan ta'lim olgani, Fazluloh Abu Laysdan Samarqandda ikki yil saboq tinglagani, Mashhadda Hasan Ardasher bilan do'stlashgani, tog'alari Qobuliy va G'aribiylar, ularning Abusaid tomonidan qatl etilgani kabilarni bilib olamiz.

Asarning 8-majlisi Husayn Boyqaroga bag'ishlangan. U shoir ham edi. Navoiy unga yuqori baho beradi. «Majolis un-nafois»ning ta'sirida keyingi asrlarda ham qator tazkiralari yaratildi. Malehoning «Muzakkir ul-ashob» /«Suhbatdoshlar zikri»/, Hasan Nisoriyning «Muzakkir ul-ahbob» /«Do'stlarning tuhfası»/ Vozihning «Tuhfat ul-ahbob» /«Do'stlarning tuhfası»/, Fazuliyning «Majmuat ush-shuaro» asarlari shular jumlasidandir.

61

Turfaroq ulkim, tonirimni bilib,
Haqdan uyalmay, manga zohir qilib
Vahki manga jilvagar aylar chog'i,
Istabon ehson dog'i, tahsin dog'i...

Navoiy badiiy ijodda mazmun va shaklga alohida e'tiborni qaratdi. Navoiy o'z davridan kelib chiqqan holda nazmni nasrdan yuqori qo'yar, she'riy shaklga katta ahamiyat beradi. She'r mazmuni bilan ham, shakli bilan ham go'zal bo'lishi kerak, deydi Navoiy:

Nazmda ham asl anga ma'ni durur,
Bo'lsun aning surati har ne durur.
Nazmki ma'ni anga marg'ub emas,
Ahli maoniy qoshida xub emas.
Nazmki ham surat erur xush anga,
Zimnida ma'ni dog'i dilkash anga.

Navoiy xalqning ma'naviy boyliklariga, xalq og'zaki ijodiga katta e'tibor beradi. Xalq og'zaki ijodi duru gavharlarga to'la poyonsiz va tubsiz bir dengizdir:

...Ki bu bahr ichrakim poyon anga yo'q,
Etishmak qa'riga imkon anga yo'q.
Etishgan el necha olg'on ermish,
Ne oliy qadr durlar qolg'on ermish...

Navoiy turli adabiy janrlarni ta'rif va tavsif etadi. G'azal, qit'a, ruboiy, tuyuq, dostonchilikka alohida e'tibor beradi.

Navoiy «Majolis un-nafois» tazkirasini birinchi marta 1491 yilda tuzdi. U asarga juda ko'p yangilik va yuzdan ziyod shoirlar, adabiy dalillar, she'riy parchalar kiritib, 1497-1498 yillarda qaytadan yaratdi.

«Majolis un-nafois» o'zbek tazkirachiligiga asos bo'ldi. Ma'lumki, bungacha Davlatshoh Samarqandiy «Tazkirat ush-Shuaro»ni, Jomiy «Bahoriston»ning 7-ravzasini yaratgan edilar. Mavjud tazkiralarda fors-tojik adabiyoti namoyondalari haqida fikr yuritilardi. Navoiygacha turkiy tilda asarlar yozgan shoirlar nomlari zikr etilgan tazkiralarda zarur edi. «Majolis un-nafois» bu talabni amalga oshirdi.

Asarning muqaddimasida Navoiy shunday yozadi: «...chun bu maqsudga etildi, oni sekkiz qism etildi va har qismi bir majlisga mavsum bo'ldi va majmuiga «Majolis un-nafois» ot qo'yildi».

«Majolis un-nafois» /«Go'zal majlislar»/ /«O'zbek adabiyoti» darsligida «Nozik didlilar yig'ilishlari» deb berilgan /da shoirlar xronologiyasiga /1,11,111/, hududiga /IV/, kasb-kori va mansabiga /V, VI, VII, VIII/ qarab sakkiz majlisga-bobga taqsimlangan. «Asarda 459 shoir: 1 majlisda -46,11 majlisda -91, 111 majlisda - 175, IV majlisda -72, V majlisda -21, VI majlisda -31, VII majlisda -22 shoir va VIII majlisda Husayn Boyqaro zikr etilgan.

An'anaga ko'ra, Navoiy «Majolis un-nafois»ni «Tabarruk qilmoq uchun» shayxlardan «Xoja Qosim Anvor zikri bilan» boshlaganini ta'kidlaydi.

60

Nazmi aholini jahonni tutib,
Nasri dog'i kishvari jonni tutib.
Fayzi gadovu shoh aro muntashir,
Xidmatiga shohu gado muftahir.

Navoiy «Hayratul - abror»da yashagan davrining ijtimoiy-siyosiy masalalariga keng o'rin beradi. Shoir turli tabaqa kishilariga munosabat bildiradi. Asardagi ko'pgina hikoyatlar orqali o'z mulohazalarini bayon etadi. Navoiy asarlarida podsholarga alohida e'tibor beradi. Odil shohlar, zolim, adolatsiz podshohlar haqida gapiradi. Asarning uchinchi bobi «Salotin bobida...» deb nomlanadi. Navoiy davlat boshlig'i, odil, oqil, el-yurtga g'amxo'r bo'lishi kerak deydi:

Bo'ldi raiyat g'alavu sen shubon
Ul shajari musmiru sen bog'bon
Qo'yni shu bon asramasa oyu yil,
Och bo'ri tu'masidur bari bil.

Bo'rini dog'i galadin dur qil,
Suv beribon bog'ni ma'mur qil...

Uchinchi maqolatga ilova qilingan «Shoh G'oziy» hikoyatini olaylik. Ma'lumki bu maqolatda adolatsiz shohlar, zo'ravon amaldorlar hamda ularning el-yurtga qarshi qaratilgan faoliyatlari ayovsiz fosh etiladi. Butun maqolat zahirida adolat va xalqparvarlik ulug'lanadi. Hamda odil, insofli hukmdor masalasi tashviq qilinadi. Maqolatga ilova etilgan «Shoh G'oziy» hikoyatida esa xuddi shunday odil shoh obrazi chiziladi. Hikoyat garchi tarixiy shaxs Sulton Husayin Boyqaro nomi bilan bog'liq bo'lsa-da aslida, xalq ertaklarini eslatadi. Emish, H.Boyqaro Xuroson taxtini egallagach, mamlakatni adolat bilan boshqargan, yurtida tartib-intizom o'rnatib, zulm zo'ravonliklarga to'la barham bergan:

Adl eshigin elga kushod ayladi,
Taxt uza o'ltirdiyu dod ayladi.
Tuzdi buzuqlarni imorat bila,
Zulmni daf' etti adolat bila...

Shaharni sayr qilib yurgan H.Boyqaroning etagini bir kampir tutib, qozi yoniga olib keldi. Urush yillarida yagona o'g'lini o'ldirganini aytadi. Qozi - adolat timsoli. Ikki guvoh oldida hukm chiqarishini aytadi. O'g'li xuni evaziga yo bosh, yo zar-oltin olishni hukm qiladi. Kampir xalq orasida «Zoli zar» - «Tilla kampir» laqabi bilan shuhrat qozonadi.

«Hayratul-abror»ning 19 maqolatiga ilova etilgan hikoyatda ham hukmdor obrazi ko'tarilgan. Hikoyat avvalida Bahromning shohlik burch-vazifalarini unutib, aysh-ishratga berilishi, undan «ibrat» olgan amaldorlarning esa mulkni vayron etishi haqida so'z boradi. Hikoyatda tasvirlanishicha, Bahrom ovda adashib bir kapaga kelib qoladi. Kapa egasi yeyish, ichish, kiyishiga narsasi qolmagan qashshoq kishi. Kapa sohibi shohni tanimay amaldorlar zulmini nafrat bilan gapiradi.

Dedi: - Burun yaxshi edi holimiz
Zulm xarob ayladi ahvolimiz...

Bahrom o'z qilmishlaridan afsuslanadi zulmga barham beradi.

29

Navoiy «Hayratul-abror»ning bir necha bobini axloq-odob, ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlaydi. Beshinchi maqolat baxillik va saxovatga bag'ishlanadi. Saxiylilikni ulug'laydi. O'z fikrini to'laroq ifodalash uchun Hotam Toyi hikoyasini keltiradi. (Hikoyat tahlil etiladi).

«Hayratul-abror»ning 6 maqolati odobga bag'ishlangan. Muomala, bola tarbiyasi, o'zni tutish haqida gapiriladi:

Tarki odobdin biri kulgu durur
Kulgu adab tarkiga belgu durur
Kulguki o'z haddidin o'ldi yiroq
Yig'lamoq andin ko'p erur yaxshiroq.

Yoki:

Boshni fido ayla, ato qoshiga,
Jismni qil sadqa ano boshiga.
Ikki jahoningga tilarin fazo-
Hosil et ushbu ikisidin rizo.

Tun-kununga aylagali nurposh,
Birini oy angla, birini quyosh.

Alisher Navoiy vafu va sadoqatni ulug'laydi. Vafodorlikni, uning kuchini ko'rsatadi. Sevgisiz hayot yo'q. Vafu esa sevgining shartidir:

Bas kishiga umr xushi Yor emish,
Umr degan Yori vafodor emish.
Yorki, oyni vafu yo'q anga,
Sham' kibidurki, ziyo yo'q anga.

«Hayratul-abror»ning 8 maqolati shu masalaga bag'ishlangan. Undagi «Ikki vafoli Yor...» haqidagi hikoyati alohida diqqatga sazovordir. (Hikoyat tahlil etiladi).

Navoiy rostgo'ylik, yolg'onchilik masalalarida ham keng to'xtalgan «Xamsa»da bir necha hikoyatlar bor. «Hayratul-abror»ning X maqolati shu masalaga bag'ishlangan. «Sher bilan Durroj» hikoyasi e'tiborga loyiq. (Hikoyat tahlil etiladi).

Dostonning XI bobi ilmga, ilm-fan ahliga bag'ishlangan. Ilm ahlini ulug'laydi. Maqolatdan so'ng «Imom Faxr Roziy bilan Sulton Muhammad Xorazmshoh» haqidagi hikoyat keltiriladi. (Hikoyat tahlil etiladi).

«Hayratul-abror»da Nizomiy Ganjaviy, Dehlaviy, Jomiy kabi ustozlar haqida mulohazalar beriladi. Ular ulug'lanadi. YUksak baho beriladi.

Bulardan tashqari, dostonda «So'z ta'rifida...» «Ko'ngul ta'rifida...» kabi boblar ham borki, ular chuqur falsafiylik bilan ajralib turadi.

So'z haqida:

Til bu chamanning varaqi lolasi,
So'z duraridin bo'libon jolasi.
So'zdin o'lukning tanida ruhi pok
Ruh dog'i tan aro so'zdin halok.
Donai dur so'zini afsona bil
So'zni jahon bahrada durdona bil.

Navoiy so'z haqida gapirar ekan, iste'dodli shoirlarni ham tilga oladi. So'zni to'g'ri ishlata bilmaganlarni qoralaydi:

Zohir etib yig'lagudek hol anga,
Kiydurubon eski qora shol anga.

30

A D A B I Y O T L A R:

1. N.M.Mallayev. «O'zbek adabiyoti tarixi». 1-kitob. T., 1963.
2. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 2-tom. T., 1978.
3. Alisher Navoiy. «Majolis un-nafois». T., 1961.
4. Alisher Navoiy. Asarlar. 15 tomlik. 13-tom.
5. «O'zbek adabiyoti». 4 tomlik. 2 tom. T., 1959.
6. R.Vohidov. «Majolis un-nafois» tarjimalari». T., 1984.
7. U.To'ychiYev. «O'zbek poeziyasida aruz sistemasi». T., 1985.
8. S.G'anieva. «Davriy adabiy hayoti ko'zgusi». T., 1961.
9. O'zbek adabiyoti. 10-sinf. Darslik. T., 1999.

Navoiy ko'p qirrali san'atkor. U Shoir sifatida qanchalik shuhrat topgan bo'lsa, davlat arbobi, tilshunos va adabiyotshunos sifatida ham shunchalik mashhur va taniquddir. Navoiy so'z san'atining turli masalalariga doir fikrlari bilan ham, adabiy yodgorliklari va zamondoshlari asarlariga doir mulohazalari bilan ham badiiy adabiyotning ravnaqi uchun xalqqa xizmat qilishi uchun harakat qiladi.

Alisher Navoiy adabiyotshunoslikka doir uch asar yaratdi. Bular: «Majolis un-nafois», «Mezon ul-avzon» va «Mufradot». XV asr adabiy hayotining ma'lum bir ko'zgusi bo'lgan «Majolis un-nafois»da Navoiy 450 dan ko'proq shoirning hayoti va ijodi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Aniq misollar asosida shoirlar asarlaridagi yutuq va kamchiliklarini ko'rsatib beradi. «Mezon ul-avzon» esa adabiyot nazariyasiga oid asar bo'lib, unda Navoiy aruz vazni haqida bahs yuritib, aruz nazariyasini boyitdi va rivojlantirdi. «Mufradot» /ikkinchi nomi «Risolayi muammo»/ muammo janriga bag'ishlangan asar bo'lib, bu asarida Navoiy muammo janrining xususiyatlari va qoidalarini yoritdi. Navoiy zamonida muammo janri keng tarqalgan bo'lsada, asosan, fors tilida yozilar edi. Navoiy o'zbek tilida muammo yozgan ilk o'zbek shoirlaridan bo'ldi. «Xazoyin ul-maoniy»ga uning 52 muammosi kiritilgan. Fors tilidagi muammolarini esa 500 ta chamalaydilar. Shoir muammoni tuzish va yechish qoidalariga bag'ishlangan ushbu asarini forscha yozdi.

Navoiy ko'plab yosh shoirlarning, san'at ahlining homiysi, ustози edi. U badiiy adabiyotga talabchanlik bilan munosabatda bo'ldi. Shoir qalam ahlari bilan turli suhbat va munozaralar uyushtirar, ularning asarlaridagi yutuq va kamchiliklarni ko'rsatar edi. Navoiy ko'pgina asarlarida adabiyot va hayot, adabiyot va til, shakl va mazmun, adabiy an'analar, yozma adabiyot va xalq og'zaki ijodi, adabiy janrlar va boshqalar haqida mulohaza yuritadi, so'z san'atkorlari haqida bahs etadi.

Navoiy badiiy adabiyotning inson hayotidagi, ma'naviyatidagi ahamiyatini teran anglaydi. Uningcha, badiiy adabiyot kitobxonlarning ongi, hissi va didiga ijobiy ta'sir qilishi kerak.

Navoiy xudbin, didsiz va qobiliyatsiz shoirlarni, maqtanchoq, ma'nisiz nozimlarni qattiq tanqid qiladi. «Hayrat ul-abror»da shunday shoirlar haqida yozadi:

... Turfa bukim, she'r qo'yub otini,
Yetkurubon ko'kka mubohotini.

59

lik, chin insoniy fazilatlar to'g'risida xalq tajriba va bilimining qaymog'i sifatida yig'ilgan fikrlar, shuningdek, Navoiyning hayoti davomida to'plangan xulosalari keltirilgandir.

Shoir o'z fikrlarini «Tanbeh» sarlavhasi ostida beradi. Nafs qoralanadi. Bir «Tanbeh»da Shunday deyiladi: «Kamtar odamlar ko'p gapirishdan qochadilar, ular ko'p eshitmoqni istaydilar va yoqtiradilar. Eshitmoq kishini boyitadi, ko'p gapirmoq sayozlatadi. Ko'p gapirgan - ko'p yanglishadi. Ko'p egan - ko'p yiqiladi. Tan kasalining asosi-ko'p emakdir, qalb kasalining sababi ko'p demakdir...»

Takaburlik, ehson foydasi, saxovat va himmat, muruvvat, vafo, hilm-muloyim tabiatlik, ilm, tilga e'tibor, yolg'onchi, nodonlar, sabr, qanoat, tama, may ichish, so'z odobi, qarilik, safar qilish foydasi va boshqalar haqida o'ziga xos tanbehlar beriladi.

Bir tanbehda shunday yoziladi: Oz gapirmoq - hikmatga sabab, oz yemoq sog'likka sabab . Og'ziga kelganini demoq-nodonning ishi va oldiga kelgani yemoq - hayvonning ishi.

Bayt:

Ko'p demak birla bo'lmagil nodon,
Ko'p Yemak birla bo'lmagil hayvon.

Navoiy xalq og'zaki ijodini yaxshi biladi. Asarlarida undan keng foydalandi. «Mahbub ul qulub»da ham xalq maqollaridan keng foydalangan. O'zi ham shu ruhda hikmatli so'zlar yaratdi. Ularning ko'pchiligi maqolga aylanib ketgan. Asardagi «Ko'p degan ko'p Yengilur, ko'p Yegan ko'p yiqilur», «Vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafo yo'q», «Tilga ixtiYorsiz, elga e'tiborsiz», «Chin so'z mo'ttabar, yaxshi so'z muxtasar», «o't ishi qovurmoq va el ishi sovrurmoq» kabilar shular jumlasidandir.

«Mahbub ul qulub»da turli badiiy vositalar, she'riy parchalar, kichik hikoyalar, maqol va hikmatli so'zlar keng ishlatilgan. Asarda og'zaki ijodiga xos saj' qo'llanilgan.

Professor A.Hayitmetov «Chinakam bezak» nomli maqolasida shunday yozadi: «Alisher Navoiyning «Hayrat ul abror», «Nazmul-javohir», «Mahbub ul qulub» asarlarining har biri bir «Odobnoma», har biri bir hilm va hayo bo'stonidir. Til va adabiyot darslarida, tarbiya soatlari o'qituvchilarimiz, tarbiyachilarimiz ulardan to'liq foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.» (A.Hayitmetov. Adabiy merosimiz uqlari. T., 1997. 225-bet). Biz ham olimimizning ushbu fikrlarini to'la quvvatlaymiz.

M A V Z U: NAVOIY – ADABIYOTSHUNOS.

R E J A:

Kirish.

1. Navoiy - adabiyotshunos.
 2. «Majolis un-nafois».
 3. Asarda adabiy hayot, tarjimai hol xarakteridagi ma'lumotlar.
 4. «Mezonul-avzon»da aruzga doir ma'lumotlar.
- Xulosa.

58

Turfa bukim, she'r qo'yub otini,
Etkurubon ko'kka mubohotini.
Turfarog' ulkim, tonirimni bilib
Haqdin uyalmay, manga zohir qilib
Vahki manga jilvagar aylar chog'i,
Istabon ehson dog'i, tahsin dog'i
Ko'nglumga ko'p tig'i jafu urdilar
Dema ko'ngul, jonima tekurdilar.

Navoiy «Hayratul-abror»da badiiy til unsurlaridan keng foydalanadi. Dostonda hikmatli so'zlar, xalq maqollari, xalq ijodining boshqa turlari ko'p uchraydi.

Tor ini sichqonga solib erdi g'am,
Tuyruqiga bog'ladi g'irbol ham.

Doston masnaviy yo'lida yozilgan.

M A V Z U: «FARHOD VA SHIRIN»

R E J A :

Kirish.

1. «Farhod va Shirin» tarixiga doir.
2. «Farhod va Shirin» dostoni.
3. Dostondagi asosiy masalalar.
4. Dostonda Navoiyning ishq-muhabbat, insonparvarlikka doir qarashlari.
5. Dostondagi obrazlar.
6. «Farhod va Shirin»da badiiy - tasvir vositalari.
7. «Farhod va Shirin»ning xalq variantlari.

X u l o s a.

A D A B I Y O T L A R:

1. Darsliklar.
2. A.Navoiy. Xamsa. Toshkent. 1986.
3. A.Navoiy. Mukammal asarlar to'plami, 20 jildlik. 8-jild. Toshkent. 1991.
4. A.Navoiy. Farhod va Shirin. Toshkent. 1990.
5. A.Navoiy. Farhod va Shirin. Nasriy bayon. Toshkent. 1975.
6. T.Jalolov. Xamsa talqinlari. Toshkent. 1968.
7. N.Mallayev. A.Navoiy va xalq ijodiyoti. T. 1974.
8. Sodir Erkinov. Navoiyning «Farhod va Shirin»i va uning qiyosiy tahlili. Toshkent. 1971.
9. A.Qayumov. Farhod va Shirin sirlari. T. 1978.
10. A.Hayitmetov. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. Toshkent. 1996.
11. N.Komilov. Tasavvuf. 1 kitob. Toshkent. 1997.
12. A.Abdug'afurov. Buyuk beshlik saboqlari. T. 1995.
13. S.Hasanov. Navoiyning yetti tuhfası. T. 1996
14. Navoiyning ijod olami. T. 2001.

«Farhod va Shirin» «Xamsa»ning ikkinchi dostoni bo'lib, u 1484 yil yozilgan. «Farhod va Shirin»- ishqiy - sarguzasht doston. Bu doston syujetiga xalqimiz orasida mashhur

31

bo'lgan Farhod va Shirinlar muhabbati asos qilib olingan. Xalq og'zaki ijodida bu syujet keng ishlangan. «Farhod va Shirin» haqidagi qissalarni Markaziy Osiyo, Kavkaz, YAqin va O'rta Sharq xalqlari adabiyotida uchratish mumkin. Farhod obrazini ko'pincha Erondagi Besutun tog'i bilan bog'liq holda tasvirlash keng an'ana tusini olgan. Ba'zi rivoyatlarda Farhodning shu tog'da o'yib ishlangan surati haqida gap boradi. Ayrim hollarda shu suratlarni Farhodning o'zi chizgan deyiladi. Ba'zi afsonalarda Farhod Sirdaryoni to'sib cho'llarga suv yo'lini ochishga kirishgan qahramon sifatida tasvirlansa, Ozarbayjon Yoki Turkiya qissalarida u o'sha yerlarga yaqinlashtiriladi. O'zbekistonda Bekobod yaqinidagi Farhod tog'i, uning yaqinidan oqib o'tuvchi Shirin soyi haqida gap borsa, Xorazm va Turkmaniston yerlarini tutashtiruvchi Qoraqum sahrosidagi Farhod qurgan Devqal'a haqidagi afsona keltiriladi. Prof. S.Tolstovning

«Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab» asarida bu haqda gap boradi. Farhod Xorazm shohining qizi Shiringa oshiq bo'ladi. Shoh unga qal'a qurishni buyuradi. (Farhod obrazi, uning evolyutsiyasi haqida S.Erkinovning «Sharq adabiyotida Farhod qissasi» kitobiga nazar solish zarur).

YOzma adabiyotda esa Firdavsiy «Shohnoma» asarida Xusrav va Shirin haqida yozadi.

Xisrav va Shirin, Sheruya obrazlari tarixiy ildizga ega. G'. Aliyev Xisrav va Shirin taalluqli manbalarni ikki guruhga ajratadi. Birinchi guruhga Vizantiya tarixchisi Feofilakt Simokattaning «Tarix» kitobini, Sebeos asari va Suriya xronikalarini, 2-guruhga arab-fors manbalarini - Johiz, Tabariy, Ibn al-Faqix, Val`amiy, Saolibiy, YOqut asarlarini kiritadi.

Qadimgi manbalarning Xisrav haqidagi ma'lumotlari deyarli musharakdir. Ammo Shirin haqidagi ma'lumotlarda, uning el-yurti haqida bir muncha farqlar bor. Simokattaning ma'lumoticha, Sira (Shirin) rumolik xristiyondandir. Xisrav shaxanshohlar an'anasini buzib, xristian qiziga uylanadi. Bu saroy ahli va zodagonlarning noroziligini tug'diradi. Faqat bir yildan keyingina Shirin saroy malikasi sifatida e'tirof etiladi. Arman tarixchisi episkop Sebeos Xisrav Parvez saltanatiga bag'ishlangan «Shoh Xisrav»ning xotini malika Shirinning olijanoblighi haqida» bobida Shirinni xristian qizi, uning yurtini Xujiston (Xuziston) deb ma'lumot beradi. Muallifi nomalum Suriya xronikalarida esa Sira (Shirin) eroniylardan degan ma'lumot beriladi. Shu manba Xisravning boshqa bir xotini - Mariyam (u ham xristian qizi) nomi zikr etiladi. E.Bertel's manbaning aslida «oromiy» emas, balki «armani» yozilgan bo'lishi mumkin. U holda Yaqin Sharqdagi an'analarning Shirinni «armani» deb hisoblash sababi oydinlashadi deydi.

Ikkinchi guruhdagi manbalar tarix dalillari va rivoyat-afsonalarni to'plagan manbalar sifatida qimmatli bo'lib, Xisrav va Shirin haqida to'laroq tasavvur uyg'otadi. Dastlabki afsonalarda va rivoyatlarda Xisrav va Shirin, ularning sevgisi, Xisravning Shiringa uylanishi, saroy qarshiligi, Xisravning o'ldirilishi kabi tomonlar hikoya qilinsa, keyinchalik Farhod va Besutun, qasr va ariq, ot Shabdiz, qo'shiqchi Barbod, Mariyam va Shirinning rashk-raqobati kabi voqealar qo'shiladi. Farhod nomi birinchi bor «Tarixi Tabariy»da zikr etilib, uning Shiringa oshiq bo'lgani uchun Besutun tog'ini kesgani hikoya qilinadi. Yozma adabiyotda birinchi bor N.Ganjaviy «Xisrav va Shirin» dostonini yaratdi.

32

xushmuomala bo'lsa - jon ozig'idir. Xotin yomon bo'lsa, tili achchiq, behayo, dilozor bo'lsa, oilada ko'ngilsizliklar bo'lishini ta'kidlaydi.

«Mahbub ul qulub»ning ikkinchi qismi asosan ahloqiy masalalarga bag'ishlangan. 10 bobdan iborat bu qismda yaxshi fazilat va yomon xislatlar tahlil etiladi. Shoir «Tavba», «Qanoat», «Sabr», «Ta'voze va odob», «Ishq» to'g'risida mulohazalar yuritadi.

Shoir nazarda, «Tavba-gunohkor bandaning ko'ngil ko'zgasini gunoh zangidan tozalaydi. Tavba-baxtsizlik yo'lining oxiri va to'g'rilik yo'lining boshlanishidir... qabih ishlar, sharmandalik va rasvogarchilik tufayli xijolatga qolishdan ogoh bo'lmoqdir...

Tavba-haqdan najot tilash vaqti kelganidir, bandaning nafsga tobe bo'lishini tark etganidir.»

Qanoat masalasida ham Navoiy e'tiborli mulohazalar bayon etadi. «qanoat bir chashmadirki, olgan bilan uning suvi qurimaydi. Qanoat bir cho'qqiki, unga chiqsang do'st-dushmanga muhtojlikdan xalos bo'lasan. Qanoat ekindir, urug'i boylik, daraxtdir-mevasi muhtojtsizlik... Shoir ushbu bobda tavbaning ahamiyati, tamagirlikning yomon oqibatlari haqida fikrlar bildiradi.

O'zbek mumtoz adabiyotida sabr haqida ham ko'p gapiriladi. Uning foydasi, inson hayotidagi ahamiyati haqida anchagina yozilgan. Navoiy ham «Mahbub ul qulub»ning ikkinchi qismida sabrga alohida o'rin bergan. «Sabr-achchiq, ammo foyda beruvchi, u - qattiq, ammo ziyon-zahmatni daf etuvchi. Sabr shodliklar kalitidir. Sabr - ulovdir - sekin yuradigan, ammo manzilga eltuvchidir. Sabr tuyadir-og'ir qadam, lekin bekatga olib boruvchidir. Sabr-nasihatgo'y, tabib...»

Shoir sabr haqida gapirar ekan, o'z fikrlarining dalili sifatida bir hikoyat keltiradi. Unda aytilishicha, bir yigit go'zal qizga oshiq bo'ladi. Yigit tuhmat bilan zindonga tushadi. Uni urib azoblaydilar. Gunohni bo'yniga olishni so'raydilar. U iqror bo'lmaydi. Kaltak zarbidan badani go'shtlari titilib ketadi. Atrof lolazor /qon/ bo'ladi. Majbur bo'lib uni qo'yib yuboradilar. Uning og'zida maydalangan tanga parchalari chiqadi. Odamlar buning sababini so'raganlarida, odamlar orasida o'sha qiz borligini ko'rgani, unga azob berayotganlarida tangani og'ziga solib oladi, ma'shuqasi oldida o'zini tutganini aytib beradi. Qiz uning yoniga kelib shirin so'zlar aytadi. Yigit uchun bu katta baxt edi. Navoiy bu asarida ishq haqida ham mulohazalar yuritadi. Ishqni uchga ajratib tavsiflaydi. Birinchi ishq avom ishq. Bu ishq keng tarqalgan bo'lib, uning oliy martabasi sha'riy nikohdir. Ikkinchi qism - alohida fazilat egalariga xos ishq bo'lib, bu xos ishqqa mansub shaxslar pok ko'zni pok niyat bilan yuzga soladilar va pok ko'ngil u pok yuzning shavqi-zavqi bilan beqaror bo'ladi.

Shu o'rinda yana bir hikoyat keltiriladi. Majnun va Laylining ishq, Majnunning ishq azobida jon qolmagan vujudiga Laylining xati tumor va duo o'rnini bosib Majnunni qayta hayotga qaytargani aytiladi.

Uchinchi qism - siddiqlar - haqgo'ylar ishq bo'lib, ular Haqining jamolini ochiq ko'rish umidi bilan yashaydilar.

«Mahbub ul qulub»ning uchinchi qismi «Turli foydali maslahatlar va maqollar» deb nomlanadi. Har xil foydali pandlar hamda hikmatlarni o'z ichi ga oladi. Unda odam va odamiy-

Asarning birinchi qismi turli ijtimoiy guruh va tabaqalarning tasnifi va ta'rifiga bag'ishlangan. 40 fasldan iborat. Birinchi fasl «Odil podshohlar haqida». Shoir adolatli podshohni quyosh, bahor yomg'iridek qora tuproqqa gullar ochadigan, kambag'al va bechora odamlar rohatda, zolim amaldorlar qo'rquv va, o'g'ri va qaroqchilardan xalq omonda, ayollar tinmaydi, kampirlar duoda, olimlar uni ta'riflab risolalar bitadi, shoirlar uning go'zal sifatlarini maqtab qasidalar yozadi, xonandalar uni kuylashadi.

Navoiy «zolim, johil, fosiq podshohlar to'g'risida» /4 faslda/ ham mulohaza yuritadi. Adolatli shoh yorug' ko'zgu, yorug' tong bo'lsa, zolim podshoh qorong'u kecha. Nohaq qon to'kishlik unga hunar, kimki joni bor, undan qo'rqrar. «O'ldurmoq uchun jon bermog uning shiori, elning molu joniga qasd qilmoq uning shikoridir».

Navoiy bu fasllarda, ya'ni birinchi qismda yana beklar, noyiblar, vazirlar, diyonatsiz sadrlar, maqtanchoqlar, yasovul, lashkar, qora cherik, shayxulislom, qozilar, muftilar, mudarrislar, tabiblar, kotiblar, maktab ahli, ashulachi va cholg'uchilar, qissa to'quvchilar, nasihatgo'y va va'zxonlar, munajjimlar, savdogarlar, mirshablar, hunarmandlar, dehqonchilik to'g'risida, bezori va razillar, g'arib va bechoralar, shilqim gadolar, qushchi va ovchilar, uylanish va xotinlar to'g'risida, riyokor shayxlar va boshqalar haqida to'xtalib o'tadi. Navoiy «Nazm gulistonining xushovoz qushlari /Shoirlar/ to'g'risida alohida hurmat bilan yozadi.» Ular bir necha guruhdir. Birinchi guruhi- ilohiy ma'rifat xazinasi javohirlari bilan boyigan va xalqning ta'rifiga ehtiyoj sezmaganlar... Mana shu aziz va sharofatli zotlar guruhining eng ulug' peshvosi va eng birinchisi.. hazrat Alidirlarkim... U jumladan: forsiy ibora bilan sirlar javharini tizuvchi shayx Fariduddin Attor, «Masnaviy»ni yozuvchi, yaqinlik dengizining suvchisi Mavlono Jaloliddin Rumiylardir. Bularning she'r yozishdan maqsadi ilohiy sirlarni bayon qilmoq va cheksiz ma'rifat tarqatmoqdir.

Yana bir guruh shoirlar borkim, ular haqiqat sirlariga majoz sirlarini aralashtirib, o'z fikrlarini shu uslubda ifoda etibdurlar. Chunonchi, ma'no ahli so'z pardozechisi Sa'diy Sheroziy, Amir Xisrav Dehlaviy, Shayx Sanoiy, Shayx Avhadiddin, Xoja Shamsiddin Muhammad Hofiz.

Yana bulardan boshqa bir guruh bo'lib, ularning ko'pchilik asarlari majoziy ma'nodadir. Ulardan Kamol Isfaxoniy, Xoqoniy, Shirvoniy, Xoju Kirmoniy, Xoja Kamol, Anvariyy, Salmon Sovajiy, Nosir Buxoriy, Kotibiy Nishopuriy... («M.q.», 26-27-betlar)

«Maktab ahli to'g'risida» faslida Navoiy maktabdor domlalariga baho beradi. Ularning og'ir ishini ta'kidlaydi. «Ularning ishi odam tugul, hatto devning ham qo'lidan kelmaydi», - deydi. Shoirning hammamiz yod olgan ushbu mashhur bayti ham Shu qismda keltirilgan:

Haq yo'lida kim sanga bir harf o'qutmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Asardagi «Uylanish va xotinlar haqida»gi fasl ham e'tiborlidir. Unda uylanish, oila va ayollarning o'rni borasida gap boradi. «Yaxshi xotin - oilaning davlati va baxti. Uyning oroyishi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Husnli bo'lsa - ko'ngil yozig'i,

Xisrav-Sosoniyy podshohlardan bo'lgan Anushervonning nabirasi. Xusrav Parvez 590 yil taxtga chiqqan, 628 yilda Sheruya tomonidan o'ldirilgan.

Ko'pgina manbalarda Shirinning ham tarixiy shaxs bo'lganligi ta'kidlanadi. U Xusravning sevikli xotini bo'lgan ekan.

Olimlarning ta'kidlashicha Xisrav va Shirin obrazlari qatoriga X asrga kelib Farhod obrazi paydo bo'ladi.

Qutb «Xusrav va Shirin» dostonini yozgan. Bu doston syujeti Eron, Ozarbayjon, turkiy xalqlar orasida keng tarqalgandir.

A.Navoiy «Farhod va Shirin» dostonida o'zining bir qator qarashlarini bayon etadi. Farhod va Shirinning ishqiy sarguzashtlari orqali majoziy va haqiqiy ishq haqida, insoniylik, ilm-hunar, go'zallik, xalqparvarlik, obodonchilik, mardlik va bahodirlik, vafo va sadoqat,

ma`naviy komillik kabi g`oyalarni tasvirlaydi. Shoir bu qarashlarini ko`proq dostonning bosh qahramoni Farhod obrazida mujassamlashtiradi.

Chin xoqonining farzandsizlik iztiroblari, Farhodning tug`ilishi, uning komil yigit bo`lib kamol topishi, uning ishq dardiga muhtalo bo`lishi, unga bag`ishlab 4 qasr qurdirishi, Farhodning shohlardan voz kechishi, sirli sandiq voqealari, uning Suqrot hakim bilan uchrashishi, dengiz safariga chiqishi, Shopur bilan tanishishi, Shirin va Mehinbonuning xabar topishi, Arman yurtiga suv chiqarish uchun tog`ni qo`porishi, Shirin bilan uchrashuvi, Xisravga asir bo`lishi, uning Xisrav bilan dialogi, Zoli Makkora tomonidan hiyla bilan mahv etilishi, Shirinning ham Farhod ishqida halok bo`lishi dostonning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Bugunga kelib tasavvufga doir bilimlar, tadqiqotlar anchagina yaratildi. Navoiy «Xamsa»sidagi dostonlar ham, yoki undagi Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Axiy, Farrux kabi obrazlar ham tasavvufiy nuqtai-nazaridan talqin etilmoqda. Bu sohada ayniqsa N.Komilov, I.Haqqulov tadqiqotlari, Abdusalom Abduqodirovning «Tasavvuf va Alisher Navoiy ijodiyoti» nomli doktorlik dissertatsiyasi xarakterlidir. Ushbu izlanishda Navoiyning ishqni uchga bo`lganligi: (avom ishq, xos ishq, sidiq ishq).

A.Navoiy «Lisonut-tayr»da Ollohga yetish yo`lini yetti bosqichda ko`rsatadi. «Farhod va Shirin» dostonida Farhod obrazi Shu bosqichlar asosida tahlil qilinadi.

Talab vodiysida Farhodga Suhaylo rahnamolik qiladi. Natijada unga ajdaho, ya`ni nafsdan, Axriman dev - saltanatga taslim bo`lishdan qutilish yo`lini ochib beradi. Farhod faqriga aylanadi. Farhodga Suqrot tog`i tilsimini ochishda Xizr Yordam beradi, u yerdagi to`siqlar ya`ni Arslon (qudrat timsoli), temir tilsimni (jilvagar dunyo timsoli) mag`lub etish yo`lini o`rganadi. Farhod Suqrotidan ishq darsini tingladi. Ishaq vodiysida kamolotga etib ma`rifat vodiysiga qadam qo`yadi. Bu vodiya haqni tanish, oriflik pog`onasidir.

Ma`rifatga etgan oshiqda o`zlikdan hech narsa qolmaydi va u istig`no vodiysiga qadam qo`yadi. Istig`nodagi mukamallik tavhidga ko`tarilish edi. Shundan so`ng tavhidga oliy maqomga erishganlar uchun hayrat yo`li ochiladi. Hayratdan so`ng haqqa qo`shilish fanosi boshlanadi. Haqiqiy ishq nasimi esib olloh vasliga yo`l ochiladi.

E.Ochilovning «Komillikning ikki yo`li» («Navoiyning ijod olami» kitobi. T., 2001) maqolasida:

33

Ikki oshiq-ma`shuqaning bir-biriga yetisholmasligi dunyoviy talqinga ko`ra qayg`uli hisoblansa, so`fiyona falsafaga binoan insonning bu dunyodagi hayotining o`zi g`amu hasrat. Ilohiy ishqqa urg`u berilishi mazkur dostonlarda («Farhod va Shirin», «Layli va Majnun») so`fiyona mazmun birlamchiligini ko`rsatadi.

Navoiyning o`zi ham pok ishqqa mansub bo`lib, shu orqali ilohiy muhabbatdan umidvorlik qilar edi. Shuning uchun ham u «Farhod va Shirin» hamda «Layli va Majnun» dostonlarida «alohida fazilat egalari xos» bo`lgan pok ishqning yuksalib, haqiqiy ishqqa aylanish jarayonini badiiy timsollar vositasida ko`rsatib beradi. «Farhod va Shirin» dostonida eng ko`p zikr etiladigan so`zlar bu-poklik va fano. Bu asarning pok muhabbatga bag`ishlanganligi va tasavvufga aloqadorligini yana bir karra tasdiqlaydi. (131- bet.)

Navoiy doston nihoyasida pok ishq tufayli Farhod pirovard - natijada Haqqa qovushdi, deydi:

Vujudin o`rtab otashnok ishq,
Solib o`t olam ichra pok ishq...
Vale vahdatda joni poki oning
Bo`lib Haq birla istihloki oning.

(132 - bet.)

Dostonlarda tasvirlangan to`siqlar, qarama-qarshiliklar bu-nafs xarxashalari, dunyoning jabru-sitamlari, ilohiy ishqdan bexabar johil olomonning ta`na-malomatlari. /133-bet/.

Suhaylonni Farhodning birinchi piri, deyish mumkin Suhayloning Farhodga o`zi bilgan narsalarni o`rgatib bo`lgach, uni Suqrot sari yo`llashi ham shayxlar shogirdlarini kuchliroq pirlarga tavsiya etishlari bilan bog`liq.

Xizrni Farhodning ikkinchi piri, deb qabul qilish mumkin, deb yozadi N.Komilov.

Farhodning ajdaho, Ahraman va temir paykarni yengganidan keyin jomi jahonnamoni qo`lga kiritishi ramziy ma`noda bo`lib, nafs va dunyo aloyiqlaridan qutilgan Farhod qalbining oyinai jahonnamoga aylanganiga ishoradir. Xoqon xazinasidagi Iskandar oyinasi ham aslida Farhodning o`z ko`ngli bo`lib, tariqat yo`lida ranju mashaqqat chekib, nafsoniy intilishlaridan voz kechib, ruhoniy fazilatlar kasb etgach, u ko`zguday porlab, hamma narsani o`zida aks ettiradi.

Farhod hayoti boshdan-oyoq majoziy ishqning haqiqiy ishqqa aylanish jarayonini o`zida aks ettiradi. Ilohiy ishq Farhodning zuvalasiga qo`shib qorilgan.

Firdavsiy «Xisrav va Shirin» dostonini rasmiy materiallar, afsona va rivoyatlar asosida yaratib, sosoniy Xisrav Parvezning shon-shavkatini ulug`ladi. Unda Mehinbonu, Shopur, Farhod kabi obrazlar yo`q edi. Nizomiy «Xisrav va Shirin» dostonida Farhod obrazini kiritadi. Ammo u bosh qahramon darajasiga ko`tarilmaydi. Firdavsiy Farhodni Afrosiyob lashkarboshisi sifatida tilga oladi. Nizomiyda esa u xalq vakili, toshyo`nar usta. U oqil va insonparvar, savodli va pahlavon.

Xusrav Dehlaviyning «Shirin va Xusrav» dostonida esa Farhod oliy nasab shahzoda, baxtsiz oshiq.

34

«Mahbub ul qulub» - Navoiy umrining oxirida yozilgan nasriy asardir. U muallifning g`oyat mazmunli va sermashaqqat hayoti davomida to`plagan boy tajribasi va xulosalarining yig`indisidir. Navoiy bu asarni yaratishda ko`zlagan maqsadi haqida asar muqaddimasida shunday yozadi: «... bolalikdan to qarilikka qadar ko`hna davron voqealaridan, aylanuvchi osmon hodisalaridan, fitna qo`zg`ovchi dunyo buqalamunligidan zamonaning rang singari gunogunligidan ko`p vaqt va uzoq muddat har xil hayol va taraddudlar bilan daydib yurdim, har tovr va ravishda bo`ldim va turli yo`llarga kirdim, yaxshi-yomonning xizmatini qildim, katta-kichikning suhbatida bo`ldim, goh xorlik va qiyinchilik vayronasida nola qildim, goho izzat va ma`murlik bo`stonida majlis qurdim... Goh amirlik o`rnida o`tirdim va hukumat mahkamasida xalqning arz-dodini surdim va goh podshoh yonida vazirlik qildim va menga umidvor nazar bilan qaragan elga muruvvat ko`rsatdim... Maqsadim shuki, har yo`lda yurdim, olamda bo`lmish har nav` odam bilan ko`rishdim, katta- kichikning fe`lu atvorini o`rgandim, yaxshi-

yomonning xislatlarini tajribadan o'tkazdim, yaxshilik va yomonliklarning sharbatini ichib, zahrlini totib ko'rdim...» («Mahbub ul qulub», 3-bet)

Navoiy hayotda ko'rgan, kechirgan, yaxshi va yomon kunlari, mehru jafolarni ushbu misralarda aniq bayon eta olgan:

Gahe topdim falakdin notavonlig',
Gahe ko'rdum zamondin komronlig',
Base issig'-sovug' ko'rdum zamonda,
Base achchig'-chuchuk tottim jahonda. («M.q.», 11-bet)

Shoir hayotining xulosasi, donishmand insonning hayot, kishilar, ularning fe'l-atvorlari haqidagi qarashlarining xulosasi sifatida «Mahbub ul qulub» yaratildi.

Asarning qadimgi qo'lyozma nusxalari kam. Ilm-fanda ma'lum bo'lgan qo'lyozma nusxalardan uchtasi XVI asrga, qolganlari esa XVIII-XIX asrlarga mansubdir. «Mahbub ul qulub»ning 1565-66 yillarda ko'chirilgan nusxasi Parij Milliy kutubxonasida, XVI asrda ko'chirilgan deb taxmin qilingan mukammal bir nusxasi Sank-Peterburgda, 1595-96 yillarda ko'chirilgan nusxasi ham Sank-Peterburgda, Saltikov-Shchedrin nomidagi Davlat kutubxonasida saqlanadi. Buxoro, Istambul, 1939 yilda Toshkentda nashr etiladi.

«Mahbub ul qulub» falsafiy, axloqiy, ta'limiy asardir. Unda Navoiy XV asrdagi ijtimoiy tabaqa va guruhlarini tasnif va ta'rif qiladi. Asar Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Nosir Xisravning «Saodatnoma», «Ro'shnoyinoma», Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston», Jomiyning «Bahoriston» asarlari kabi o'ziga xos nasihatnomadir. Asar uch qismga bo'linadi:

«Avvalgi qism - xaloyiq ahvoli va af'oli va aqvolining kayfiyati» - xaloyiqning ahvoli va fe'l-atvori hamda so'zlarining kayfiyati.

«Ikkinchi qism-hamida af'ol va zamima xisol xosiyatida» - yaxshi qiliqlar va yomon xislatlar xususiyati.

«Uchinchi qism - hamida natijasi va zamima xisol xosiyatida» - yaxshilikning natijasi va yomon xislatlarning oqibati.

55

Dostondagi islom dini va tasavvufning ayrim namoyondalari hayoti haqidagi hikoyatlar ham katta o'rin tutadi. Odam Ato, Azroyil, Sulaymon payg'ambar haqidagi diniy-falsafiy, Muhammad payg'ambar u kishining chahoryorlari, so'fizmning yirik vakillari bo'lgan Boyazid Bistomiy, Mansur Halloj, Ibrohim Adham, Abu Bakr Nishopuriy, B.Naqshband kabilar hayotiga oid hikoyatlar shular jumlasidandir.

Dostondagi she'riy hikoyat va masallarning katta qismini axloqiy-ta'limiy hikoyatlar tashkil qiladi. Kishilar xarakteridagi kamchilik va nuqsonlar o'tkir satira, ba'zan yumor bilan tanqid qilinadi. Bu jihatdan «Mechkay polvon», «Hind savdogari», «Tanbal kishi», «Muqbil va Mudbir», «Noshud bog'bon», «Soxta gavhar furushlar» kabi hikoyatlar xarakterli.

Dostonda ishq-muhabbat mavzui bilan bog'liq hikoyatlar ham anchagina. Dostondagi «Arastu va shogirdi», Majnun, «Hayratda qolgan oshiq», «Majnun va Layli», Shayx San'on bilan bog'liq hikoyatlar anchagina va ular ibratlidir.

Umuman olganda, «Lisonut-tayr» turli-tuman obrazlarning, turli-tuman mavzularning keng qamrovligi, chuqur falsafiy mazmundorligi bilan Navoiy qarashlarini aks ettiradi.

M A V Z U: ALISHER NAVOIY. «MAHBUB UL QULUB».

R E J A :

Kirish.

1. «Mahbub ul qulub» - falsafiy, axloqiy-ta'limiy asar.
 2. Asardagi masalalar.
 3. «Mahbub ul qulub»da turli toifa kishilariga munosabat.
 4. «Mahbub ul qulub» va xalq og'zaki ijodi.
- Xulosa.

A D A B I Y O T L A R:

1. N.Mallayev. «O'zbek adabiyoti tarixi». 1-kitob. T., 1963
2. O'zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 2-tom. T., 1978.
3. Alisher Navoiy. «Mahbub ul qulub». T., 1983
4. V.Zohidov. «Ulug' shoir ijodining qalbi». T., 1970.
5. A.Hayitmetov. «Adabiy merosimiz ufqlari». T., 1997.
6. «Buyuk siymolar, allomalar». 2-kitob. T. 1996.
7. I.Husanxo'jayev. «Alisher Navoiy ta'lim va tarbiya haqida». T. 1963.

Navoiy zukko shoir, donishmand inson sifatida o'zining lirik asarlari, «Xamsa» va boshqa asarlarida, umuman faoliyati davomida asosiy e'tiborni komil inson masalasiga qaratdi. Shoir asarlarida komil inson qanday bo'lishi kerak, uning zoiriy va botiniy xusuiyatlari xususida javob berishga harakat qildi. Zero, bugungi kunda ham ma'naviy yetuk kishilar, yoshlar dunyoqarashi, kamoloti haqida ko'p gapirilmogda. Prezidentimiz I.A.Karimovning qator asarlari, nutq va suhbatlari, umuman faoliyatlari davomida ma'naviyat, ma'rifat, o'tmish merosimizga hurmat kabi jihatlariga e'tiborni tortmoqdalarki, bu bejiz emas. Bugungi kunda yetuk kishilarni tarbiyalashda Navoiy merosining ham, ayniqsa, «Mahbub ul qulub» asarining alohida o'rni bor.

54

Farhod obrazini ilk marta birinchi o'ringa qo'yib talqin etgan shoir ozarbayjon adabiyotida Nizomiy an'analarini davom ettirgan, fors tilida irod qilgan Orif Ardabeliy (XIV asr) edi.

Navoiy Farhodni bosh obraz qilib oladi. Doston Farhodning tug'ilishidan boshlab, vafoti bilan tugaydi. Barcha masalalar Farhodga kelib bog'lanadi. Farhod yoshligidan ijobiy xislatlarga ega bo'lib o'sadi. Havas bilan o'qiydi. Tabiyot, matematika, mantiq va boshqa fanlarni o'rganadi.

Agar bir qatla ko'rdi har sabaqni,
Yana ochmoq yo'q erdi ul varaqni.
O'qib o'tmak uqib o'tmak shiori,

Qolib yodida, safha-safha bori...
Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,
Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm.

Farhod jismoniy jihatdan ham baquvvat bo'lib o'sadi. Suvda suzish, chavandozlik, qilichbozlikda mahoratli bo'lib yetishadi. 10 yoshida 20 yoshar yigitning kuch-quvvati bo'ladi. Farhod oddiyligi, xalqparvarligi bilan ajralib turadi.

Birovkim zor yig'lab, yig'lab ul zor,
Topib ko'ngli el ozoridin ozor.
Bo'lib el anduhidin ko'ngli g'amnok,
Ya'qo chokni ko'rib, ko'ksin qilib chok.

Xoqon Farhod uchun yilning to'rt fasliga mos to'rt qasr qurdira boshlaydi. U ustalar ishini o'rganadi. Me'mor Boniy, naqqosh Moniy va tosh yo'nuvchi Qoran bilan do'stlashadi.

Farhodning taxtni qabul qilmasligi, Armanistondagi faoliyati uning olijanobligini ko'rsatadi. Farhod boshchiligida «Nahr-ul-hayot», «Hayot daryosi»ariq kanali, «Bahr-un-najot» («Najot dengizi»-hovuzi quriladi). Dostonda mehnat ulug'lanadi. Shuning uchun ham asarning ikkinchi nomi «Mehnatnoma» deb atalgan:

Zaruratkim, solib bir o'zgacha tarx,
Bu «Mehnatnoma»ni qilgum durur sharh.

Farhodning xarakteri Xusrav bilan qilgan munozarasida ham aniq ko'rinadi.

Asarda Shirin ham muhim o'rin tutadi. Yuqorida aytganimizdek, Shirin manbalarda goh eronlik, oromiy nasab, yo rumli, yoki armani deb beriladi. Nizomiyda u ozorbayjonlik, Navoiyda esa armaniyalikdir.

Nizomiy Shirinni g'oyat go'zal va aqlli, irodali, sosoniylar podshohi Hurmuzning o'g'li Xisrav Parvezni sevuvchi qilib tasvirlaydi. U hatto Xisrav Vizantiya qaysarining qizi Maryamga, Isfaxon go'zali Shakarga uylanganida ham sodiq qoladi. Farhod sevib qolganida ham Xisravdan voz kechmaydi. Sheruya Xisravni o'ldirganida u ham eri jasadi ustida o'zini halok qiladi.

X.Dehlaviyda ham Shirin o'ziga xos. U Xisrav va Farhod sevgilarida ikkilanadi.

Navoiy Shirinni har jihatdan mukammal qilib tasvirlaydi. U ham tashqi ko'rinishi, ham ichki dunyosi bilan g'oyatda go'zal, Mehinbonu tarbiyasida ilmlil, aqlli qiz bo'lib yetishadi. Shirin sadoqati bilan ajralib turadi.

35

«Farhod va Shirin»da Mehinbonu, Shopur, Xoqon, vazir Mulkoro, Bahrom, olim Suhaylo va boshqa ijobiy obrazlar bor.

Hozirgi adabiyotshunosligimizda yuqorida qayd etganimizdek, ba'zi obrazlarni tasavvufiy nuqtai nazardan talqin etish ham ko'zga tashlanadi.

Suqrot ham komil inson timsoli sifatida talqin etiladi.

Professor N.Komilov ta'kidicha, «Farhod va Shirin»ning g'oyaviy mohiyati, shoir maqsad-muddaosi hali ochilgan emas. Nega Farhod tug'ilganidan g'amgin, bezovta? Sehrli ko'zgu, Yunoniston safaridagi timsollar, dev, ajdarho nimaning timsoli, tog'larda yashovchi donishmandlar kimlar?

Navoiy oddiy ertak aytuvchi emas. Maqsad ishqni kuylash. Ilohiy ishqni kuylash. Farhod ilohiy ishqqa muftalo soliqdir. Tili chiqishi bilan ishq va oshiqlik so'zini aytadi.

«Farhod» so'zining asl ma'nosi nurli siymo, baxti o'ziga yo'l boshchi demak. Arab yozuvidagi ramziy ma'nolari esa firoq, rashk, hajr, oh, dard. Farhodning rahmdillik, shohu gadoga barobarlik, toj-taxtdan voz kechishi darvish tabiatligidandir. Farhod dardining boisi nima ekanligini bilishi, o'zligini anglash uchun suluk yo'lga kirib, ma'rifat manzillarini bosib o'tishi lozim. Qoran, Moniylardan dunyoviy bilimlarni o'rganadiki, ular ilohiy siru asrorni ochishga kifoya qilmaydi.

Yunoniston - hikmat mamlakati. Farhod xazinadagi ko'zguni sandiq ichidan olmay, Suqrot huzuriga o'tlanadi. Ko'zgu Iskandardan qolgan, yunon donishmandlari yasagan. Hakimlar tog'da yashaydi. Farhod Suhaylo ismli hakim bilan uchrashadi. Suhaylo Farhodning tariqat yo'lidagi birinchi piri. U Suqrot darajasida komil emas. Oina sehrini ochishga qurbi yetmaydi. U Farhodga Suqrotga borish yo'lini ko'rsatadi. Suhaylo Farhod yengib o'tish kerak bo'lgan to'siqlar-ajdarho va devdan xabar beradi. Ajdarho-nafs timsoli, dev-saltanat. Suhaylo Farhodga ajdarhoni yengish uchun samandar yog'ini tuhfa etadi. Samandar-ishq ramzi. Farhod badaniga uning yog'idan surtganda, ajdarhoning o'ti unga ta'sir qilmaydi. Ishq otashi nafs o'tini so'ndiradi, demoqchi Navoiy. Farhod Suqrotga yetish uchun ko'p to'siqlardan o'tishi kerak. Tor so'qmoqning ikki tomoni qirrali xarsang toshlar, pastda vahimali daryo oqadi. Farhod shu yo'ldan hech yoqqa qaramay, «tez yurib» o'n bir ming qadam bosishi kerak. O'zgina yangilishsa - halokat. Ushbu yo'lni bosishda Xizr rahnamolik qiladi. Xizr Farhodning ikkinchi piri. Jom vositasida g'or va undagi Suqrotni ko'radi. Sher va «temir paykar» odam - rabot bor. Sher-g'azab timsoli. Temir odamni yengish uchun uning ko'ksidagi ko'zguni 100 qadamdan nishonga olish kerak. O'q tegsa yonib yo'q bo'ladi. Yoki aksincha Temir - paykar ro'yo-yolg'on timsoli. Shunday qilib, Farhod Suqrot dargohiga yetishdan oldin nafs, davlat va boylik hirs, g'azab, ro'yo-yolg'on qutqularni bartaraf etdi.

Suqrot, shoirning tavsifi bo'yicha, quyosh kabi porloq siymo, jismi pok ruhdan iboratday. U zohiriy va botiniy ilmlarning jamuljami. Olami kubro, ya'ni Ilohiyot olamini mujassam etgan zot.

«Farhod va Shirin»da bir qator salbiy obrazlar ham bor. Xisrav, Sheruya, Buzurg' Ummid shulardan.

«Farhod va Shirin»da ko'pgina lirik parchalar, lirik-muqaddima, lirik chekinish va lirik xotimalar bor. Navoiy obrazlarga, ularning tasviri, tiliga alohida e'tibor beradi. Shirinning Farhodga yozgan maktubiga bo'lgan yaxshi niyati, samimiyati, sadoqati ochiq ifodalanadi:

36

Doston an'anaviy tarzda muqaddima, hamd, munajat, Muhammad payg'amabar va ularning chahor yorlariga bag'ishlangan na'lar bilan boshlanadi.

Dostonda hikoya ichida hikoya usulidan foydalanilgan. Qushlarning Simurg' tomon qilgan safari qoliplovchi hikoya bo'lib, shu voqealar asosida keltiriladigan hikoyat, masal, latifalardan tuzilgan. Ba'zi manbalarda bu hikoyatlar soni 40 dan oshiq, yana bir o'rinda 65 hikoya deb ko'rsatiladi.

«Lisonut-tayr» ayrim manbalarda 176, boshqa manbalarda 193 kichik bobdan iborat deb ko'rsatiladi.

Dostonning muqaddimasida dunyoning yaratilishi, tabiat va ilohiyatning birligi, dunyodagi barcha narsa, hodisa va o'zgarishlarning yaratuvchisi bo'lgan xudo o'zi yaratgan narsalardan tashqarida emas, balki ular bilan birligidir. Shoir Muhammad payg'amabar, u

kishining Me'rojga ko'tarilishi, Abu Bakr, Usmon, Umar, Ali kabi chahorYorlarga bag'ishlovlar kabilarni bayon etadi.

Ma'lum bob F.Attor madhiyasiga bag'ishlangan. Keyingi boblarda esa dostonning asosiy qismi boshlanadi.

Asardagi Hudhud va qushlar munozarasi xarakterlidir. Shoir savol-javob asosida insonni ma'naviy komillikka yetaklamaydigan axloqiy illatlarni tanqid qiladi.

Qshlar Simrug' (eng oliy go'zallik va kamolot timsoli) tomonga borishdan qaytadilar. Asardagi to'ti-xudbinlik va shaxsiyatparastlik; tovu- tashqi go'zallik, boylik va mol dunyo yig'ish; qarchig'ay-johillik timsoli sifatida gavdalanadi. Asardagi Hudhud va qushlar munozarasi orqali ba'zi illatlar qoralanadi va insoniy fazilatlar mohiyati ochib beriladi. Asarda 7 vodiy tavsifi berilganki, bu murakkab o'rinlardan biridir.

7 vodiy tasavvufda haqiqatga eltuvchi 7 bosqichning majoziy tavsifi sifatida namoyon bo'ladi. Bu vodiyalar **Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat, Fano** kabilardir. Bu bosqichlarning har biri o'z mohiyatiga ega.

Asardagi qushlar obrazini mazmun-mohiyati, vazifasiga ko'ra quyidagicha ajratish mumkin.

Simurg' obrazi; Hudhud obrazi; boshqa qushlar obrazi.

1. Simurg' - Xudo.
2. Hudhud - solik, haq yo'liga boshlovchi, 7 manzildan olib o'tmoqchi bo'lgan pir, murshid.
3. Boshqa qushlar - bulbul, to'ti, kabutar, tazarv (qirg'ovul), qarchig'ay, burgut, tovu, humoy, kabki dariy, shahboz, shunqor, qumri, xo'roz, kuf (boyo'g'li) kabilar solik kishilar timsolidir.

Dostondagi hikoyatlarni mavzu jihatdan quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Ijtimoiy - siyosiy va falsafiy mazmundagi hikoyatlar.
2. Din va tasavvuf vakillari, ularning ba'zi ishlariga oid hikoyatlar.
3. Axloqiy-ta'limiy mazmundagi hikoyatlar.
4. Ishq-muhabbat haqidagi hikoyatlar.

Dostondagi hikoyatlar ichida ijtimoiy-siyosiy va falsafiy mazmundagi hikoyatlar ko'pchilikni tashkil qiladi. «Shoh va ikki darvesh», «G'avvoslar», «Shatranji kabir», «Shoh va uning ko'zgusi», «Sham va parvonalar» bunga misol bo'la oladi.

Ma'lumki, A.Navoiy maktab davridayoq avliyo shoir Fariddin Attorning «Mantiq ut-tayr» degan dostonini yod olgan edi. Umri oxirida esa uning ta'sirida «Lisonut-tayr» dostonini yozadi. Bu kitobning ta'sirini Navoiy shunday yozadi:

O'ylakim eldin uzuldi ulfatim
Ul kitob erdi anisi xilvatim,
Xalq rasmi so'zlaridin qiylu qol
O'tsa ta'bimga yetar erdi malol,
O'qibat ishq ayladi shaydo meni
Uyla mash'uf etti bu savdo meni, -
Kim dedim uzlat eshigin ochqamen
Dahri bema'ni elidin qochqamen.

Alisherning ota-onasi bu ketishda uni jinni bo'lib qoladi, degan o'y bilan kitobni yashirib qo'yishadi. Lekin bola kitobni yod olgan edi:

Onglag'ach atfol aylab sho'ru shayn,
Istimo' etti bu so'zni volidayn...
Yoshurub daftarni ma'dum ettilar
Shug'lidin ko'nglumni mahrum ettilar.
Lek chun yodimda erdi ul kalom,
Yoshurun takror etar erdim mudom.
Ondin o'zga so'zga maylim oz edi,
qush tili birli ko'ngul hamroz edi.

A.Navoiyning «Lisonut-tayr» asarida shoirning butun ijodiy faoliyati davomida ilgari surilgan falsafiy qarashlari umumlashtiriladi, ularning xulosasi sifatida namoyon bo'ladi.«Lisonut-tayr» 3598 baytdan iborat.

Adabiyotshunos S.Olim navoiyshunoslikda eski va yangi bosqich mavjudligini aytadi. «Lisonut-tayr»ni ham shu asosda kuzatish zarurligini ta'kidlaydi. Eski Navoiyshunoslikning kamchiligi sifatida quyidagilar ko'rsatiladi:

Birinchisi - siyosat ta'sirida atayinmi yoxud bilmasdanmi e'tibor qilinmay kelingan nuqtalar.

Ikkinchisi - noto'g'ri talqin etilgan jihatlar.

Uchinchisi - dostonni yalpi holda boshqacha, bu asar uchun mutlaqo noravo mezonlarga solib baholash. Ana shu nuqtalardan eski va yangi navoiyshunoslik o'zaro to'qnash kelishga majbur. (S.Olim. Ishq, oshiq va ma'shuq. T., 1992. 3-4-bet.)

Bertel's «Mantiqut tayr» bilan «Lisonut-tayr»ni muqoyasa qildi. Navoiy dostonining o'ziga xos tomonlarini Yoritishga harakat qildi. Bertel's «Navoiy tarjimon va taqlidchi shoir» degan fikrga tuzatishlar kiritdi. O'z fikrlarini «Navoiy» nomli kitobida qayd qiladi.

Bulardan tashqari, V.Zohidov, N.Mallayev, I.Sulton, A.Hayitmetov, A.Abdug'afurov, S.G'aniyeva, Sh.Sharipov va boshqa olimlar ham bu asar yuzasidan fikr mulohazalarini bayon qiladilar. Ba'zi olimlarning fikricha, Ibn Sinoning «Risolatut-tayr» asari sharqda qush allegorizimiga asoslanib yozilgan ilk asar bo'lib, u F.Attor va A.Navoiy asarining yuzaga kelishiga turtki bo'ladi.

Nedur ahvoling, ey zori g'aribim,
Visolim davlatidin benasibim?
Chekardin g'am tog'in holing nechukdur,
Bu yukdin jismi chun noling nechukdir?
Qatiq g'urbat aro holing ne erkin
Achiq furqatda ahvoling ne erkin?...
Tikan kirska kafingga kiynasidin,
Chiqarsam erdi kiprik ignasidin...

Qurub xoru xas oʻrningda, nihoniy
Sochim birla supursam erdi onioʻ
Chu bilsam garddin koʻnglingda qaygʻu,
Yer uzra ashqdin sepsam edi suv.

Navoiy badiiy tasvir ustasi. U kishi obrazlarinigina emas, hayot, tabiat tasvirlarini ham mahorat bilan chizadi. Shoir tazod, jonlantirish, oʻxshatish, mubolagʻa kabi badiiy til vositalaridan oʻrinli foydalangan:

«Farhod va Shirin» xalq orasida ham keng tarqalgan. Uning afsona rivoyat, ertak va doston variantlari bor. Syujeti farqlanadi. Gʻoyaviy mazmun yaqin.

Fozil Yoʻldosh oʻgʻli Navoiy dostoni asosida «Farhod va Shirin»ning folʼklor variantini yaratdi.

«Farhod va Shirin»ning kitobiy variantlari ham bor. XIX asrda Umar Boqiy «Farhod va Shirin»ning qisqa nasriy variantini tuzadi. Shoir Maxzun XIX asrda «Farhod va Shirin» qissasini yozgan.

M A V Z U: «LAYLI VA MAJNUN»

R E J A :

1. «Layli va Majnun»ning tarixi.
2. A.Navoiyning «Layli va Majnun» dostoni.
3. Dostondagi obrazlar tahlili.

A D A B I Y O T L A R:

1. A.Navoiy. Mukammal asarlar toʻplami. 20-tomlik. 9-tom. Toshkent - 1991.
2. A.Navoiy. Xamsa. Toshkent. 1986
3. A.Navoiy. «Layli va Majnun». Toshkent - 1991.
4. T.Jalolov. Xamsa talqinlari, Toshkent - 1968.
5. N.Mallayev. A.Navoiy va xalq ijodiyoti. T. 1974.
6. A.Hayitmetov. Navoiyning ijodiy metodi masalalari. T. 1963.
7. T.Ahmedov. A.Navoiyning «Layli va Majnun» dostoni. T. 1970.
8. Navoiyning ijod olami. Toshkent-2001.

«Layli va Majnun» jahon adabiyotidagi eng qaygʻuli dostonlardan biridir. Akademik Krachkovskiy «Layli va Majnun»ni gʻarbdagi «Romeo va Juletta» bilan qiyoslaydi va shunday deydi: «Gʻarbdagi Romeo va Juletta»ning qiymati bilan qiyos qilganda, Sharqda «Layli va Majnun»yanada mashhurroqdir.

37

«Layli va Majnun chuqur tarixga ega boʻlgan yoʻlni bosib oʻtadi. Akademik Krachkovskiyning taʼkidlashicha uning kurtaklari VII asrning 2 yarmiga borib taqaladi. Ayrim arab manbalarida Majnun tarixiy shaxs boʻlib, Bani Omir qabilasidan chiqqan. Uning asl nomi Qays ibn Mulavvah boʻlgan. U qabiladoshi Laylini sevgan, unga atab mungli sheʼrlar bitgan.

Ibn Qutaybaning «Kitob-ush - sheʼr va Shuaro»sida ham bunday maʼlumotlar keltiriladi.

Boshqa bir manbalarda esa Majnun tarixiy shaxs emasligi, Majnun nomi ham majoziy maʼnoda keltirilgan deb koʻrsatilgan.

Demak, Majnun obrazi, uning tarixiy shaxsligi masalasi munozaralidir. Ammo shunisi maʼlumki, arab sheʼriyatida VII asrning ikkinchi yarmida Majnun taxallusi bilan koʻpgina qaygʻuli, mungli, oshiqona sheʼrlar yuzaga kelgan.

VII asrning boshida Majnun haqidagi rivoyatlar yuzaga kela boshlagan, boʻlsa IX asrga kelib bu rivoyatlar keng tarqaladi. Agar Majnun nomiga nisbat berilgan sheʼrlar u haqidagi rivoyatlarning yuzaga kelishiga zamin boʻlgan boʻlsa ayni paytda ushbu rivoyatlar «Layli va Majnun» haqidagi yirik obidalarining paydo boʻlishiga olib kelgan.

Layli va Majnun haqida birinchi marta 1188 yilda Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy doston yozgan. Bu doston bilan «Layli va Majnun» «Xamsa»chilikning anʼanaviy dostoniga aylanib qoladi.

Ibn Qutayba, Al - Johiz, Abu Bakr al - Volibiy va boshqa arab olimlarining asarlarida Layli va Majnun haqidagi turli rivoyatlar beriladi. Badiiy adabiyotga kelganda Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Ashraf, Jomiy, Amir Shayhim Suhayliy qalamiga mansub dostonlar yaratiladi. Turkiy tilda esa Gulshahriy, Oshiq Posho, Shahidiy kabi Shoirilar Layli va Majnun orasidagi ishq sarguzashtlari haqida oʻz dostonlarida ayrim parchalar berdilarki, bu parchalar Layli va Majnun afsonasining turkiy tildagi dastlabki kurtaklari sifatida ahamiyatlidir.

Navoiy Nizomiy dostonini «qalʼaga», Dehlaviy asarini yaxshi bezakli «qasr»ga oʻxshatib, oʻzining dostonini esa «qalʼa» va «qasr» atrofidagi shahar va bogʻlarga qiyos etadi. shoir oʻz asarini «Firoqnoma», «Nomai dard» deb ham ataydi.

Shoirming ushbu dostonni yozishdan maqsadi: «Maqsudim emas edi fasona». Shoir nazarida, ushbu syujetdan turkiy xalqlar ham bahra olishi kerak.

Men turkcha boshlabon rivoyat
Qildim bu fasonani hikoyat.

«Layli va Majnun» dostonida Navoiy ishq haqida, ishqning inson jismiga soladigan gʻalayonlari haqida, bu yoʻlga kirgan kishining hayoti iztirob, ruhiy qiynoqlarga toʻla boʻlishini Layli va Majnun obrazlari orqali bayon etadi. Dostonda Layli va Majnunning alamli, fojeali kechinmalari tasvirlangan.

Dostonda haqiqiy ishq bilan majoziy ishq uygʻunlashib ketadi. Asardagi Majnun - oshiq, fidokorlikning ramzi boʻlsa, Layli goʻzallik va poklikning timsolidir.

38

Bilib xalq shohi muzaffar ani,
Hakimu valiyu payambar ani, -
deydi. Umuman, «Saddi Iskandariy» dostoni bir qator masalalarni qamrab olishi bilan eʼtiborli. Asarda Navoiy xalq qoʻshiqlaridan, maqol va taʼbirlaridan unumli foydalangan. Badiiy sodda misralar dostonida koʻp uchraydi:

Mengizlari gul-gul, mijalari xor
Qabog'lari keng-keng, og'izlari tor.

M A V Z U: LISONUT - TAYR.

R E J A:

1. «Lisonut-tayr» dostonining o'rganilishi.
2. «Lisonut-tayr» - falsafiy doston.
3. «Lisonut-tayr»ning obrazlari va syujeti.
4. «Lisonut-tayr» hikoyatlari.

A D A B I YO T L A R :

1. Darsliklar.
2. A.Navoiy. «Lisonut-tayr». Toshkent, 1991.
3. A.Navoiy. «Lisonut-tayr». Nasriy bayoni. T., 1984.
4. V.Zohidov. «Ulug' shoir ijodining qalbi». T., 1948.
5. N.Komilov. «Tasavvuf». 1-kitob. T., 1996.
6. S.Olim. «Naqshband va Navoiy». T., 1996.
7. Sh.Sharipov. «Lisonut-tayr» haqiqati». T., 1998.
8. S.Olim. «Ishq, oshiq va ma'shuq». T., 1992.

A.Navoiy islom dinini, islom ta'limotini, tasavvuf ilmini mukammal o'rgangan edi. Shoirning she'riy asarlari, ayniqsa «Xamsa», «Lisonut-tayr» kabi asarlarida Xudo, payg'ambar, xalifalar haqidagi qarashlari, borliq, odamzotning paydo bo'lishi va yana ham muhimi komil inson haqidagi qarashlari atroflicha bayon qilingan.

Navoiy asarlarini, ayniqsa «Lisonut-tayr» va «Xamsa»ni anglash uchun islom dini, qur'oni karim mohiyatidan xabardor bo'lish zarurga o'xshaydi. Shusiz Navoiyni anglash qiyin.

A.Navoiyning 1499 yilda yozilgan 6 dostoni- «Lisonut-tayr»ni tushunish ancha murakkab. Chunki bu asarda tasavvuf g'oyalari, kechinmalar timsollar orqali ifodalanadi.

«Lisonut-tayr»ni o'rganish, u haqda tadqiqotlar yaratish 1920 yillardan boshlangan.

1927 yil E.Bertel's tomonidan yozilgan «Navoiy va Attor» maqolasi dastlabki ishlardan sanaladi. Ungacha Yevropa va ayrim rus sharqshunosligida Navoiyning «Lisonut-tayr» dostoni - fors adabiyotining tarjimai, shoirning o'zi esa taqlidchilikda ayblandi.

to'g'ridan-to'g'ri yurish boshlamay, avval turli yurtlar hokimlariga elchilar yuborib, ixtiyoriy bo'ysinishni taklif qiladi. Lekin hamma shohlar ham bu taklifni to'g'ri tushunib, qabul qilmaydilar, o'shandagina Iskandar harbiy kuch qo'llashga majbur bo'ladi. Iskandar Farang, Qrim, Andalus, Misr, Iroq, Yamanni egallaydi va Makkani ziyorat qiladi. So'ng shimolga yuz o'girib Xorazm, Dashti qipchoq, Rus, Charkas, Gurj ellarini zabt etadi.

Bundan keyin Markaziy Osiyo, Hind yurishlari, janub tomonlarda Sind, Nukron, Kirmon, Xuroson, Isfahon kabi joylarni o'ziga qaram qiladi. Markaziy Osiyoda Samarqand, Xurosonda Hirot va Roy shaharlarini barpo etadi. Kashmirmi zabt etish ancha tashvish tug'diradi. Iskandar olimlar yordamida sehrli hamma to'siqlarni yengib g'olib chiqadi. Mallu ham qancha yomonlik qilsada, Iskandar uni avf etadi va qizi Mehrnozni o'z nikohiga olishga uning roziligini oladi.

Iskandarning Kashmirdagi faoliyati va Malluga bo'lgan munosabatidan xabar topgan Hindiston royi (rojasi) o'z ixtiyori bilan Jahongirga tobe bo'ladi va Dehlida qishlashni taklif etadi.

Osoyishta hayotga o'rganmagan shohni endi dengiz sirlarini o'rganish chorlaydi. Olimlarni jalb etib uch ming kema qurib, sakkiz yillik oziq-ovqat jamg'aradi. Shoh sayohatga jo'nash oldidan xaloyiqqa qarata nutq so'zlaydi, xalqning shohga bo'lgan mehri shunchalik kuchli ediki, ular shohni ko'z yoshi bilan kuzatadilar. Iskandar qo'shin, ot-ulov bilan dengiz safariga chiqadi. Yetti dengizni o'lchab, tadqiq etadilar va shoh endi jahon okeani markazini ko'rmoqchi bo'ladi. Okean markaziga etib kelgach, langar tashlab to'xtaydilar. Iskandar shishadan ishlangan sandiqda okean tagiga tushadi, turli ajoyibotlari ko'radi. YUz kundan so'ng shisha idishini arqon bilan tortib oladilar. Navoiyning fikricha, dengiz va okean sayohatlari Iskandarning ruhini soflantiradi, forig' etadi va endi u avliyo va nabi darajasiga ko'tariladi. Lekin bu tezisni Navoiy talqin etmaydi, bu fikrni Nizomiy an'anasiga ko'ra kiritadi, xolos. Iskandar vatanga qaytadi, lekin uning salomatligi ancha yomonlashgan edi, u sadoqatli do'stlarini atrofiga to'plab mamlakatni taqsimlab beradi. Iskandar xastalikda otga minib doim chopar edi. Bir kun g'oyat issiq bo'ladi, ot choptirib ketayotgan shohning ahvoli issiqdan yomonlashadi, otdan tushib issiq qumga yotdi, oltin qalqonini boshiga soya qiladilar, natijada oldindan aytilgan holat-temir yer va oltin osmon ro'y beradi. Iskandar hayotining oxirgi damlari kelganini anglaydi. U onasiga xat yozadi, o'zini Aleksandriyaga dafn etishlarini, qabristonga olib ketayotganlarida qo'lini tobutdan chiqarib qo'yishlarini vasiyat qiladi.

Navoiy Iskandari yer yuzi va suv osti sirlarini o'rganib, olim-faylasuflar ta'limini olgach, avval avliyo, keyin nabiylikka erishadi, lekin bu sohada u hech qanday faoliyat ko'rsatmaydi. Doston oxirida Navoiy Iskandar haqida:

50

Sharq mumtoz adabiyotida o'ziga xos an'ana mavjud. Unga ko'ra har qanday asar Xudoning madhi - hamd, undan iltijo - munojot, Muhammad payg'ambar ta'rifi-na't kabi maxsus boblar bilan boshlanadi.

Navoiyning «Layli va Majnun» dostonining 1 bobi ham xuddi shu an'anaga muvofiq Xudo madhiga bag'ishlangandir. Unda shoir faylasuf olim sifatida olamning yaratilishi, tun,

boshiga yetadi, uning zulmidan bezigan ikki kishi shohni og'ir jarohatlantiradilar. Avvalgi manmanlikdan tushgan shoh Iskandarni chaqirtiradi va unga iltimoslarini bayon qiladi: qotillarni jazolash, qavmu-qarindoshlarini taqib qilmaslik va qizi Ravshanakni o'z nikohiga olish. Iskandar hammasini bajarishga va'da beradi va keyincha o'z va'dasida turadi. Iskandar Eron aholisini o'zidan rozi qilgach boshqa mamlakatlarni fatx etishga kirishadi. Ammo shoh

kun, oy, quyosh, yulduzlarning, bahor, kuz, qish fasllari, insonning yaratilishi - Xudoning beqiyos qudrati ifodasi ekanligini ta'kidlab, unga hamdu sanolar o'qiydi.

Majnun otasining befarzandligi, Qaysning tug'ilishi, uning Layli bilan uchrashishi, Layliga bo'lgan ishq, shu ishq tufayli boshiga tushgan musibatlari, bir necha marta hushidan ketishi, el orasida «Majnun» deb nom chiqarishi, sahro kezishi, Ibn Salomning Layliga sovchi yuborishi, Majnun hayvonlar bilan do'stlashishi, Navfal bilan uchrashuvi, jang bo'lishi, Layli va Majnun Zayd tufayli xat orqali bir - birlaridan xabardor bo'lishlari, Majnun Navfal yurtidan qochib ketishi, Laylining esa Ibn Salomning zolim changalidan qutilishi, ikki sevishganlarning bir-birining vasliga yetishishi va jon berishlari dostonning asosiy syujetini tashkil qiladi.

Navoiyning boshqa asarlari, ayniqsa dostonlari qatori «Layli va Majnun» ham bugungi kunda yangicha qarashlar bilan tadqiq etish ko'zga tashlanmoqda.

«Layli va Majnun» dostoni haqida ko'plab ilmiy tadqiqotlar yaratilgan. Sho'ro mafkurasi ta'siri ostida «Layli va Majnun» tahliliga bag'ishlangan ayrim tadqiqotlar asarni «kerakli» va «keraksiz» qismlarga ajratib o'rganish ko'zga tashlanadi. Asardagi ilohiy muhabbat, umuman doston obrazlarini tasavvufiy jihatdan talqin etish, Navoiy kuylagan ishqni - ilohiy ishq, haqiqiy ishq sifatida keng tahlil etish N.Komilov tadqiqotida mavjud.

Ko'pincha darsliklarda esa «Layli va Majnun»dagi ishq insoniy ishq sifatida izohlanadi.

Qays - dostonning bosh obrazi. U oshiq, iste'dodli shoir, olijanob inson. U keksa qabila boshlig'ining o'g'li. Uni 4-5 yoshlarida o'qishga beradilar. Uning butun umri Layliga bo'lgan sevgisiga bag'ishlangan. Qays bu yo'lda ko'p qiynaladi. Halok bo'ladi.

Qays farzandga orzumand oiladi tug'iladi. Ota-onasi unga muftalo:

Sevmakda ato-ano muvofiq,
Ma'shuq bir erdi, ikki oshiq.
Yetgach yoshi to'rtu besh arosi
Ta'lim so'zin solib atosi.

O'z qabilasida maktab bo'lmagani uchun Laylining qabilasidagi maktabga beradilar. Shu orada Laylini uchratadi. Bog' sayrida ko'rib qolib, hushidan ketadi:

Ota-onasida g'am uza g'am,
Ne g'am uza g'amki, so'gu motam
Bu mehr ila manglayin o'pti
Ul boshig'a evrulurg'a qo'pti.
Fahm ayladi qays chun bu holat
Suv qildi vujudini xijolat

Ul birga xijolat aylabon fosh
Bu bir oyog'idin olmayin bosh
Ya'niki uyotdin o'zda qolmay
Andoqki yuqori boqa olmay
Chun ko'rdi ato bila onosi,

Kim oni halok etar hayosi (21-bet).

Sevgi Qaysni aqlidan ozdiradi. O'zini boshqara olmay qoladi. Gap-so'zlar, choralar unga ta'sir etmaydi. Dardli kishilar, oshiqlar uni tushunadilar. Bag'ri toshlar uning bu holidan kuladilar. Majnun (jinni) deb ataydilar:

Layli, Layli debon chekib un
El deb: Majnundir, ushbu Majnun.

Laylining otasi dastlab unga achinadi:

... Aqli komilu, kalomi ma'qul,
Bor erdi menga ham asru maqbul.

Laylining otasi qizini maktabdan chiqaradi. Majnun va otasiga do'q uradi:

Bilmongmu shukuhi savlatimni
A'rob aro molu-shavkatimni?
Ham o'g'lunga, ham senga bilurmen
Kim har ne qilay desam qilurmen. (26-bet).

Majnunga kishan uriladi. Layli qon yig'laydi. Majnun hajga olib boriladi. U erda Majnun shunday tilovat qiladi:

Bu ishq o'tikim, bayon qilurmen,
Muhlik g'amini ayon qilurmen
Demonki, meni tarabg'a xos et
Yoxud g'ami ishqdin halos et.
Dermanki, menga bu o'tni har dam
Afzun qilu, qilma zarrae kam...

Qays Navfal hurmatini qozonadi. Navfal uni ham o'g'il, ham kuyov qilib, qizini berishga qaror qiladi. Navfal qizining ko'ngli boshqada. Majnun uni tushunadi.

Dostondagi Layli o'zining tashqi qiyofasi bilan ham ma'naviy dunyosi bilan ham ajralib turadi. Bilim oladi. Majnun dardlarini anglaydi. U bilan birga iztirob chekadi.

Laylining otasi uni Ibn Salomga berishini eshitib qayg'uga botadi.

Asardagi Navfal obrazi ham o'ziga xos. U bahodir va olijanob. Dashtda ov qilib yurib, Qaysni uchratadi. Unga hamdardlik ko'rsatadi. Laylining otasiga uchrashadi. qaysi yo'l bilan bo'lsada Qaysni baxtli qilishni o'ylaydi. Dostonda Qaysning ota-onasi, Laylining onasi va enagasi ijobiy obrazlardir.

Laylining otasi, Ibn Salom salbiy obrazlardir. Navoiyning «Layli va Majnun» 38 bobdan iborat. Har bir bob saj' yo'li bilan yozilgan maxsus sarlavha bilan boshlanadi. Asarda psixologik tasvir, ruhiy kechinma kuchli. Doston xotimasida shoir tomonidan shunday misralar bitiladi:

So'ngin nechakim uzottim oxir,
Yig'lay - yig'lay tugottim oxir.

Layli va Majnun bahorda uchrashadi. Sevishadi. Sevgilari xazon faslida poyoniga etadi. Shoir jonlantirishdan keng foydalangan.

«Doro ibn Dorob» qismida eron shohni «zolim tab' kishi erdi» deb xarakterlab, Makedoniya Eronga boj to'lashi, Iskandar esa uni to'lashdan voz kechgani, g'azablangan Doro lashkar to'plab, Makedoniya shohiga qarshi chiqqani va shu vaqtda shohdan zulm ko'rgan ikki kishi uni o'ldirgani, Iskandar uning boshini tizzasiga olib, uning uch shartini (qizi Ravshanakka uylanish, qotillardan o'ch olish va shoh avlodlari hayotini saqlab qolish) bajarishga va'da

bergani haqida yozadi. Shundan so'ng, Navoiy Iskandar bayoniga o'tib, Iskandarning dunyoga kelishi haqidagi quyidagi afsonalarni keltiradi: «ba'zi ani Dorob o'g'li debturlar», so'ng Banokatiy va «Devon un-nasab» asariga suyangan holda «Iskandar Xirmisi Rumiy o'g'ilidurkim... Zulqarnaynki, aning laqabidur, vajxi... ul zamonda ming yilni bir qari der emishlar (demak-ikki ming yil yashagani uchun Zulqarnayn deb ataganlar - F.S.). YAna ham Banokatiydadurkim, aning otasi Bozur binni Albion erdi». Turli sarguzashtlardan so'ng Iskandar yo'lda, dashtu biyobonda tug'ilgani, Ollohning buyrug'i bilan uni bir kampirning echkisi boqib yurgani, so'ng kampir bolani topib olib, voyaga yetkazgani, bola yaxshi tarbiya va ta'lim olgani va nihoyat onasini topib, bobosining yurtiga podshohlik qilgani haqida hikoya qiladi. Navoiy bu hikoyadan so'ng «askar tavorixda aning umrini o'ttuz olti yil va salatini o'n uch yil bitibturlar. Ammo maholdurkim, o'n uch yilda ul qilgan ishcha qilsa bo'lgay», deydi va Amir Xusrav Dehlaviy va Nizomiylarning Iskandar haqidagi fikrlarini keltiradi: «faqir ham «Saddi Iskandariy»da ul ikki buzurgvor qavlini soriy muarrixlar ahvoliga tarjix qilib, nazm adosiga qaror beribmen. Har taqdir bila Iskandar podshohe erdikim, andin burungi va so'nggi salotin bu kungacha ul qilgan ishni qilmadilar. Ham hakim erdi, ham vali. Ba'zi anga nubuvvat ustodi ham qilibturlar. To'rt yuz hakim aning xidmatida erdilar. Aflotun ilohiy boshlig' va Arastudek vaziri bor erdi. Sakkiz ming shoh va Shahzoda xidmatini qilar erdilar. Olamning barru bahrin olib, hayvon suyi tamannosi bila zulmatga kirdi».

Navoiy Makedoniya shohining hayratomuz ishlariga baho berar ekan, o'zigacha bo'lgan mualliflarning g'ayritabiiy ma'lumotlarini shubha ostiga oladi. Navoiy Iskandar obi hayotni izlab zulmat yurtiga borgani haqida yozib, unga nasib bo'lmagani va ba'zi xabarlariga ko'ra Shahrizurda va ba'zilarda Bobilda vafot etdi va Aleksandriyada dafn etildi, deydi. Bu o'rinda yana «Hayrat ul-abror»da berilgan Iskandar vasiyatini keltirib, «olam ahliga mujiba tanbih, balki ibrat bo'lgaykim, olamdan ilik torta tutqaylar», deydi. Navoiy Iskandar ya'juj-ma'jujlarga qarshi to'siq qurgani va Marv, Hirot, Samarqand va Isfaxon shaharlarini barpo qilganini ta'kidlaydi. Iskandardan so'ng Batlimus (Ptolomey) Rumda hokim bo'lganini yozadi.

Navoiy Iskandar faoliyati, donishmandligi haqida yozar ekan, shoir jahongiri kuylamaydi, shonu-shavkatini ulug'lamaydi, balki shunday odam ham bu dunyodan qo'l silkib ketgani, «bahru-bar»ni zabt etgan odam ham o'limdan qochib qutila olmaganini ibrat qilib ko'rsatadi.

Doro bilan to'qnashuvga bag'ishlangan qismlardayoq ikki shoh tabiati, idora etish usuli, odamlarga munosabatida katta farq borligi ayon bo'ladi: Doro qiziqqon, mulohazasiz fikr yuritadi, qo'pol, odamlarni, Makedoniya shohini ham mensimaydi, o'ta mag'rur. Iskandar esa olim - faylasuf, donishmand sifatida tadbir ko'radi. Iskandar istamasa-da urushishga majbur. Lekin Doroni makedoniyalik Iskandar halok qilmaydi, eronshohning o'z qilmishlari

Dostonda Iskandarning tug'ilishi, yoshlik yillari, Arastuning otasi Naqumojiz qo'lida ilm olishi, Faylaqusning vafoti, Iskandarning taxtga chiqishi, uning Doro bilan to'qnashuvi, Eronni egallab olishi, Kashmirda yurish qilib, zolim Malluni yengishi, Hind shohi va Chin shohi bilan chin munosabati, Mag'ribda vahshiylar bilan jang qilishi, qirvonda ya'juj va ma'jujlarning qirilishi, dengizga sayohati va boshqalar bayon qilinadi.

Dostonda asosiy e'tibor Iskandarning odilligiga, uning yurti adolat bilan boshqarishiga qaratilgan. YAna bir tomoni Iskandar olim edi. Olim qo'lida tarbiya topadi. O'z ishlarini olimlar bilan maslahat qilgan holda olib boradi. Asardagi Naxumojiz, Arastu, Aflotun, Suqrot, Buqrot, Xurmus, Pifagor va boshqa olimlar shular jumlasidandir. Dostonda Navoiy himmat, noahillik oqibatlarida haqida, yoshlik, yigitlik haqida, yaxshilik va yomonlik, to'g'rilik, aql-idrok, bilim va ilmning ahamiyati va boshqa qator masalalar haqida mulohaza yuritadi. Asardagi Doroning go'y va chavgoni, ikki do'st hikoyati, Mahmud hikoyati, Bahrom go'r hikoyati, Majnun hikoyati va boshqa hikoyatlarda ham turli masalalar qalamga olinadi va bu dostonning badiiy qimmatini yanada oshiradi.

Navoiy ham o'z salafllari Nizomiy, Dehlaviy va ustozlari Jomiy kabi oldiga tarixiy doston yaratishni vazifa qilib qo'ymagan. Shoir uchun Iskandar tarixiy lashkarboshi emas, balki ideal hokim, sarkarda, haqiqiy olim, tabiat, jahondagi bahru bar (ho'llik va quruqlik) tadqiqotchisi. Dostonni kitobxon qo'llanma sifatida qabul qilishi lozim bo'lgan o'gitlar to'plami ham deyish mumkin. Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy va Navoiylar o'z «Iskandarnoma»larini yozar ekanlar, davr talabi va o'z dunyoqarashlarida kelib chiqqan holda u yoki bu masalani hal qiladilar. Shuning uchun Makedoniya lashkarboshisining nomi Navoiy asarlarida Iskandar, Skandar shaklida yuzlab marotaba tilga olinadi.

«Xamsa»ning birinchi dostoni «Hayrat ul-abror»ning (1483) qirq sakkizinchi bobi sarlavhasi «Aflotun hay'ati shikoyatidakim...» so'zlari bilan boshlanib, taqdir qanchalik o'zgaruvchi, bu dunyo, saltanat, hokimiyat o'tkinchi, Faridun, Jamshid, Doro, Iskandar, CHingizxon, Temur kabilar qanchalik qudratli bo'lishlariga qaramay, olamdan o'tdilar, bu dunyoda insonning faqat yaxshi ishlarigina qoladi, degan pand-nasihat so'zlari bilan tugallanadi. 25 baytdan iborat bo'lgan qirq to'qqizinchi bobda Iskandar tarixi qisqa bayon etilib, shohning qo'lini tobutdan chiqarib qo'yishlari, jahonni zabt etgan shahanshoh ham bu dunyodan hech nima olib ketmayotganini hammaga ibrat bo'lsin, degan maqsadda keltiriladi:

To kishikim qilsa nazar ul sari,

Ibrat ila boqqay o'shal qo'l sari.

Bob oxirida Navoiy odatdagidek xulosa yasab, o'ziga:

Tort, Navoiy bu jahondan ilik,

Qaysi jahon, javhari jondin ilik,

so'zlari bilan murojaat qiladi.

Alisher Navoiy «Tarixi mulki ajam» (1488) asarini yozar ekan, Iskandar yurishlari mavzuiga to'xtamay o'tishi mumkin emas edi. «Ikkinchi tabaqa kayoniylardur» bobida Doro ibn Dorob ta'biridan so'ng Iskandarga maxsus joy ajratilib, uni Banokatiy Hamduloh al-Mustafiyning (vafoti 1329-30) asari «Devon un-nasab», Amir Xusrav Dehlaviyning «Oyinai Iskandariy» va hazrat shayx Nizomiyning «Iskandarnoma» asarlariga suyanib yozgani haqida ma'lumot beradi.

O'rgamchi shaboqqa julni tirmab,
Tumshug'ini rishta birla chirmab...

Tazod:

Majnun tobonig'a qo'ydi boshin
(qarshilantirish)

Na`l etti etuklarig`a qoshin

(o`xshatish)

Laylining vafoti munosabati bilan onasi chekkan nola kishini larzaga soladi.

Bu doston ozarbayjon, turk, turkman, tatar va boshqa xalqlar orasida keng shuhrat topdi. Fuzuliy «Layli va Majnun» dostonini yozdi. Umar Boqiy «Layli va Majnun»ning nasriy variantini yaratadi. Xalq shoirlari Navoiy dostoni asosida «Layli va Majnun»ning fol`klor variantini yaratdilar.

M A V Z U: «SAB`AI SAYYOR»

R E J A:

Kirish.

1. Doston haqida.
2. Bahrom va Dilorom hikoyasi.
3. Asarning yetti hikoyasi.
4. Dostondagi obrazlar.
5. «Sab`ai sayyor» va xalq og`zaki ijodi.

Xulosa.

A D A B I Y O T L A R:

1. Darsliklar.
2. A.Navoiy. Asarlar. 20 tomlik. 10-tom. T. 1992 y.
3. A.Navoiy. «Xamsa». T. 1986 y.
4. A.Navoiy. «Sab`ai sayyor». Nasriy bayoni. T. 1991.
5. Olim Sharafiddinov. «Bahrom go`r obrazi va Sab`ai sayyora to`g`risida». T. 1948.
6. To`xtasin Jalolov. «Xamsa talqinlari». T. 1968.
7. N.Mallayev. A.Navoiy va xalq og`zaki ijodiyoti. T. 1974.
8. A.Abdug`afurov. Buyuk beshlik saboqlari. T. 1995.
9. S.Hasanov. Navoiyning yetti tuhfası. T. 1991.

Alisher Navoiy to`rt oydan ko`proq zahmat chekib 1484 yilda «Xamsa»ning 4-dostoni «Sab`ai sayyor»ni yozib tugatadi. Professor A.Abdug`afurov ta`kidicha, doston 5000 baytdan ko`proq. Asar «Sab`ai sayyor» yoki «Sab`ai sayyora», ya`ni 7 sayyor, 7 kezuvi ma`nosini beradi. Doston ishqiy sarguzasht asardir. U xalq og`zaki ijodida bo`lganidek, hikoya ichida hikoya tarzida yozilgan. Asosiy qoliplovchi hikoya «Bahrom va Dilorom» haqidagi hikoyadir.

Shuningdek, unda 7 sayyor tomonidan so`zlab beriladigan 7 mustaqil hikoya o`rin olgan, hikoyachilar sayyorlarga, yulduzlarga o`xshatilgan. 7 hikoya, 7 qasr, haftaning 7 kunida

hikoya qilinadi. Bu narsa qadimgi koinot ilmi bilan aloqadordir. Vavilion astralogiyasi bo`yicha yakshanba quyosh kuni, dushanba oy, seshanba Mars (Mirrix), chorshanba (Merkuriy) Atorud,

payshanba (Yupiter) Mushtariy, juma Venera (Zuxra), shanba Saturin-(Kayvon) kuni deb nomlangan.

Mirrixning 2-nomi Bahrom. Zuhra esa Dilorom deb talqin qilinadi. Asarning asosida Bahrom obrazi turadi. Sosoniylar sulolasida V asrda Varaxran V degan podsho o`rgan. Uning dariy tilidagi nomi Bahrom. Xalq og`zaki ijodida Bahrom, uning podsholigi bilan bog`liq juda ko`p afsona va rivoyatlar yaratilgan. YOzma adabiyotda Bahrom haqidagi ilk syujet Firdavsiyning «Shohnoma» asarida uchraydi. N.Ganjaviydan boshlab esa xamsachilikning an`anaviy obraziga aylanadi. Nizomiyning «Haft paykar» asarida qoliplovchi hikoya «Bahrom va Fitna» haqida bo`lib «Yetti go`zal hikoyasi va yetti mahbus» sarguzashti bayon qilinadi. Nizomiydan keyin X.Dehlaviy «Hasht bihisht» dostonini yaratadi. Unda qoliplovchi hikoya - «Bahrom va kanizagi» xaqida bo`lib, «Yetti malika» hikoyasi keltiriladi. Ashraf ham «Haft paykar» asarida Bahromga to`xtaladi. Ko`rinadiki, Navoiygacha ham Bahrom haqida anchagina asarlar mavjud edi. Navoiy esa bu obrazni yangicha yo`nalishda talqin etadi. Navoiy Nizomiy va Xisrav Dehlaviylarning yutuqlarini, ularga bo`lgan hurmatini alohida ta`kidlaydi va ayni paytda ularning dostonlaridagi ikki kamchilikni ko`rsatib o`tadi. Birinchisi, ular tasvirlagan Bahromda «Moyayi dard», «Ishq» so`zidan mahrumlik, ya`ni mast holda afsona tinglashning haqiqatga nomuvofiqligi.

Bahrom Diloromdan ayrilgach qattiq iztirobga tushadi. Mamlakat ishlaridan yiroqlashadi. Kasal bo`lib qoladi. Hakimlar maslahatlashib u uchun yetti rangdagi qasr qurdirishni tavsiya etadilar. Bahrom qasr qurilishini kuzatadi. Yetti iqlim shohlarining qizlariga uylanadi. O`z dardiga malham bo`lar degan umidda, qayg`ularini unitish istagida yetti iqlimdan kelgan musofirlar, darvishlardan hikoyat tinglaydi.

Birinchi hikoyat shanba kuni qora qasrda birinchi iqlimdan kelgan musofir «Farrux va Axiy» haqidagi hikoyatni aytib beradi. Ikkinchi hikoyat yakshanba kuni sariq qasrda Bahromga ikkinchi iqlimdan kelgan darvish rumlik «Zayd Zahhob» haqidagi hikoyatni aytib beradi.

Uchinchi hikoyat dushanba kuni yashil qasrda uchinchi iqlimdan kelgan musofir «Sa`d» haqidagi hikoyatni aytib beradi.

To`rtinchi hikoyat seshanba kuni gulgun qasrda to`rtinchi iqlimdan kelgan musofir «Juna va Mas`ud» haqidagi hikoyatni aytib beradi.

Beshinchi hikoyat chorshanba kuni nilufar qasrda beshinchi iqlimdan kelgan musofir «Mehr va Suhayl» haqidagi hikoyatini aytib beradi.

Oltinchi hikoyat payshanba kuni sandal rangli qasrda «Muqbil va Mudbir» haqidagi hikoyatni aytib beradi.

Yettinchi hikoyatni juma kuni oq qasrda xorazmlik musofir Dilorom haqidagi hikoyatni aytib beradi.

Alisher Navoiyning «Sab`ai sayyor» dostonida shanba kuni qora qasrda birinchi iqlimdan kelgan darvesh quyidagi hikoyatni gapirib beradi:

Sarandib (Seylon) shohining yakka-yagona farzandi Farrux tushida Quddusga ketayotgan bir guruh odamlar orasida tuya ustiga ortilgan maofadagi bir go`zal ayolni ko`rib, uni qattiq sevib qoladi. Uni izlab topish uchun safarga otlanadi. Farruxning otasi Nusratxon

IX asr arab tarixchisi Dinovariyning «Al-axbor at-ti`ol» asarida hikoya qilishicha, Filipp Doro II dan yengilib, unga xiroj to`lash va qizini xotinlikka berishga majbur bo`ladi.

Doro xotinini haydab yuboradi. Filipp bolani o'z o'g'li qilib ko'rsatadi. Filipp o'ladi. Iskandar taxtga chiqadi. U Doro III ga qarshi urush qiladi yengib, taxtga chiqadi. Iskandar «qonuniy voris» sifatida Eron taxtiga chiqadi. (E.E. Bertel's. Roman ob Aleksandre. M., 1948. 13-bet).

Iskandarning afsonaviy tarixi 923 yilda vafot etgan tarixchi At-Tabariyning «Tarix arrusul va -l-muluk» («Payg'ambarlar va podsholar tarixi») asarida to'laroq bayon etiladi. Tabariyning hikoya qilishicha, Filipp Doroga boj to'lar ekan. Filippning vafotidan keyin taxtga chiqqan Iskandar Doroga boj to'lamay qo'yadi. Doro Iskandarga «go'y» bilan «chavgon» va kunjut yuboradi. Iskandar «go'y»ni yer yuzi deb, uni egallashini, kunjutni tovuqlarga yediradi. Doroning ikki amaldori suyuqasd qilib, uni o'ldiradilar. Doroning oldiga kelgan Iskandar uning suyi qasdchilarini jazolash, qizi Ravshanakka uylanish va qarindoshlariga aziyat bermaslik haqidagi vasiyatni eshitadi. Iskandar uni bajaradi.

Klitarx va Oneskrit Iskandar haqida asar yaratadi. Shundan keyin Plutarx ham asar yozadi. Eramizning I asrida Iskandar haqida Psevdo Kallesfen roman yozadi. X asrdan boshlab yozma adabiyotda Iskandar obrazi an'anaviy obrazga aylanadi. Nizomiy Ganjaviyning «Iskandarnoma» asaridan boshlab Iskandar xamsachilikning an'anaviy obraziga aylanadi. Xusrav Dehlaviy «Oyinai Iskandariy», Abdurahmon Jomiy «Xiradnomai Iskandariy» asarlarini yaratishdi. Bu asarlarda Iskandar fotih, olim, faylasuf va payg'ambar sifatida talqin etiladi.

Turkiy adabiyotda Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'otit turk», Rabg'uziyning «Qissai Rabg'uziy» asarlarida Iskandar obrazi keng o'rin tutadi. Iskandar Qur'onning surasida eslangan Zulqarnayndir. Demak, Iskandar obrazi Qur'oni karimda ham uchrar ekan.

Navoiy o'zigacha mavjud manbalarni chuqur o'rganadi. «Xamsa»ning boshqa dostonlarida, lirikasida va boshqa asarlarida ilgari surgan ilmli, olim, adolatli shoh obrazini «Saddi Iskandariy»dagi Iskandar obrazida yoritishga harakat qiladi. Aytish kerakki, Navoiy «Tarixi mulki Ajam» asarida Iskandar haqidagi afsona va rivoyatlar asosida yoritgan bo'lsa, «Saddi Iskandariy» dostonida Iskandarning shoh va olim sifatida ideal obrazini chizishga harakat qiladi.

«Saddi Iskandariy» dostoni xamsachilik an'anasiga muvofiq «Xamsa»ning beshinchi dostoni hisoblanadi. Bu doston «Xamsa»ning boshqa dostonlariga qaraganda hajman kattaroq bo'lib, 7215 bayt (14430 misra)dan tashkil topgan. Doston 89 bo'limdan iborat. U muqaddima, asosiy qism va xotimadan tashkil topgan. Dostonning 14 bobi muqaddima hisoblanib, u to'rt qismga bo'linadi. 1) Hamd, 2)Na't, 3) Munojot, 4)Me'roj.

I. «Xamsa» takmilida, so'z ta'rifi, Nizomiy, Dehlaviy, Jomiy ta'rifi.

II. Husayn Boyqaro va Badiuzzamon madhi.

III. Tarix ilmi va qadimgi eron shohlarining 4 taboqoti: Peshdodiylar, Kayoniylar, Ashkoniylar va Sosoniylar haqida.

XV bo'limdan dostonning asosiy qismi boshlanadi. Unda Iskandarning tug'ilishi, yoshligi. XVI bo'limdan podsho Iskandar sarguzashtlari bayon qilinadi.

Alisher Navoiyning «Sab' ai sayyor» dostonida payshanba kuni Bahrom sandal qasrida oltinchi iqlimdan kelgan darveshdan quyidagi mazmundagi hikoyatni tinglaydi. Bu hikoyat Muqbil va Mudbir haqidagi hikoyatdir.

Alisher Navoiyning «Sab' ai sayyor» dostonida juma kuni Bahrom oq qasrda yettinchi iqlimdan kelgan xorazmlik darveshdan quyidagi hikoyatni tinglaydi. Bu hikoyat Xorazmlik musofir tomonidan aytilgan Bahrom va Dilorom haqidagi hikoyatdir. Bahrom bilan topishadi. Ularning qismati fojea bilan tugaydi: yer yutadi. Shunday qilib, «Sab' ai sayyor» Bahrom Go'r haqidagi takomillashgan hikoya bo'lish bilan birga, xilma-xil voqea va obrazlarga boy yetti hikoyatdan iborat. Shoir dostonni shunday misralar bilan yakunlaydi:

Xalqqa zebi torak ayla ani,

O'qug'ong'a muborak ayla ani.

Xalq ijodchilari «Bahrom-Gulandom» dostoni variantlarini yaratdilar. XVIII asrning ikkinchi yarmida yashagan shoir Sayqaliy ham «Bahrom va Gulandom» dostonini yozdi.

M A V Z U : «SADDI ISKANDARIY» DOSTONI

R E J A:

1. Aleksandr Makedonskiy va badiiy adabiyot.
 2. Iskandar - adolatli va ma'rifatparvar ideal podsho obrazi.
 3. Dostonda olimlar obrazi.
 4. Dostondagi xotin-qizlar obrazi.
- Xulosa.

A D A B I Y O T L A R:

1. Darsliklar.
2. A.Navoiy. Asarlar. XX tomlik. XI tom. Toshkent, 1993.
3. A.Navoiy. «Xamsa». Toshkent, 1986.
4. Ye.E.Vertel's. «Roman ob Aleksandre». Moskva, 1948.
5. A.Qayumov. «Saddi Iskandariy». Toshkent, 1975.
6. N.Mallayev. «Alisher Navoiy va xalq og'zaki ijodi», Toshkent, 1974
7. A.Navoiy. Saddi Iskandariy. Toshkent, 1978
8. A.Abdug'afurov. Buyuk beshlik saboqlari. T., 1995.
9. F.Sulaymonova. Sharq va G'arb. T., 1997.
10. A.Hayitov. «Saddi Iskandariy» dostonining kompozitsiyasi va g'oyasi. «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali. №1. 2000 yil. 39-41-bet.

Iskandar obrazi dunyo xalqlari orasida ancha mashhuridir. U yaqin va O'rta Sharqlarda Iskandari Zulqarnayn, Iskandari Rumiy, Iskandar Maqdon nomlari bilan tarqalgan. Iskandar Aleksandr Makedonskiyning Sharqdagi nomidir. Tarixdan ma'lumki, Aleksandr Makedonskiy (1356-1323 yillar) qadimgi dunyoning mashhur lashkarboshisi va davlat arbobidir. Aleksandr Makedonskiy haqida ko'plab afsona, rivoyatlar yaratilgan.

(Jasratxon) uni bu yo'ldan qaytarishga qanchalik harakat qilmasin, o'g'li o'z qaroridan qaytmasligini ko'rib, unga noiloj ijizat beradi. Bundan Farrux shod bo'lib, otasi xazinasidan safar uchun yetarli molu dunyo, askaru xizmatkorlarni olib safarga azm qiladi.

Quddusda o'z Diloromini topolmagan Farrux yana tushida u ayol haqida quyidagi ma'lumotni oladi:

Ul kecha g'amdin asru bedil edi,
Tushta biri anga bu nukta dedi:
«Kim agar aylasang murodi talab,
Turmayin, tongla ayla azmi Halab».

Sabr toqati toq bo'lgan Farrux Halab tomon yo'l oladi. O'zi bilan yuztacha kuchli mardonavor kishilarni qoldirib, qolganlariga Hindistonga, o'z vatanlariga qaytishga ruxsat beradi. Farrux o'z odamlari bilan Quddus ziyoratidan qaytayotgan halabliklarga qo'shiladilar. Halab shahri ahli ham ziyoratdan qaytayotgan o'z qavmu qarindosh va birodarlarini kutib olish uchun chiqadilar. Shu asnoda g'uj-g'uj bo'layotgan odamlar orasida Farrux ko'ziga bir mahmil ko'rinadi.

Tushidagi sevgilisini ko'rib hushini yo'qotgan Farrux o'ziga kelgach, boyagi gavjum odamlardan nishon ham qolmagan edi.

Farrux egnidagi shohona kiyimlarini yechib, qoramtir rangli palosni yelkasiga tashlab ko'zdan g'oyib bo'ladi. U telbalardek ko'chama-ko'cha yurib, oxiri o'ziga bir issiq tashlandiq makonni topib, ustiga palosni tashlab yotadi.

Tong otishi bilan Farrux xizmatidagi odamlar shahzodaning yo'qligidan oyoqqa turadilar, uni ikki kechayu kunduz qidirib topolmay qattiq azobu iztirob chekib charchaydilar va tasodifan uning qoldirgan xatini topib, voqeadan xabardor bo'ladilar. Ishq dardining chorasizligini anglashib vatan tomon yo'l oladilar.

Farrux esa ishq yo'lini tanlab shohlikdan gadolikka tushib qoladi. Shu tariqa Farrux bir necha kun-tun hech narsa yemay-ichmay, yonib-yelib yuradi. Bedavo dardga uchraganini fahmlaydi, holdan toygach, hayotdan umidini uzib, behush yotib qoladi.

Halab shahrida bir davlatmand, saxovatli bir olijanob xoja bor ekan. Uning oti Axiy bo'lib, ismi jismiga monand ekan.

Mast bo'lib qolgan Farrux ko'nglidagi sirini Axiyga oshkor etadi.. Tushida ko'rgan ayolga bo'lgan ishq tug'yoni uning qalbini doimo o'rtab kelayotganini aytadi. Farrux tasvirlangan ayolning o'z xotini ekanligini anglab yetgan Axiy ishq yo'lida jasorat ko'rsatib, o'zini qurbon qilayotgan insonga qoyil qoladi va uning bu muqaddas maqsadi amalga oshishi yo'lida katta muruvvat ko'rsatadi. Axiy uni qattiq sevuvchi xotinini taloq qilib, unga pichoqlar o'qtalib, Farruxga mujburan nikohlaydi, yonlariga mol-mulk va mulozimlar qo'shib, izzatu ikrom bilan ularni Hindistonga jo'natadi. Axiy esa Farruxning qora rangli palosini yodgor sifatida qoldirishni so'rab, olib qoladi.

Yo'lda Farruxga Axiyning muruvvat yuzasidan hatto o'z xotinini ham ayamagani ma'lum bo'ladi. Bundan qattiq ta'sirlangan Axiyning xotinini bundan keyin singil deb biladi va vataniga qaytgach uning uchun Axiynikidek qasr qurib beradi.

O'zining vafodor va sevimli xotini bilan xayrlashganidan so'ng Axiyning dushmanlari unga turli bo'htonlar yog'diradilar va uning Halabdan qochib ketishiga erishadilar. Falakni gardishi Axiyni Sarandibga olib keladi. Axiydan olib kelib, shaharni aylanayotgan Farrux tasodifan xarobalar orasidan Axiyni topib, uyiga olib keladi. (Axiy javonmard edi. Bu tushuncha izohlanadi).

Bir necha kundan keyin Axiy o'ziga kelgach, Farrux unga endi o'zining singlisiga uylanishini taklif etadi. Axiy rozilik beradi. To'y-tomosholardan so'ng Axiy yana o'zining ilgari xotiniga erishganligidan behad xursand bo'ladi va murodu maqsadiga yetadi.

Alisher Navoiyning «Sab'ai sayyor» dostonidan yakshanba kuni ikkinchi iqlimdan kelgan darvesh Oltin qasrda Bahromga Zayd Zahhob haqida quyidagi hikoyatni aytib beradi:

Rum shohining saroyida Zayd Zahhob ismli mohir zargar bo'lgan ekan. Shohning yaqin odami, suhbatdoshi va tabibi ham o'sha zargar ekan. Boshdan-oyoq hunar egasi bo'lgan zargarning bitta aybi bor edi: u ham bo'lsa firibgar va ayyor ekan. Vaqti kelganda shoh moliga xiyonat qilishdan ham toymaskan. U o'zining ustaligi va ayyorligi bilan shohning ko'nglini egallagan bo'lib, Navoiy unga qo'yidagi ta'rifni beradi:

Rum aro zargare edi mohir,
Ishi elga quyosh kibi zohir.
Rum shohi qoshida joh anga,
Johi xo'rdida korgoh anga.
Shahrda sohibi yor ham ul,
Shah qoshida xazinador ham ul.
Zoti ahli hunar mubohoti,
Zayd Zahhob o'lub aning oti.
Ham hakim erdi, ham muhandisvash,
Goh zarposh ediyu goh zarkash.
Boshidin to ayoq hunar edi pok,
Ayb anga buki, erdi ko'p bebok...

«Sab'ai sayyor» dostonidagi uchinchi hikoyat Sa'd haqidadir.

Misrda bir savdogar bo'lib, uning yaxshi tarbiya ko'rgan Sa'd ismli o'g'li bor ekan. O'z biliimlarini yanada oshirish maqsadida u tez-tez uyiga musofirlarni olib kelib, ularni mehmon qilib turar ekan. Bir kuni uning uyida zangori libos kiygan ikki shaxrisabzlik musofirlar mehmon bo'lishipti. Ular Shahrissabzda ibodatxona borligini, unda bir kecha tunagan kishi o'zining kelajagini tushida bilib olishi mumkinligini aytishipti. Shuningdek, Sa'd ulardan unday tushdan keyin nima qilishini bilmagan kishilarga g'orda yashayotgan Faylaqus ismli donishmand o'z yordamini berishi mumkinligini bilib olipti.

Sa'd o'zining kelajagini bilib olishga qaror qilib, otasidan zo'rg'a safar uchun ruxsat olipti. Safar yuklari bir karvon bo'lgach, u otasining fotihasi bilan yo'lga chiqipti. Uzoq yo'l yurib, Shahrissabz shahriga kirib kelipti. Zangori libos kiygan boyagi ikki mehmon uni ibodatxonaga olib kelibdi. Sa'd ibodatxonada tunab tush ko'riпти, tushida ikki qanotli ikkita maxluq paydo bo'liпти. Ulardan biri:

Kim nasibing sening pari bo'lmish,
Ki yuzi mehri xovariy bo'lmish, - deydi

Ikkinchisi:

Kim seni dev qilg'usidir asir,
Solib ikki oyog'inga zanjir, -

depti... Sa'd Shahrizabz shohining qiziga uylanish uchun quyidagi uch shartni bajaradi: qatron nomli qora devni engipti. Donishmandning savollariga javob beripti. Sehgarni yutib chiqipti.

Shundan so'ng, Sa'd zangori qasr qurib, baxtli hayot kechiripti.

Alisher Navoiyning «Sab' ai sayyor» dostonida seshanba kun Bahrom La'l qasrda to'rtinchi iqlimdan kelgan darveshdan quyidagi hikoyatni tinglaydi:

Qadim zamonda Dehlida Juna ismli bir podshoh o'tgan bo'lib, uning xazinasi va boyligining nihoyasi yo'q ekan. Shohga butun dunyo mamlakatlari va ko'p xalqlar tobe ekan... Bir kun shohning xuzuriga bir mehmon keladi, ular dunyodagi ajoyibotlar haqida ko'p suhbat qurishadi. Mehmon shohga bir g'ayri tabiiy ko'zgu tortiq qiladi. Uning g'aroyibli Shundaki, kimki yolg'on gapirsa, ko'zguda uning yuzi qora bo'lib aks etar ekan. Mehmon shohga Hindistonning Taraz degan joyida bir jannat misol shaharda Mas'ud ismli saxovatu muruvvatda yagona, Hotamtoy ham teng kelolmaydigan kishi haqida gapiradi. Shoh bu gapning rostligiga ishonch hosil qilish uchun safarga otlanipti. Nihoyat Mas'udning uyini izlab topibdi. Uy katta bir qasrdan iborat bo'lib, u juda muhtasham ekan. qasr mehmonlar bilan to'la. Shohni xizmatkorlar katta izzatu ikromlar bilan uyiga taklif etiptilar. Ziyofat ustiga ziyofatlar bo'lipti. Mas'ud musofirni mehmondo'stligi bilan qoyil qoldiripti. Mas'ud shohga ko'p tortiqlar qatori turli tilsimlar bilan bezatilgan jomni ham hadya qilipti. Jomning xosiyati shundan iborat ekanki, jomning ichidagi may hech qachon tugamas ekan. Taraz viloyatining valiyi Jaypur ismli kishi ekan. U zolim va pastkash kishi bo'lib, uning ustidan shohga ko'p shikoyatlar tushar ekan, Hindiston shohi taxtga qaytgach, Taraz hokimini olib tashlab, o'rniga Mas'udni qo'yishga qaror qilgan ekan. Bu xabarni eshitgan zolim Jaypur o'zining Ballu ismli noibi bilan buning oldini olish tadbirini o'ylashipti. Ular Mas'udni o'ldirib, shohning qanotini sindirmoqchi bo'lishadi.

Mas'ud boshidan o'tgan voqealarni shohga birma-bir aytib beradi. Shoh uni o'ziga do'st qilib, baland martaba beripti, Ballu bilan Jaypurni esa qatl ettiripti.

Alisher Navoiyning «Sab' ai sayyor» dostonida chorshanba kuni moviy qasrida Bahromga beshinchi iqlimdan kelgan darvesh quyidagi hikoyatni so'zlab beradi:

Adan mamlakatida bir zolim qaroqchi bo'lgan ekan. Uning hunari dengizdagilarga zo'ravonlik ko'rsatib, mol-mulkni talashdan iborat ekan. Shuning uchun ham na do'sti, na yaqin kishisi bo'lib, u topgan narsalarini qaroqchilar bilan bo'lishib olarkan. U devday kuchga ega, shijoatli va botir yigit bo'lib, ularni hech kim ko'rmas joyga yashirib qo'yar ekan. Dengizda kema ko'rinishi bilan u hujumga o'tib, bir pasda kemadagilarning molu-mulkini talon-taroj qilishga ulgurar ekan. Uning oti ham jismi va qilmishlariga monand bo'lib, Jobir, ya'ni «Jabr qiluvchi» deb qo'yilgan ekan. Bu orolchada mollarini yashirib qo'yadigan xazinasi ham bor ekan. Bu erda Mehr va Suhayl sarguzashtlari ham bayon qilinadi.